

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

“TA‘LIMDA BOSHQARUV” KAFEDRASI
PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA
o‘quv modulidan
O‘QUV USLUBIY MAJMUA

Ta‘lim turi: Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Malaka oshirish toifasi: Nomutaxassis oliy ma‘lumotli shaxslar

TOSHKENT

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining pedagogik psixologiya o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

S.A.Qarshiboyev

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
Tayanch doktoranti

Taqrizchilar:

N.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
P.f.f.d. (PhD)

A.Sharafiddinov

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali “Umumiy psixologiya”kafedrası
dotsenti.

Kasbiy ta’lim rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan. 202__
yil “ ____ ” _____ -sonli bayonnoma.

MUNDARIJA

I.	KIRISH	
II.	ISHCHI O‘QUV REJA	
III.	ISHCHI O‘QUV DASTUR	
IV.	MODULNI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	
V.	MA‘RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR	
VI.	TEST SAVOLLARI	
VII.	ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI	
VIII.	TAQDIMOT MATERIALLARI	
IX	ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI	

I. TUSHUNTIRISH XATI

Bugungi kunda pedagogik psixologiya kasbiy ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik qonuniyatlarini bilish, o'quvchining shaxsiy va kognitiv rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish hamda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish zamonaviy pedagog uchun zaruriy kompetensiya hisoblanadi. Pedagogik psixologiya fani o'qitish va o'rganish jarayonlarining psixologik mexanizmlarini o'rganib, pedagoglarga o'z faoliyatini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23-iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyulda "Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5172-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda "Kasbiy ta'lim tashkiloti direktorining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosarlari" malaka oshirish kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur modul tinglovchilarga pedagogik jarayonda psixologik bilimlarni qo'llay olish zamonaviy yondashuvlar, samarali muloqot usullari va hamkorlik mexanizmlarini o'rganish imkonini beradi. Unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladigan treninglar va keys-stadilar orqali real vaziyatlarda ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

II. O'QUV REJA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA'LIM AGENTLIGI
KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



Ta'lim tashkilotlari Amaliyotchi psixologi huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining O'QUV REJASI

Ta'lim shakli: ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan
Saotlar miqdori: 1008 soat
Tinglovchilar talfasi: Amaliyotchi psixologi

№	O'quv hujjatlari, fanlar va faoliyat turiflarining sanalari	Tinglovchilarning o'quv yuklamasi (soatlarda)						Soatlarning oylar va haftalar kesimidagi taqsimoti						
		Umumiy yuklamaning hajmi		Anjulariya mashg'ulatlari (soatlarda)				Oylar						
				Jami	Ma'nsab	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya	Haftalar soni						
		Soat	%					1	2	3	4	5	6	7
1	2	3	4	5	6	7	8	10	11	12	13	14	15	16
1.	I muntazabiy fanlar	432	8	432	192	240	8	132	120	120	48	6	6	6
1.1	Psixologiya fanlari	30		30	18	18		30						
1.2	Umumiy psixologiya	72		72	36	36		36	36					
1.3	Yosh davlat psixologiyasi	36		36	12	24		18	18					
1.4	Pedagogik psixologiya	48		48	24	24		24	24					
1.5	Shaxs psixologiyasi	36		36	18	18		18	18					
1.6	Ushbu psixologiya	60		60	24	36		24	36					
1.7	Differensial psixologiya	30		30	12	18			30					
1.8	Rivojlanish psixologiyasi	24		24	12	12			24					
1.9	Androgogika	42		42	18	24			24	18				
1.10	Psixologik etikasi va huquqiy asoslari	30		30	12	18			6	24				
1.11	Tayyor fan	18		18	6	12				6	6			6
2.	Ichki o'qish fanlari	504	8	504	108	180	72	12	24	24	96	128	144	48
2.1	Kasbiy ta'lim psixologik asoslari	18		18	6	12					18			
2.2	Psixologiya fanlari	72		72	12	36	24			24	48			
2.3	Psixologik metodologiya	18		18	6	6	6			18				
2.4	Psixologik maslahat va kuzatuv	42		42	18	18	6			12	30			
2.5	Psixologiya fanlari	72		72	12	36	24				12	36	6	
2.6	Psixologiya	24		24	12	12							24	
2.7	Psixologik jarayon asoslari	48		48	12	24	12							48
2.8	Xulq oq'ibgan bolalar psixologiyasi	24		24	12	12					24			
2.9	Korrektsion psixologiya	42		42	18	24							42	
2.10	Analitik (matematika)	144		144	6			12	24	24	24	24	24	12
	Jami	936		792	420	180	16	144	144	144	144	144	144	72
3.	Yakuniy amaliyotlar	72												72
3.1	Kurs ishi	24												24
3.2	Chiqish ishi	6												6
3.3	Ikkinchi malakali ish	42												42
	Jami	1008		792	420	180	16	144	144	144	144	144	144	144

Eslatma:

- O'quv rejadagi o'quv fanlari bo'yicha sinov (test, yozma yoki ijodiy ish, og'zaki so'rov) va bitiruv ishi himoyasi
- Qayta tayyorlash kursida tinglovchilar belgilangan modullar bo'yicha 56 foizdan yuqori ball to'plasa, modulli o'zlashtirgan hisoblanadi. Tinglovchilar belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, modulli o'zlashtirilmagan hisoblanadi.
- Malaka oshirish kunlarining o'quv jarayoni aralash shaklida amalga oshiriladi.

O'quv reja Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti ilmiy-pedagogik kengashida ma'qullangan
 20__yil __. __. __dagi __-sonli bayonoma

KELISHILDI

Institut direktorining malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha o'rinbosari

ishlab chiqildi:

Kasbiy ta'lim boshqaruvi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish fakulteti dekani

"Ta'limda boshqaruvi" kafedrasi mudiri

"Ta'limda boshqaruvi" kafedrasi dotsenti

X. Temirov

H. Begimqulov

D. Raamatullayeva

N. Raatipova

III. ISHCHI O'QUV DASTURI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI

KASBIY TA'LIM AGENTLIGI

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



TASDIQLAYMAN»

Kasbiy ta'limni rivojlantirish
instituti direktori

X. Kadirov

2026 yil

“TA'LIMDA BOSHQARUV”

kafedrasi

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

fani bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTUR

Ta'lim turi: Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
Tinglovchilar toifasi: Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

TOSHKENT

Mazkur ishchi o‘quv dastur Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

S.A.Qarshiboyev

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
Tayanch doktoranti

Taqrizchilar:

N.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
P.f.f.d. (PhD)

A.Sharafiddinov

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali “Umumiy psixologiya” kafedrası
dotsenti

Kasbiy ta’lim rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida
ma’qullangan. 202__ yil “____” _____ -sonli bayonnoma.

I. TUSHUNTIRISH XATI

Bugungi kunda pedagogik psixologiya ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik qonuniyatlarini bilish, o'quvchining shaxsiy va kognitiv rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish hamda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish zamonaviy pedagog uchun zaruriy kompetensiya hisoblanadi. Pedagogik psixologiya fani o'qitish va o'rganish jarayonlarining psixologik mexanizmlarini o'rganib, pedagoglarga o'z faoliyatini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur fan tinglovchilarga pedagogik jarayonda psixologik bilimlarni qo'llay olish zamonaviy yondashuvlar, samarali muloqot usullari va hamkorlik mexanizmlarini o'rganish imkonini beradi. Unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladigan treninglar va keys-stadilar orqali real vaziyatlarda ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Ushbu o'quv fanida tinglovchining o'quv yuklamasi 48 soat bo'lib, shundan:

Jami auditoriya o'quv yuklamasi	- 48 soat
Jumladan: Nazariy mashg'ulotlar	- 24 soat
Amaliy mashg'ulotlar	- 24 soat

II. FANNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Fan nomi: Pedagogik psixologiya.

2.2. Fan maqsadi: Tinglovchilarda pedagogik psixologiya fanining predmeti, vazifalari va metodlari haqida tizimli bilimlarni shakllantirish; o'qish, o'rganish, tarbiya va kasbiy tanlash jarayonlarining psixologik qonuniyatlarini tahlil qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish; ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish, mashg'ulot maqsadi va vazifalari asosida ta'lim usullarini tanlash hamda ta'lim jarayoni natijalarini baholash kompetensiyalarini shakllantirish.

2.3. Tinglovchilar ushbu fanni o'rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

Bilim	Ko'nikma	Kompetensiya
Pedagogik psixologiya fanining predmeti va vazifalari.	Pedagogik psixologiyaning predmeti va vazifalarini tahlil qila oladi.	Ta'lim-tarbiya jarayonini psixologik qonuniyatlar asosida tahlil qilishda qo'llaydi.
Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi va rivojlanish bosqichlari.	Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlarini izchil bayon eta oladi.	Fan tarixini o'qitishda tarixiylik tamoyiliga rioya qilishni ta'minlaydi.
O'rganish va o'quv faoliyatining psixologik nazariyalari (faoliyat, operant, imprinting, verbal o'rganish).	O'rganishning turli nazariyalari farqlaydi va ularni o'quv jarayoniga tatbiq eta oladi.	O'rganish nazariyalarini dars jarayonini loyihalashda qo'llay oladi.
O'quv motivasiyasining tushunchasi, turlari va shakllanish qonuniyatlari.	O'quvchilar motivasiyasini o'rganadi va uni oshirishga yo'naltirilgan usullarni tanlaydi.	O'quv motivasiyasini shakllantiruvchi pedagogik usullarni amaliyotda qo'llaydi.
Tarbiya psixologiyasining maqsadi, vositalari va metodlari; muloqot va tarbiya.	Tarbiya jarayonining psixologik mexanizmlarini tahlil qila oladi va baholaydi.	Tarbiya psixologiyasini ot-onalar va o'quvchilar bilan ishlashda samarali qo'llaydi.
Pedagog psixologiyasi: umumiy va maxsus xususiyatlar, kommunikativ qobiliyatlar.	Pedagogning shaxsiy va kommunikativ fazilatlarini baholaydi va rivojlantiradi.	Pedagogik muloqot va individual uslubni o'qitish amaliyotida joriy eta oladi.
Pedagogik baholashning psixologik asoslari; stimol va baholashning yosh xususiyatlari.	Ta'limni stimullashtirishning maqsadga muvofiq usullarini tanlay oladi.	Pedagogik baholashni ta'lim jarayonida motivasion vosita sifatida qo'llaydi.
Psixologiyani o'qitish metodikasi: predmeti, metodologik asoslari va zamonaviy yondashuvlar.	Psixologiya darslarini turli metodlar va pedagogik texnologiyalar asosida rejalashtiradi.	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalarini psixologiya o'qitishda tatbiq etadi.

Fan bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim
			Jami	Jumladan		
			Nazariy	Amaliy		
1	Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar	4	4	2	2	
2	Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi	4	4	2	2	
3	Pedagogik psixologiyaning metodlari	4	4	2	2	
4	O'rganish va o'quv faoliyati nazariyasi	4	4	2	2	
5	Ta'lim olish qobiliyati o'quv faoliyati subyektlarining xarakteristikasi sifatida.	4	4	2	2	
6	O'quv motivatsiyasi.	4	4	2	2	
7	Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari.	4	4	2	2	
8	Pedagog psixologiyasi.	4	4	2	2	
9	Pedagogik baholash psixologiyasi.	4	4	2	2	
10	Psixologiya o'qitish metodikasi: predmeti, vazifalari, tamoyillari.	4	4	2	2	
11	Ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv.	4	4	2	2	
12	Psixologiya o'qitishning maqsadlari.	4	4	2	2	
	Jami:	48	48	24	24	

III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu. Ta'lim va tarbiya ko'pgina fanlarning predmeti sifatida.
 Ta'lim va tarbiya ko'pgina fanlarning predmeti sifatida. Pedagogik faoliyat psixologiyasi ta'lim va tarbiyaning psixologik jabhalari. Ta'lim va tarbiyaning amaliy yig'indisi. Tarbiyaning ta'lim oldidagi ustunligi. Pedagogik psixologiya

tuzilmasi. Pedagogik psixologiyaning asosiy muammolari. Rivojlanishda senzitiv davr muammolari. Bolaning psixik rivojlanishi va pedagogik ta'sirning o'zaro aloqadorligi muammosi. Genotipik va muhitda shartlanganlik muammosi. Pedagogik ortda qolish muammosi.

2-mavzu. Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi. Pedagogik psixologiyaning umumpsixologik konteksti. Pedagogik psixologiyaga oida nazariyalar. Fanga "Pedagogik psixologiya" terminining kiritilishi. Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari.

3-mavzu. Pedagogik psixologiyaning metodlari. Umumiy va maxsus metodlar. Pedagogik psixologiyada eksperiment. Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo'llash. Tadqiqot, konsultatsiya va psixologik pedagogik korreksiya metodlari.

4-mavzu. O'rganish va o'quv faoliyati nazariyasi. O'rganish turlari, shart-sharoitlari va mexanizmlari. Faoliyat turlari. O'quv faoliyati, o'qitish, o'rgatish, o'zlashtirish tushunchalari. Imprinting, operant o'rganish, shartli reflektor o'rganish, vikar o'rganish, verbal o'rganish. O'rganish va rivojlanishning o'zaro munosabati. O'rganish darajasini belgilovchi omillar. O'quv faoliyati nazariyasi. O'quv faoliyati tuzilmasi. Motivatsiyalashganlik, rivojlanganlik, egiluvchanlik. O'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri. O'quv ishining turlari: frontal, individual, bevosita, bilvosita, axborot, umumlashtirish. O'quv faoliyatini tashkil etishning guruhviy ko'rinishlari. Turli yosh davrlarida o'rganish. Maktabgacha davr, kichik maktab davri, o'smirlik va o'spirinlik davrlarida o'qitish va o'zlashtirish.

5-mavzu. Ta'lim olish qobiliyati o'quv faoliyati subektlarining xarakteristikasi sifatida. Psixologiyada subekt tushunchasi. Subektning asosiy xarakteristikalari. Ta'lim jarayoni subektlarining maxsus xususiyatlari. Ta'lim olishning umumiy xarakteristikasi va uning ko'rsatkichlari. Ta'lim olish omillari va ta'lim oluvchilar xarakteristikasi.

6-mavzu. O'quv motivasiyasi. Psixologiya fanida motivasiya tushunchasi. Motivasiya nazariyasi. O'quv motivasiyasi: tushuncha va tuzilma. O'quv motivasiyasi turlari va mazmuni. O'quv motivlari turlari. O'quv qiziqishlari. O'quv motivasiyasini o'rganish va uning shakllanishi.

7-mavzu. Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari. Tarbiyaning nazariy masalalari. Tarbiyaning maqsadi. Vosita va metodlar: to'g'ridan-to'g'ri, vositali, anglangan va anglanmagan, emosional va xulqiy metodlar. Tarbiya institutlari. Tarbiyaning psixologik nazariyasi. Tarbiyaning biogen va sosiogen nazariyalari. Kompromiss yondashuv. Xarakter, motivlar, shaxs sifatlari va xulq-atvor ko'rinishlarini tarbiyalash masalalari. Oila va tarbiya. Oila ichidagi munosabatlar.

Rag'batlantirish va jazolashni qo'llash. Noto'liq oila. Oila buzilishining ijtimoiy-psixologik oqibatlarini. Turli yosh davrlarida tarbiyalash.

8-mavzu. Pedagog psixologiyasi. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablar. Pedagoglarning ijtimoiy-maxsus sifatlarini aniqlash metodlari. Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari. Kommunikativ qobiliyatlar tuzilmasi. Pedagogik muloqot. Pedagog faoliyatining individual uslubi. Pedagogda o'zini o'zi rivojlantirish va shakllantirish. Pedagogik o'zini o'zi boshqarish psixologiyasi.

9-mavzu. Pedagogik baholash psixologiyasi. Ta'limni stimullashtirish va bolalarni tarbiyalash vositalari. Pedagogik baholash stimuli sifatida. Pedagogik baholashning sosial-psixologik ko'rinishlari. Pedagogik baholash samaradorligi shartlari. Baholashning shaxsiy ahamiyati. Stimullarning individual qadr-qimmatining o'zgarishi. Pedagogik baholashning yosh xususiyatlari.

10-mavzu. Psixologiya o'qitish metodikasi: predmeti, vazifalari, tamoyillari. Psixologiyani o'qitishning umumiy masalalari. Psixologiya o'qitish metodikasi predmeti, tarkibi, vazifalari va funksiyalari. Psixologiya o'qitishning umumiy va maxsus metodikalari. Psixologiya o'qitish metodikasining metodologik asoslari. Tarixiylik tamoyili. Rivojlanish tamoyili. Faoliyat tamoyili. To'liqlik tamoyili. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Psixologiyaning amaliyot bilan bog'liqligi.

11-mavzu. Ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi, sinonimlari va evolyusiyasi. Texnologik tashkil etilgan o'quv jarayonining belgilari. Diagnostik maqsadlar taksonomiyasi. O'quv vazifalari tizimi. D.Tollingerovanning o'quv vazifalari taksonomiyasi. O'rganishning zamonaviy konsepsiyalari. Pedagogik texnologiya turlari klassifikatsiyasi. Pedagogik texnologiyalar namunalari va ularning tanqidiy tahlili.

12-mavzu. Psixologiya o'qitishning maqsadlari. Psixologiyaning gumanitar fan sifatidagi o'ziga xos tarkibi. Psixologiya o'qitishning o'quv rejasi va dasturi. Psixologiya rivojlanishining asosiy tendensiyalari. Oliy va o'rta maktabda psixologiyani o'qitish tarixi. Zamonaviy psixologik ta'lim. Bilish faoliyati ko'rinishlari va psixologiya o'qitishning faol metodlari.

3.2. Amaliy mashg'ulot mazmuni

1-mavzu. Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar. Pedagogik psixologiyaning predmeti, vazifalari va boshqa fanlar bilan bog'liqligini tahlil qilish. Pedagogik psixologiyaning asosiy tuzilmasi va tarkibiy qismlarini aniqlash. Ta'lim va tarbiya jarayonida uchraydigan psixologik muammolarni muhokama qilish. Rivojlanishda sezitiv davrlar va pedagogik ta'sirning o'rnini bo'yicha amaliy misollar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

2-mavzu. Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi. Pedagogik psixologiya fanining shakllanish bosqichlarini o'rganish. Sharq va G'arb olimlarining pedagogik

psixologiyaga qo‘shgan hissasini tahlil qilish. Pedagogik psixologiyaning rivojlanish tarixiga oid ilmiy qarashlarni taqqoslash. Fan taraqqiyotining zamonaviy yo‘nalishlarini aniqlash va ular asosida xulosalar chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

3-mavzu. Pedagogik psixologiyaning metodlari. Pedagogik psixologiyada qo‘llaniladigan metodlarni amaliy jihatdan o‘rganish. Kuzatish, suhbat, test va eksperiment metodlarini qo‘llash bo‘yicha topshiriqlar bajarish. Tadqiqot metodlarining afzallik va kamchiliklarini aniqlash. Olingan natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

4-mavzu. O‘rganish va o‘quv faoliyati nazariyasi. O‘quv faoliyatining tuzilmasi va bosqichlarini tahlil qilish. O‘rganishning psixologik mexanizmlarini amaliy misollar asosida tushuntirish. Bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullarini aniqlash. O‘quv faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

5-mavzu. Ta‘lim olish qobiliyati o‘quv faoliyati subektlarining xarakteristikasi sifatida. Ta‘lim olish qobiliyatining individual xususiyatlarini aniqlash. O‘quvchilarning psixologik imkoniyatlarini baholash usullarini qo‘llash. Ta‘lim samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillarni tahlil qilish. Ta‘lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashuvlarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

6-mavzu. O‘quv motivatsiyasi. Motiv va motivatsiya tushunchalarini amaliy misollar asosida o‘rganish. O‘quv motivlarining shakllanish jarayonini tahlil qilish. Ichki va tashqi motivatsiya omillarini aniqlash. Talabalarda o‘quv motivatsiyasini oshirish bo‘yicha metodlarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

7-mavzu. Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari. Tarbiya jarayonining psixologik asoslarini o‘rganish. Tarbiya metodlari va vositalarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash. Oila va ta‘lim muassasasidagi tarbiyaviy munosabatlarni tahlil qilish. Tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

8-mavzu. Pedagog psixologiyasi. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan psixologik talablarni aniqlash. Pedagogik qobiliyat va pedagogik muloqotning ahamiyatini tahlil qilish. O‘qituvchining individual faoliyat uslubini baholash. Pedagogik faoliyatda o‘zini boshqarish va rivojlantirish bo‘yicha mashqlar bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

9-mavzu. Pedagogik baholash psixologiyasi. Pedagogik baholashning asosiy tur-larini o‘rganish. Baholashning o‘quvchilarga psixologik ta‘sirini tahlil qilish. Reyting va monitoring tizimlarini amaliy misollar asosida qo‘llash. Adolatli baholash mezonlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

10-mavzu. Psixologiya o‘qitish metodikasi: predmeti, vazifalari, tamoyillari. Psixologiya o‘qitish metodikasining asosiy tamoyillarini o‘rganish. O‘qitish metodlarini taqqoslash va ularning samaradorligini aniqlash. Psixologiya fanini o‘qitishda metodik yondashuvlarni ishlab chiqish. Nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash bo‘yicha mashqlar bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

11-mavzu. Ta‘lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv. Pedagogik texnologiyalarning mohiyatini o‘rganish. Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash. O‘quv jarayonini texnologik loyihalash bo‘yicha topshiriqlar bajarish. Ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologik yondashuvlarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

12-mavzu. Psixologiya o‘qitishning maqsadlari. Psixologiya fanini o‘qitishning ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini aniqlash. Psixologik bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash usullarini tahlil qilish. Psixologiya fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash. O‘quv mashg‘ulotlarini maqsadli rejalashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik psixologiya fanining predmeti nima?
2. Pedagogik psixologiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Pedagogik psixologiya qanday fanlar bilan bog‘liq?
4. Pedagogik psixologiyaning tuzilmasiga nimalar kiradi?
5. Pedagogik psixologiyaning asosiy muammolari qaysilar?
6. Rivojlanishda senzitiv davr deganda nima tushuniladi?
7. Pedagogik psixologiya fanining shakllanishiga qaysi olimlar hissa qo‘shgan?
8. “Pedagogik psixologiya” terminini kim ilmiy muomalaga kiritgan?
9. Pedagogik psixologiya rivojlanishining asosiy bosqichlari qaysilar?
10. Pedagogik psixologiyada kuzatish metodining ahamiyati nimada?
11. Eksperiment metodining mohiyati nimadan iborat?
12. Test metodlari qanday maqsadlarda qo‘llaniladi?
13. Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodiga misol keltiring.
14. O‘rganish tushunchasi nimani anglatadi?
15. O‘quv faoliyati deganda nima tushuniladi?
16. Bilim, ko‘nikma va malaka o‘rtasidagi farq nimada?
17. O‘rganishning qanday turlari mavjud?
18. Operant o‘rganish nima?
19. Shartli reflektor o‘rganishning mohiyati nimada?
20. O‘quv faoliyati tuzilmasiga nimalar kiradi?
21. Motivatsiyalashganlik nima?
22. O‘quv faoliyatida o‘qituvchining roli qanday?

23. Ta'lim olish qobiliyati nima?
24. Individual farqlar deganda nima tushuniladi?
25. Ta'lim samaradorligiga qanday omillar ta'sir qiladi?
26. Motiv va motivatsiya tushunchalari o'rtasidagi farq nima?
27. Ichki motivatsiya nima?
28. Tashqi motivatsiya nima?
29. O'quv qiziqishlari qanday shakllanadi?
30. Tarbiya psixologiyasining asosiy maqsadi nima?
31. Tarbiyaning psixologik asoslari nimadan iborat?
32. Tarbiya metodlariga misollar keltiring.
33. Oila tarbiyasining ahamiyati nimada?
34. Rag'batlantirish va jazolashning tarbiyadagi o'rni qanday?
35. Pedagog shaxsiga qanday psixologik talablar qo'yiladi?
36. Pedagogik qobiliyat deganda nima tushuniladi?
37. Pedagogik muloqotning ahamiyati nimada?
38. Pedagog faoliyatining individual uslubi nima?
39. Pedagogik baholash nima?
40. Pedagogik baholashning qanday turlari mavjud?
41. Baholashning motivatsiyaga ta'siri qanday?
42. Psixologiya o'qitish metodikasining predmeti nima?
43. Psixologiya o'qitishning asosiy tamoyillari qaysilar?
44. Faoliyat tamoyili nimani anglatadi?
45. Pedagogik texnologiya tushunchasi nima?

V. O'QITISH VOSITALARI

1. Doska;
2. Flipchart qog'ozi;
3. Qog'oz A4 formatli yetarlicha;
4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to'plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor).

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-son Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya. –Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh.A. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent, 2008.
3. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya va psixologiyani o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2015.
4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. –Moskva: Pedagogika, 1991.
5. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2002.
6. Nemov R.S. Psixologiya. 1–3-kitoblar. – Moskva: Vlados, 2003.
7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –Toshkent, 2006.

Internet saytlar

8. <http://edu.uz>
9. <http://www.mitc.uz>
10. <http://lex.uz>
11. <http://ziyonet.uz>
12. <http://natlib.uz>

IV. MODULNI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. Muhokama. Ishtirokchilar kichik guruhlarga bo‘linib, pedagogik psixologiyaga oid mavzular, ta’lim jarayonidagi psixologik muammolar hamda ularning yechimlari yuzasidan fikr almashadilar. Ushbu metod orqali talabalar turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, psixologik vaziyatlarga baho berish va muloqot madaniyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Case-study. Pedagogik psixologiyaga oid real yoki modellashtirilgan vaziyatlar ishtirokchilar tomonidan tahlil qilinadi. Guruhlar muammoning psixologik jihatlarini aniqlaydi, sabablarini o‘rganadi va samarali yechimlar ishlab chiqadi. Ushbu metod tahliliy fikrlash va muammoni kompleks baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.

3. Loyiha asosida o‘qitish. Ishtirokchilar guruhlarda pedagogik psixologiyaga oid mini-loyihalar ishlab chiqadilar. Masalan, motivatsiyani oshirish, stressni kamaytirish yoki samarali muloqotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tayyorlaydilar. Ushbu metod amaliy faoliyatni tashkil etish va jamoada ishlash tajribasini oshiradi.

4. Fikr almashish va refleksiya. Har bir mashg‘ulotdan so‘ng ishtirokchilar o‘z tajribalari va o‘rganilgan bilimlarni tahlil qiladilar. Qaysi metod samarali bo‘lgani, qanday psixologik yondashuv foyda bergani va nimalarni takomillashtirish kerakligi muhokama qilinadi. Bu metod o‘zini baholash va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi.

5. Visual mapping va diagrammalar. Pedagogik-psixologik jarayonlar diagramma, jadval, sxema yoki “mind map”lar orqali vizual tarzda ifodalanadi. Ushbu metod murakkab psixologik tushunchalarni osonroq anglash, xotirada saqlash va tizimli fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

IV. MA'RUZA MATN VA O'QUV MATERIALLAR

1-MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIY: PREDMET, TUZILMA, MUAMOLAR

Reja:

1. Pedagogik-psixologiya fanining predmeti, vazifalari.
2. Fan sifatida pedagogik-psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati.
3. Pedagogik psixologiya tuzilmasi.
4. Pedagogik psixologiyaning asosiy muamolari.
5. Pedagogik-psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

Ma'lumki, qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da shaxs kamoloti eng asosiy masala qilib olingan. Respublikamizda ularda ko'rsatib o'tilgan vazifalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Pedagogik psixologiya psixologiya fanining muhim tarmoqlaridan biridir. Pedagogik psixologiya murakkab tuzilishiga ega bo'lib, inson hayotining barcha sohalarining, ayniqsa, ta'lim va tarbiyaviy tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik psixologiya kursining maqsadi - talabalarga ta'lim va tarbiyaning mazmuni, undagi psixologik qonuniyatlar, inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati, pedagogik psixologiyaning metodlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Pedagogik psixologiya fanining asosiy vazifalariga bakalavrlarni ijtimoiy faoliyatining ta'lim va tarbiya kabi yo'nalishlarida o'qituvchi shaxsi mehnatini tashkil etish, pedagogik jamoalarda ishni tashkil etish omillari, mexanizmlari va shart-sharoitlari bilan tanishtirish, ta'lim faoliyat motivlarini mukamal o'zlashtirish, o'quvchilarning ta'limdagi qobiliyat va iqtidorini o'stirish yo'llari hamda ularni rivojlantirish omillariga o'rgatish, bu borada ijtimoiy-psixologik hodisalar tabiati va mohiyatini tushunishga ko'maqlashishdan iboratdir.

Pedagogik psixologiya – psixologiya ilmining tarmog'i sifatida, ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va

mexanizmlarini o'rganuvchi fandır.

Ta'lim-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va xatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya'ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o'rin egallagandır. Pedagogik psixologiyaning predmeti o'quv muassasalarida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, o'quvchilarda faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir. Shuningdek, pedagogik psixologiya - ta'lim-tarbiyaning ta'siri okibatida o'quvchilar psixikasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, o'quv materiallarining o'quvchilarning yosh davrlariga mos kelishini, turli ta'lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligini, darsliklarining tartibiga nisbatan bo'lgan psixologik talablar kabi muamolarni ham o'rganadi.

Pedagogik psixologiya o'qitish va tarbiyaning psixologik asoslari haqidagi fandır. Buning ma'nosi shuki, pedagogik psixologiya o'quvchilar tomonidan bilim, iqtidor va malakalarni o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini va shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar shaxsining tarkib topishini o'rganadigan fandır.

Pedagogik psixologiyaning vazifasiga, shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabati, o'qituvchi shaxsiga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'rganish, o'qituvchilik qobiliyatining mazmunini va uning tarkib topishini ochib berish va boshqa masalalarni ham o'rganish kiradi. Pedagogik psixologiya ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan bilim va malakalarni egallashning qonuniyatlarini va tarbiya jarayonida bola shaxsining tarkib topishini o'rganadi.

O'qitish va tarbiyalashning psixologik qonuniyatlarini o'rganish pedagogik psixologiyaning predmetini tashkil qiladi. Bu fan o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar tafakkurining shakllanishini tekshiradi; o'zlashtirish jarayonining idora qilish, aqliy faoliyat usullari va malakalarining tarkib topish muamolarini o'rganadi, o'qitish jarayonining, o'quvchi va o'qituvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning, ta'lim oluvchilar jamoasidagi o'zaro munosabatlarning

muvaffaqiyatli bo'lishiga ta'sir qiladigan psixologik omillarni aniqlaydi; o'quvchilarning individual-psixologik tafovutini, bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarining psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Pedagogik psixologiyaning predmeti ta'lim tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi. Pedagogik psixologiya ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik masalalarini o'rganadi. Bilish jarayonlarining rivojlanishini tekshiradi. Aqliy taraqqiyotning ishonchli mezonlarini izlaydi. Tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o'zaro masalalarni o'rganadi. Bundan tashqari pedagogik psixologiya bolalarga individual yondashuv masalalarini ham o'rganadi.

Pedagogik-psixologiya psixologiya ilmining tarmog'i sifatida, ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır.

Bolalarning maktabdagi hamda ta'lim-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va xati-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik-psixologiya ikki fanni, ya'ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o'rin egallagandır.

Pedagogik-psixologiyaning predmeti maktabda bilim, ko'nikma, malakalarini egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, o'quvchilarda faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir. Shuningdek, pedagogik-psixologiya ta'lim tarbiyaning ta'siri oqibatida o'quvchilar ruhiyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, o'quv materiallarining o'quvchilarning yosh davrlarga mos kelishni, turli ta'lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligini, darsliklar, o'quv qurollari, asbob-uskunalar, maktab ishlarining tartibiga nisbatan bo'lgan psixologik talablar kabi muamolarni ham o'rganadi.

Pedagogik psixologiya o'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslarini o'rganadi. O'quvchilarda bilim, iqtidor va malakalarni o'zlashtirish tufayli ular shaxsining tarkib topish qonuniyatlari mavzuni o'z ichiga oladi.

Pedagogik psixologiya ta'lim va tarbiya jarayonida bola shaxsining tarkib topish muomolarini o'rganar ekan, u bolalar psixologiyasi bilan mustahkam aloqada ish ko'radi. Darsliklar, o'quv qo'llanmalari, qurollari, ta'lim va tarbiyaning samarali metodlari, o'quvchilarni mehnat va ijtimoiy faoliyaga tayyorlash masalalarini har bir o'quvchining o'ziga xos sifatlarni bilmay turib, amalga oshirib bo'lmaydi.

O'quvchi tafakkurining shakllanishi, aql darajasining o'sa borishi, o'quvchilar jamoasidagi o'zoro munosabatlarning mohiyati, har bir o'quvchida bilimlarni o'zlashtirish malaka va ko'nikmalarini bilmay turib, ta'lim va tarbiya ishida muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Bu masalalarni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan tamoillar va metodlar quyidagilardan iborat:

1. Obyektivlik tamoili. O'quvchi shaxsiga xos bo'lgan psixologik xodisalarni obyektiv holatda o'rganadagina to'g'ri xulosalar aniqlanadi. O'quvchining o'zi haqida gapirganiga qarab, unga baho beriladi.

2. Rivojlanish tamoili. Bu tamoil bola shaxsiga xos bo'lgan psixologik xodisalarni o'sishi, o'zgarishda, hamma vaqt rivojlanishda qarashni taqozo etadi.

3. O'zoro bog'liqlik tamoili. Bu tamoil o'quvchi hayoti va faoliyatining tashqi sabablarini tashqi ta'sirlarning har bir o'quvchiga ta'sir etish sabablarini bilishni talab qiladi. Pedagogik psixologiyaning ilmiy – tadqiqot metodlari yuqoridagi tamoillarga asoslanadi.

Pedagogik psixologiyaning metodlari umumiy psixologiyaning metodlaridan iborat bo'lib, ularga matematik – statistik metod qo'shiladi. Bu metodning mohiyati shundaki, bunda aniqlangan xulosalarni tekshirish uchun turli statistik usullardan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda pedagogik psixologiya sohasidagi ilmiy tekshirish ishlarining muvaffaqiyati uchun ta'limning quyidagi sohalariga e'tibor berish kerak.

1. Ona tili o'qitish psixologiyasi. Bu soha o'quvchilarda ona tili fanidan bilim, iqtidor va malakalar hosil qilish usullarini topish masalalarini o'rganadi. Bu yozishga, o'qishga, orfografiya va grammatikani o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi.

2. Chet tilini o'qitish psixologiyasi. Bu bo'lim chet tilidan to'g'ri gapirish, o'qish, yozish va tarjima qilish masalalarini o'z ichiga oladi.

3. Matematika o'qitish psixologiyasi. Bu bo'lim matematik fanlarni to'g'ri o'zlashtirish masalalarini o'rganadi.

4. Geografiyani o'qitish psixologiyasi. Bu bo'lim geografik bilimni tez va mustahkam o'rganish masalalari bilan shug'ullanadi.

5. Mehnat talimi psixologiyasi. Bu bo'lim mehnat madaniyati va o'quvchilarda ijtimoiy mehnatga ongli munosabat hissini tarbiyalash muamolarini o'z ichiga oladi.

O'qitish o'quvchining bilim faoliyatini o'stirish bo'lib, ikki tomonlama jarayondir. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ularning yoshi va individual xususiyatlari hisobga olingan holda fanlar asoslari singdiriladi. O'qituvchining faol faoliyati tufayli o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish maqsadi amalga oshiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish o'quvchining bilish faoliyatidir. Bu faoliyat tufayli o'quvchilarga bilim, iqtidor, malakalar singdiriladi, ular shaxsi shakllantiriladi. O'qish faoliyati tufayli o'quvchilar tabiat va jamiyatga doir bilim asoslari bilan qurollanadilar.

Hozirga vaqtda ta'limning bir qancha shakllari bor. Bular o'quvchining obektiv olamga faol munosabatida nomoyon bo'ladi va uning oyin, mehnat va o'qish faoliyatida aks etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchining faoliyati davomida bilim o'zgarib. Aniqlashib boradi. O'quvchining bilim zonasi uning og'zaki va yozma nutqi orqali yuzaga chiqadi. Bu jihatdan o'quvchilarning bilimi quyidagi sifatlarga ega bo'ladi.

A) qat'iyon ilmiy;

B) tizimli;

C) tushunarli;

D) har tomonlama chuqur;

E) hayot tajribasi bilan bog'langan;

F) harakatchan – operativ (*hamma sohlarda foydalanishga imkon beradi*).

O'qish faoliyati bilish jarayoni bo'lib, o'quvchi psixologik holatlarining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning ilmiy bilimlarni egallashlariga yordam beradigan omillar quyidagilardan iborat:

1. Hissiy bilish. Hissiy bilish sezish, anglash, tushunishdan boshlanadi.

2. Ilmiy bilimlarni idrok qilish. Idrok qilish narsa va hodisalarning ichki hususiyatlarini, muhim xossalarini bilishga imkon beradi.

3. Ko'rsatmalilik. Ko'rsatmalilik materioli muvaffaqiyatlari o'zlashtirishning zarur shartidir. Pedagogik psixologiyada ko'rsatmalilikning bir qancha turlari bor.

A) **Predmetli ko'rsatmalilik.** bunga tabiiy obektlar tevarak atrofdagi predmet va hodisalar kiradi. tabiatdan olingan narsalardan foydalaniladi. m: tabiatshunoslik, botanika darslarida o'simliklar, zoologiyada hayvonlar, geografiya darslarida minerallar ko'rsatiladi, ma'lum obektlarga sayohatlar uyushtiriladi.

B) **Tasviriy ko'rsatmalilik.** tasviriy ko'rsatmalilik simvollik, ko'rsatmalilik bo'lib, rasm, jadval, maket, chertyot kabilor orqali amalga oshiriladi.

C) **Texnik ko'rsatmalilik.** bunda ia'limning texnik vositalari – kinofilm, diopazitiv, teleeshitirish, gramafon, magnitafon yozuvlari, radio eshitirish kabilardan foydalaniladi.

D) **So'z ko'rsatmaliligi.** Maktab amaliyotida yetakchi o'rin tutuvchi ko'rsatmalilik o'z ko'rsatmaliligi bo'lib, u o'qituvchining jonli nutqidir. Bu nutq o'quvchilar tushunchasiga kuchli ta'sir orqali ularda turli emosional kechinmalarni vujudga keltiradi.

Ta'lim materialini mustahkam va chuqur o'zlashtirishning bir qancha muhim faktorlari bor. O'quvchining ta'lim materialini o'zlashtirishini quyidagi shartlarga asoslanadi:

4. Diqqatlilik. O'quvchining bilim olish faoliyati diqqatsiz amalga oshmaydi. Diqqat tufayligina o'quvchilar ta'lim materialini to'la anglab va mustahkamlab, o'zlashtirib oladilar. Shuning uchun o'qituvchi xilma – xil usullar yordamida

o'quvchilarning ixtiyoriy diqqatini butun bir dars davomida darsda bayon qilinishi zarur bo'lgan materialga jalb qilinishi shart.

5. Faol o'qish faoliyati. O'quvchining dars davomidagi faol faoliyati bilimni ongli, tushunib o'zlashtirishga yordam beradi. Faol faoliyat tufayli o'rganilgan bilimdan o'quvchilar amaliy faoliyatda to'g'ri foydalanadilar.

6. Qiziqtirish. Ta'lim materialga qiziqish o'quvchilarning o'qish jarayoniga faol munosabatida ifodalanadi. O'rganilayotgan bilimning amaliy ahamiyatini to'la tushunish o'quvchinin qiziqtirishning muhim shartidir. Buni o'qituvchi turli usullar, qiziqarli amaliy mashg'ulotlar yordamida amalga oshiradi.

7. Xotira. Bilimlarni o'zlashtirishning muhim shartlaridan biri o'quvchining xotira faoliyatidir. Bu faoliyat esga olish, esda saqlash, qaytadan esga tushurish kabi fazalarni o'z ichiga oladi. Xotira faoliyati o'quvchi bilimining to'laligi, aniqligi va mustaqilligini ta'minlaydi.

O'quvchi bilimni logik tarzda esga olishi shart. Olingan ta'lim materialini esda saqlab turish va undan amaliy faoliyatda sunumlm foydalanishning yagona sharti takrorlashdir. Takrorlash faol, unumli va maqsadli bo'lishi kerak.

Ko'nikma va malakalar. O'quvchining bilimlarni o'zlashtirishda ko'nikma va malakalarning ahamiyati kattadir. Maqsadga muvofiq ravishda bilim olishga qaratilgan xarakat usullari ko'nikmalardir. Ko'nikma o'quvchining amaliy xarakatlarida nomolyon bo'ladi. Bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda amaliy faoliyat ko'nikmasi tarbiyalanadi.

O'quvchining bilimi ko'nikmasiz bo'lishi mumkin, lekin ko'nikma bilmsiz bo'lmaydi. M: daraxtni o'tqazish tufayli ko'kartirib o'stirishni o'quvchi biladi, ignaga ip o'tkazish oddiy ko'nikma, o'sha orqali buyumtikish murakkab, qog'oz va qalam bo'lsa, istagan rasmini chizish mumkin, lekin chiza olmaydi. Ko'nikmalar o'quvchining malakasiga aylanadi va uning ongli irodaviy harakatlarini ifodalaydi. Malakalilik o'quvchining og'zaki, yozma nutqida, hisoblash, chizish faoliyatida aks etadi. O'quvchidagi bilimning biror sohasiga nisbatan bo'lgan malaka uning faoliyatinig boshqa sohalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2-MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING YUZAGA KELISH

TARIXI

Reja:

1. Pedagogik psixologiya fanining predmeti va vazifalari
2. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida shakllanishi
3. Sharq mutafakkirlarining pedagogik-psixologik qarashlari
4. G'arb olimlarining pedagogik psixologiya rivojiga qo'shgan hissasi
5. Zamonaviy pedagogik psixologiyaning rivojlanish bosqichlari
6. Pedagogik psixologiyaning bugungi kundagi ahamiyati

Pedagogik psixologiya psixologiya fanining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonidagi psixologik qonuniyatlarni o'rganadi. Ushbu fan o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, shaxs sifatida rivojlanishi, motivatsiyasi, qobiliyati va pedagogik muloqot masalalarini tadqiq qiladi. Pedagogik psixologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonining psixologik asoslarini o'rganish;
- o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini aniqlash;
- samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayonida motivatsiyani shakllantirish;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish.

Pedagogik psixologiya ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy fan hisoblanadi.

Pedagogik psixologiyaning fan sifatida shakllanishi

Pedagogik psixologiya uzoq tarixiy rivojlanish jarayoniga ega. Dastlab inson ruhiyati va tarbiya masalalari falsafa doirasida o'rganilgan. Keyinchalik psixologiya mustaqil fan sifatida shakllanib, undan pedagogik psixologiya alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqqan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida eksperimental psixologiyaning rivojlanishi pedagogik psixologiyaning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ta'lim jarayonini ilmiy asosda o'rganishga ehtiyoj ortdi.

Pedagogik psixologiyaning rivojlanishida quyidagi omillar muhim rol o'ynadi:

- maktab ta'limining kengayishi;
- bolalar psixologiyasining rivojlanishi;
- eksperimental tadqiqotlarning paydo bo'lishi;
- pedagogik faoliyatga psixologik yondashuvning kuchayishi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik-psixologik qarashlari

Sharq mutafakkirlari pedagogik va psixologik fikrlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

Abu Nasr Forobiy inson tarbiyasi va ta'limida aql-idrokning o'rni muhim ekanligini ta'kidlagan. U inson kamolotida muhit va tarbiyaning ahamiyatini yuqori baholagan.

Abu Ali ibn Sino bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olib ta'lim berish kerakligini qayd etgan. U bolalarni jamoa bo'lib o'qitishning afzalliklarini ko'rsatib bergan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson tarbiyasi, axloqiy fazilatlar va ilmning ahamiyati haqida fikr yuritgan.

Sharq allomalari inson tarbiyasi va ruhiy rivojlanishini uzviy bog'liq holda ko'rib chiqqanlar.

G'arb olimlarining pedagogik psixologiya rivojiga qo'shgan hissasi

Pedagogik psixologiya rivojida G'arb olimlarining xizmatlari ham katta. Jan Jak Russo bolaning tabiiy rivojlanish g'oyasini ilgari surgan va ta'lim bolaning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Johann Heinrich Pestalozzi ta'limda mehr-muhabbat va amaliy faoliyatning ahamiyatini ko'rsatgan.

Lev Vygotskiy ta'lim va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi haqidagi nazariyani ishlab chiqqan. U "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini fanga kiritgan.

Jean Piaget bolalar tafakkurining rivojlanish bosqichlarini o'rgangan va kognitiv rivojlanish nazariyasini yaratgan.

Zamonaviy pedagogik psixologiyaning rivojlanish bosqichlari

Hozirgi davrda pedagogik psixologiya ta'lim texnologiyalari, innovatsion metodlar va raqamli ta'lim bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda.

Zamonaviy pedagogik psixologiyaning asosiy yo'nalishlari:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- interfaol metodlardan foydalanish;
- motivatsiyani oshirish;
- inklyuziv ta'lim;
- pedagogik kommunikatsiyani rivojlantirish;
- axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Bugungi kunda pedagogik psixologiya nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Pedagogik psixologiyaning bugungi kundagi ahamiyati

Pedagogik psixologiya o'qituvchi faoliyatini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Ushbu fan orqali o'qituvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim beradi.

Pedagogik psixologiyaning amaliy ahamiyati:

ta'lim sifatini oshirish;

o'quvchilarning qiziqishini rivojlantirish;

ijobiy psixologik muhit yaratish;

pedagogik nizolarni oldini olish;

shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash.

Nazorat savollari

1. Pedagogik psixologiya fanining predmeti nimadan iborat?
2. Pedagogik psixologiyaning asosiy vazifalarini ayting.
3. Pedagogik psixologiya qachon mustaqil fan sifatida shakllandi?
4. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari haqida gapiring.
5. Abu Ali ibn Sino ta'lim haqida qanday fikr bildirgan?
6. Lev Vygotskiyning pedagogik psixologiyaga qo'shgan hissasi nimadan iborat?

3-MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING METODLARI

Reja:

1. Umumiy va maxsus metodlar.
2. Pedagogik – psixologiyada eksperiment.
3. Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo`llash.
4. Tadqiqot, konsultatsiya va psixologik-pedagogik korreksiya metodlari.

Umumiy va maxsus metodlar. Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning **metodlari** deb yuritiladi. Fanning salohiyati va obro'si ham birinchi navbatda o'sha metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning **ishonchliligi va validliligiga** bog'liq bo'ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo'lib, metodlar masalasi bu fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida haraladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixik hodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog'i o'z vazifalarini yechish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan.

Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo'llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo har bir metodning ishonchlilik darajasini aniqlash, qolaversa, to'plangan ma'lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam beradi.

1-jadvalda asosiy psixologik metodlar va ularni qo'llash shakllari keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan metodlar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqqan shaxs u yoki bu psixik jarayon, xolat yoki shaxs xususiyatlari to'g'risida birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana taxlil qilinadi va maxsus tarzda ishlatilishi mumkin.

PSIXOLOGIYANING ASOSIY METODLARI

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
Kuzatish metodi	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (subyektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
So'roq metodlari	Og'zaki so'roq Yozma so'roq Erkin so'roq (suhbat) Standartlashtirilgan so'roq
Testlar metodi	Test - so'rov Test - topshiriq Proyektiv test Sosiometrik test
Eksperiment	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti
Modellashtirish	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq - atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usulidir. O'z - o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usulidir.

Erkin kuzatuv ko'pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Masalan, bayram arafasida aholining kayfiyatini bilish maqsadida kuzatuv tashkil qilinsa, oldindan maxsus reja yoki dastur bo'lmaydi, kuzatuv obykti ham qat'iy bo'lishi shart emas. Yoki dars jarayonida bolalarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. **Standartlashtirilgan**

kuzatuv esa, buning aksi bo'lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan, kuzatuv olib boriladi.

Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhij jarayonlarning shaxs xulq - atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Bu bir qarashda kontrrazvedkachilarning faoliyatini ham eslatadi. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlar bir tomondan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni subyektiv ravishda qayd etadigan bo'lib qolishi ham mumkin. Guruhij fenomenlarni tashqaridan kuzatish buning aksi - ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida xulosalar chiqaradi.

Umuman, kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatgichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr - qanoatiga bog'liq bo'lgan jihatlar, yana to'plangan ma'lumotlarni subyektiv ravishda taxlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham biroz noqulayliklari ham bor, shuning uchun ham u boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi.

So'rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki so'roqni yoki ba'zan uni oddiygina qilib, **suhbat metodi** deb ataladi, o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach so'roq o'tkazadi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so'rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubxasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham **erkin va standartlashtirilgan** shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki, komp'yuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Testlar oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta - qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyasion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, xattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir.

Test - so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi.

Test - topshiriq odam xulqi va xolatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreativlikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xoxlaganicha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija

bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi - ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikasiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida **proyektiv testlar** deb nomlanuvchi testlar ham bor, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Ya'ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning "siyoh dog'lari" testi, yoki TAT (tematik appersepshion test), tugallanmagan xikoyalar kabi testlarda bir narsaning proyeksiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. O'sha 1921 yilda kashf etilgan "siyoh dog'lari" va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emosional holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixologgina qo'llashi va natijalarni mohirona taxlil qilishi talab qilinadi.

Psixologik eksperimentning mohiyati shundaki, unda ataylab shunday sun'iy bir vaziyat shakllantiriladi va tashkil etiladiki, aynan shu vaziyatda qiziqtirayotgan psixik jarayon yoki hodisa ajratiladi, o'rganiladi, ta'sir ko'rsatiladi va baholanadi.

Agar tabiiy eksperiment o'sha qiziqtirayotgan fenomen tekshiriluvchi uchun tabiiy hisoblangan sharoitlarda (masalan, mehnat jarayonida, kanikulda yozgi lagerda, lisey auditoriyasida va shunga o'xshash) maqsadli tashkil etilib, o'rganilsa, laboratoriya eksperimenti maxsus joylarda, maxsus asbob - uskunalar vositasida ataylab o'rganiladi. Masalan, diqqatingizning xususiyatlarini bilish kerak bo'lsa, psixologiya laboratoriyasida maxsus taxistoskop deb atalgan moslama yordamida yoki "Landolt xalqachalari" deb nomlangan jadvallar yordamida o'rganish mumkin bo'ladi. Hattoki, ijtimoiy munosabatlar borasida ham o'zaro hamjihatlik, liderlik va konformlilik hodisalarini tekshirish uchun **gruppaviy integratorlar va gomeostat**

deb nomlanuvchi moslamalar yaratilgan va ular yordamida guruhdagi turli xil hodisalar o'lgangan.

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Modellar texnik, mantiqiy, matematik yoki kibernetik bo'lishi mumkin. Matematik model asosida o'rganilgan hodisaga mashhur tadqiqotchilar Veber - Fexnerlarning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi va shu asosda to'plangan ma'lumotlar taxlilini misol qilish mumkin. Mantiqiy modellar yordamida ko'pincha inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish prinsiplari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oyalar va simvollar ishlatiladi. Kibernetik modellashtirishda esa g'oyalar psixologiyasini EHM dagi matematik programmashtirish tamoyillariga moslashtirish nazarda tutiladi. hozir ko'pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham programmashtirilgan bo'lib, ular algoritmlar asosda qisqa fursatda ko'pgina sifatlarni ko'plab parametrlar nuqtai nazaridan hisoblab natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda. Ko'pincha matematik o'yinlar g'oyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasini o'rganishda ham qo'llanilmoqda. Ma'lum bo'lishicha, odamning fikrlash operasialari bilan EHM larning ishlash prinsiplari o'rtasida ma'lum uyg'unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali inson aqlu - zakovati chegarasini yanada kengaytirish istiqbolini beradi.

Umuman psixologiyaning va uning har bir alohida tarmoqlarining o'ziga xos metodlari bor. Ular ijtimoiy xulq va alohida individ ichki dunyosini kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi.

Gap shundaki, ularni o'z vaqtida va professional tarzda qo'llay bilish va olingan natijalardan to'g'ri xulosalar chiqara olishdir.

Psixologiyaning tadbiiy va amaliy sohalarini. Hozirgi zamon ilm - fanining qadri va ahamiyati uning nechog'li amaliyotga kirib borib, tadbiiy salohiyati ortib borishi bilan baholanadi. Psixologiyaning oxirgi yillardagi taraqqiyoti ham aynan ana shu mezon talablariga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Amaliy hamda tadbiiy psixologiya sohalarining o'ziga xos jihatlari avvalo shundan iboratki, ular jamiyatning bevosita bugungi kundagi **talablari va buyurtmalariga** ko'ra ish yuritadi. Jamiyatimizda esa psixologik bilimlarni bevosita amaliyotga tadbiiq etishga ehtiyoj katta. Birgina O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturini oladigan bo'lsak, uning bajarilishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun psixologiyaning aralashuvi zarur. Joylarda tashkil etilgan **tashxis markazlarida** faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar o'quvchilardagi rivojlanish tendensiyalari, aqliy o'sish omillari va iqtidoriga qarab ta'lim - tarbiyani tashkil etishlari uchun qator diagnostik tadbirlarni o'tkazishlari zarurki, bu tadbirlar oxir - oqibat real samara berishi lozim. Ta'kidlash zarurki, tadbiiy psixologiyadagi "samara"ni o'lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi samara tushunchalari biroz farq qiladi. Ya'ni, bu yerda bevosita buyurtmaning bajarilishi sifatiga buyurtmachining o'zi baho beradi. Shuning uchun ham amaliy psixologiyaning alohida tarmog'i bo'lmish sosial psixologiya bilimlarga amaldagi ehtiyojni uch asosiy sabab bilan tushuntirishi mumkin:

a) kichik korxonalar yoki yirik firmalardan tortib, toki xukumat darajasidagi idoralar ham o'z faoliyati samaradorligini oshirish uchun tobora insonlar faoliyati va ulardagi rezervlardan omilkorona foydalanishning psixologik manbalarini qidirish lozimligini tushunib yetmoqdalar;

b) professional psixologlarning o'zi ham o'z ishlaridan keladigan obro' - e'tiborning amaliy sohalarida ishlay olish qobiliyatlariga bog'liq ekanligini tushunib yetmoqdalar;

v) amaliyotda ishlayotgan boshqa soha vakillari ham agar psixologik tayyorgarlikdan o'tgan bo'lsalar, ishni tashkil qilishga uquvlari yaxshiroq va ishlari unumliroq bo'lishini tushunib yetmoqdalar. Shuning uchun ham ko'plab yangi

turdagi markaz va firmalar, qo'shma korxonalarda amaliyotchi psixologlar ishlamoqdalar.

Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Sanoat va mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tadbqiqiy ishlar birinchi navbatda konkret tashkilotda kadrlar zaxirasini to'g'ri va oqilona tashkillashdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganib, hayotda natija olishga karatilgan harakatlar majmuidir. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida ushbu yo'nalishdagi tadbqiqiy ishlarning ikki sohasini ajratish mumkin:

1. Marketing xizmatlari

2. Xodimlar (personal) bilan ishlash.

Birinchi eng zamonaviy va muhim ish bo'lib, bu yerda psixologning vazifasi "Nimani?" va "Kim?" xarid qilib olishga ehtiyoji borligini o'rganishga ko'maklashishdir. Chunki, talab bilan ehtiyoj bevosita shaxsga va uning psixologik munosabatlari tizimiga aloqador kategoriyalar bo'lib, bozor va raqobat sharoitida korxonaga yoki tashkilotlarning samarali ishlab ketishi eng avvalo xaridorgir tovar mahsulotlarni ajratib, ularning odamlar talab - ehtiyojiga qanchalik mosligini aniq taxlil qilishdan boshlanadi. Marketing munosabatlari aslida odamlar o'rtasidagi sof psixologik munosabatlar bo'lib, uning negizida odamlar o'rtasidagi jonli muloqot va ta'b va didlar tarbiyasi yotadi. Shuning uchun biz bugun odamlarda to'g'ri marketing tafakkurini shakllantirish vositalarini qidirishimiz va talab - taklif munosabatlarini real ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishda inson psixologiyasi xususiyatlarini inobatga olib ishlashga o'rganishimiz kerak. Masalan, shunday "**Case Study**"ni olaylik: Psixologiyani qanday qilib sotish mumkin(ya'ni, Psixologik ma'lumotlar va bilimlarni)? Biz aniq va to'g'ri javoblar olishimiz kerak bo'lgan savollar quyidagilar bo'ladi:

Nima sotiladi? - Test natijalari

Nima uchun? - nima qilib bo'lsa ham, pul ishlash, o'z imkoniyatlarni tekshirish, shaxsiy ish ochish;

Kim ? - firma yoki konkret kishilar;

Nima ? - xilma - xil testlar batareyasi;

Kimga ? - turli kasb egalari, o'quvchilarga, xodimlarga;

Qayerda? Qachon? - zarurat bo'lgan har qanday joyda;

Qanday qilib? - minimal vaqt sarflab, tez va soz;

Qancha? - test o'tkazuvchilarning soni va imkoniyatiga qarab;

Kim bilan? - shu firma xodimlari bilan

Demak, marketing xizmatida javob berilishi zarur bo'lgan savollardan ko'rinib turibdiki, har bir savolga beriladigan javobning orqasida konkret odamlar, ularning qobiliyatlari, manfaatlari va ish unumi yotadi. Shuning uchun bu sohada psixologik xizmat zarur.

Ikkinchi soha - kadrlar va ular bilan bevosita ishlash sohasi. Bu kadrlarni ishga jalb etishda bilish zarur bo'lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlardan tortib, ularni to'g'ri yo'naltirish, o'z joyiga qo'yish, tashkilot doirasida guruhlarni shakllantirish, xodimlarga ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish bilan bog'liq kadrlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir. Psixolog bu o'rinda asosan maslahatchi - konsultant va ekspert sifatida rol o'ynaydi.

Psixologiyaning prinsiplari. Xar bir davr o'z kishilari ongida beixtiyor siyosiy ongni shakllantiradi va odamlar uning tamoyillariga bo'ysunadilar. Siyosat borasidagi psixologik masalalarga psixolog aralashuvining zarurati har doim bo'lmasa - da, ayrim paytlarda - yirik islohotlar boshlanishi arafasida, saylov oldi kompaniyalarda, yangi siyosiy liderlarning xalq tomonidan qabul qilinishi jarayonlari, ko'pchilik auditoriyaga zarur ma'lumotlarni yetkazish, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish, siyosiy arboblarning imidjini omma ongiga singdirish paytlarida psixologik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e'tiqodiga ta'sir etish kerak bo'lganda kerak bo'ladi.

Siyosiy sohada ishlayotgan psixolog ishining o'ziga xos jihatlari bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

a) siyosatda psixolog aralashuvi ko'pchilik ommaga bevosita aloqador bo'lmaydi;

b) zarurat tug'ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o'lchaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o'sha buyurtmachi - siyosatchining talabiga ko'ra izlanishlar olib boriladi;

v) psixolog har bir siyosatchi uchun shunday ishonchli shaxs bo'lishi lozimki, undan odamlarning kayfiyatlari, reaksiyalari, xis - kechinmalari xususida aniq ma'lumotlar so'raladi;

g) o'ziga xos qiyinchilik shundan iboratki, jamoatchilik psixolog qiyofasida ko'pincha liderning bevosita "odamini" ko'rishga moyil bo'lib, liderning o'zi ham ba'zan o'ta professional psixologdan xadiksirab qolishi mumkin.

Shuning uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, zarur paytlarda siyosiy arboblarning psixolog xizmatiga murojaat qilishlari va undan asosan biror jiddiy ijtimoiy projelarni qabul qilish jarayonida yordam berishini so'rash mumkin. Buning uchun psixologdan jamoatchilik fikrini psixologik taxlil qilib berish, va shu asosda fuqarolarning ustanovkalari va kayfiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni birgalikda ajratish vazifasini hal qilishlari mumkin. Saylov oldi kompaniyalarda esa, psixologning asosiy vazifasi odamlarning kayfiyatini o'rgangan holda da'vogar imidjini shakllantirishga, odamlarga yoqtirishga sabab bo'ladigan shaxsiy fazilatlar algoritmini tuzish, omma oldiga chiqishga psixologik tayyorlash, raqiblarning baxslashish madaniyati va etikasi borasida psixologik yo'l - yo'riq va usullar borasida ma'lumotlar almashinish kerak bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida siyosiy psixologiyaning o'zi juda zaif rivojlangan tarmoq bo'lgani sababli ham uni rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda rivojlantirish davr talablaridan biridir.

Pedagogik psixologiyaning tadbqiqiy ishlari. O'zbekistonda endi shakllanayotgan, lekin nazariy nuqtai nazardan ma'lum an'analarga ega bo'lgan soxadir. 1998 yilning O'zbekistonning birinchi Prezidenti tomonidan "Oila yili" deb e'lon qilinishi joylarda psixologik xizmat o'choqlarining paydo bo'lishiga va u yerlarda psixologik xizmatidan foydalanishni anglashga turtki bo'ldi. Psixolog bu yerlarda yoshlardagi oila va nikoh borasidagi tasavvurlarning to'g'ri shakllanishidan

tortib, toki muammoli, xattoki, ajrim bo'lgan oila a'zolariga psixologik maslahatlar berish, "ishonch telefonlari" orqali maslahatlar uyushtirishni o'z zimmasiga oladi.

Maorif sohasidagi amaliy ishlar boshqa sohalarga nisbatan anchagina yaxshi tajribaga ega. Ayniqsa, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturi qabul qilingandan so'ng tashkil qilingan yangi tipdagi ta'lim muassasalari - akademik liseylar va kasb - hunar kolledjlariga bir nechtadan psixologlar shtati kiritilgan va ular aynan tadbqiqiy muammolar - bolaning o'quv jarayoniga psixologik jihatdan tayyorligini diagnostika qilishdan tortib, professional va kasb mahoratini rivojlantirishgacha bo'lgan barcha muammolarni hal qilishga "aralashadi".

Huquqbuzarlikning oldini olish va qonunga zid harakat qilganlarni psixologik reabilitasiya qilish muammosi ham har doim ham psixolog aralashuvini talab qilib kelgan. Chunki jinoyatchi yoki xuquqbuzar shaxsi o'z - o'zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantiruvchi omillar, motivlar va bolani qayta tarbiyalash va reabilitasiya masalalari ijtimoiy psixologik jarayonlar mohiyatini bilish va ularga faol ta'sir ko'rsatish talab qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar o'rtasida xuquqiy ma'rifat va xuquqiy madaniyatni shakllantirishga juda katta e'tibor qaratilgan va bu ishda amaliyotchi xodim - psixologning o'rnini va roli katta bo'ladi.

Yuqorida e'tirof etilgan psixologiyaning tadbqiqiy sohalari uchun umumiy narsa shuki, bu sohalarda ishlaganlar avvalo yaxshi psixodiagnost, ya'ni psixologiya metodlarini o'z o'rnida samarali ishlatishni bilishi, va yaxshigina psixoterapevt va psixokorrektor - ya'ni, aniqlangan muammo yoki "kasallikni" tuzatuvchi mohir professional bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

4-MAVZU: O'RGANISH VA O'QUV FAOLIYATI NAZARIYASI

Reja:

1. O'rganish turlari, shart – sharoitlari va mexanizmlari.
2. O'quv faoliyati nazariyasi.
3. O'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Ulardan birinchisi inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'siri va uchinchisi odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda. Konkret ijtimoiy munosabatda, ya'ni ma'lum oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab o'sadi, shakllanadi.

Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfnig, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyondasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi.

Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdan barcha psixik xususiyatlarini, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Manna shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlarini, xarakteri, irodaviy sifatlarini, qiziqishlarini, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Muhit, ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya, azaldan berilgan, genetik jihatdan qat'iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Bu borada, **birinchidan**, shuni ta'kidlash kerakki, odam muhit ta'siri ostidagi passiv obyekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir. Shuning uchun tashqi hayot sharoiti, tashqi ta'sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilaydi. Shu sababli muhitning ta'siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o'zaro ta'siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi oqibat natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta'sirotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. Manna shu ma'noda tashqi individning o'ziga xos psixikasi va shaxsiy taribasini o'z ichiga olgan ichki sharoit orqali bilvosita ta'sir qiladi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning, o'quvchining) ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir.

O'z-o'zidan ma'lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nihoyatda zarurdir. Inson psixik xususiyatlari me'yorida tarkib topishi uchun muayyan darajadagi biologik tuzilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo'lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir, xolos.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, inson psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z-o'ziga shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi. Hech bir me'yordagi bola dadil yoki qo'rqqoq, irodali yoki irodasiz. Mehnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Agarda tarbiya to'ri tashkil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tipii asosida xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o'z-o'zini tuta bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo'lgan bolalarda ham, yoki nerv sistemasining tipii vazmin bo'lgan bolalarda ham tarbiyalash lozim va tarbiyalasa

bo'ladi. Biroq birinchi holdagi bolalarni tarbiyalash ikkinchi holdagilarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Har ikkala holda kerakli sifatlarni tarbiyalash yo'llari va usullari ham turlicha bo'ladi.

Ikkinchidan tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat kurtaklarida tug'ma individual farqlar mavjud. Shu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatidan ustun turishadi. Ba'zida esa aksincha biror-bir faoliyat turini egallash imkoniyati jihatidan esa ulardan ongsizlik qilishlari mumkin. Manna shu ma'noda olganda odamlar o'z qobiliyatlarini barobar rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar. Garchi tabiiy kurtaklar o'quvchilarning psixik rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lsa ham (shu sababli, masalan, ta'lim jarayonida ayrim o'quvchilardan boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq zo'r berish talab qilinadi, ayrim o'quvchiga o'qituvchi ko'proq kuch sarflaydi, e'tibor beradi va ko'proq vaqt ajratadi), bu kurtaklarning o'zi psixik taraqqiyotda hal qiluvchi rol o'ynamaydi.

Turli yo'nalishga ega bo'lgan psixologlar, bir tomondan ta'lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabati muammosini keng doirada muhokama qilmoqdalar.

Rivojlanish deyilganda odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir:

1) miyaning o'z biologik, organik yetilishi, uning anatomik-biologik tuzilishi jihatidan yetilishi;

2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlanish.

O'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yechilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida albatta hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan yetilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb

bo'lmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta'lim qanday mavqyega ega? Ta'lim rivojlanishiga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Jumladan nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi degan fikrni olg'a so'rgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi **L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi** va uni: **ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi**, deb aniq ifodalab beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga halaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveysariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yo'g'rilgandir.

J.Piajening fikricha, **bolaning va maktab o'quvchisining aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi**. Ta'lim bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir kursata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, ***bolada mantiqiy tafakkur yechilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir***. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlar pishib yetiladigan muayyan yoshiga qat'iy nazar bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy

rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi.

Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsa-da, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlanadi. U olg'a so'rgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qo'rgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi.

Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi «ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi» degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi.

E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «***Bola taraqqiyotini hych mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas***» - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yo'nalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.G.Blonskiy ***ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi***. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida bolalar ma'lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta'lim ta'siri natijasida o'quvchilarda o'z-o'zini va o'zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yuzaga keladi.

Psixolog-olimlardan V.V.Davydov, P.Ya.Galperin, N.A.Menchinskaya, A.A.Lyublinskaya, D.B.Elkonin, E.G'.G'oziyevlar o'zlarining tadqiqotlarida ta'limning taraqqiyotdagi yetakchi rolini ta'kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o'zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug'ilishi, tabiiydir.

Bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar kurashidan iborat, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o'sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o'zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o'rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundun-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo'lgan tayyorlik bilan hatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog'liqligi o'rtasida ziddiyat mavjuddir. O'smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o'ziga o'zi baho berishi va o'z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo'lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o'rtasida, shuningdek, o'zining jamoadagi real mavqeyi to'g'risidagi ichki kechinmasi o'rtasida; katta odamlar hayotida to'la xuquqli a'zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o'z imkoniyatlarining mos kelmasligi o'rtasida paydo bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola, maktab o'quvchisi psixik rivojlanishining yanada yuksakroq bosqichiga ko'tariladi. Ehtiyoj qondiriladi- ziddiyat yo'qoladi. Biroq qondirilgan ehtiyoj, yangi ehtiyojni

tug'diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi-taraqqiyot davom etadi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o'zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolgan, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muxit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatga va tarbiyaga bog'liqdir. Manna shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatdar psixik rivojlanishning notekisligi kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bita darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning rivojlanishidagi ayrim davrlarda psixikaning u yoki bu yo'nalishlarda rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilar vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari sezitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev) bundan sezitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan yetilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi-murakkab taraqqiyot jarayonidir.

Inson shaxsini tarkib topishi va psixik rivojlanishning sharoitlari. Biologik va ijtimoiy omillar.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish – yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Inson shaxsning psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlariva qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Inson – biososial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlar (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarning, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli subyekt iva ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, ahloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Xo'sh odam psixikasi va hatti-hrakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiati biologikmi yoki inqilobiy harakterga egami?

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy harakterga ega. Shu bois bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogenetik konsepsiya, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim sosiogenetik konsepsiyadir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan.

Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiati haqidagi ta'limot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay bu oqim namoyondalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari «ichki qonunlar» asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar

negizida maydonga keladigan narsa, biologik olimlarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqyedagi maktablarda tahsil olishi zarur deb ta'kidlashadi.

Chunonchi, bu yo'nalish tarafdorlaridan, amerikalik psixolog E.Pyurndayx o'quvchilarning «tabiiy kuchlari» va «tug'ma mayllar»ini psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'siri-ikkinchi darajalidir, deb aytadi.

Avstraliyalik psixolog K.Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas, balki ahloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui-inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib, ba'zida o'zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi.

Venalik vrach-psixolog Z.Freyd mazkur oqim namoyondasi sifatida shaxsning faolligini, uni harakatga keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o'zining qadimiy hayvon tariqasidagi avlod-ajdodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Z.Freydning fikriga ko'ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Biroq instinktiv mayllar jamiyatda xudi hayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni (ya'ni jinsiy mayllarni) juda ko'p jihatdan cheklab qo'yadi. Oqibatda odam o'zining ko'p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo'ladi. Uning ta'limotiga ko'ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo'qolib

ketmaydi, balki bizga noma'lum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazilib yuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli «komplekslar»ga birlashadilar, go'yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi Ayni shu «komplekslar»ning namoyon bo'lishidir. Z.Freydning ta'limotidan, uning ochiqdan-ochiq biologizatorlik targ'ibotchisi ekanligini, inson shaxsining faolligini jinsiy mayllardan iborat ekanligi haqidagi nazariyasi ilmiy asosga ega emasligini e'tirof etish mumkin.

Bunday ta'limotlardan, xususan din homiylari keng foydalanib, insonning taqdiri ana shu ilmlar bilan chambarchas bog'liqdir, deb ta'kidlashadi.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan Yana bir ta'limot-sosiogenetik konsepsiya-qobiliyatlarning taraqqiyotini faqat tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'nalish o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan XVIII asr fransuz olimi K.Gelvesiy ta'limotidan boshlangan. K.Gelvesiyning ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va ahloqiy rivojlanishi uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar. Shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning tug'ma xususiyatlari degan ta'limotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyondalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan sosiogenetik konsepsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlarida tabiiy fanlar jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. O'sha paytda hammaning diqqat-e'tibori mo'jizakor tajribaga qaratilgan edi. Bu hodisa inson shaxsining tarkib topishi masalasiga ham ta'sir qilmay qolmaydi.

Sosiogenetik konsepsiya namoyondalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi asosan tajribaga bog'liqdir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi,

ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar Bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Bu ta'limotga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

Chunonchi, angliyalik olim Djon Lokk *dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini top-toza doskaga, taxtaga o'xshatadi*. Uning fikricha, bolaning top-toza taxta tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarining tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi.

Bu tahlil etgan har ikkala yo'nalishning namoyondalari, o'z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, insonning psixik xussiyatlarini yo nasliy, biologik omillar ta'siri ostida, yoki o'zgarmas muhit ta'sirida avvaldan belgilangan va o'zgarmas narsa, deb e'tirof etadilar.

Ma'lumki odam shaxs sifatida muntazam qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo'ladi. Agarda hayvonlar tevarak-atrofdagi tashqi muhitga passiv moslashib, hayot faoliyatlarida tabiatdagi, ya'ni tashqi muhitdagi tayyor narsalardan foydalansalar, odam esa tevarak-atrofdagi tashqi muhitga faol ta'sir ko'rsatib, uni o'z irodasiga bo'ysundiradi, hamda o'zgartirib, o'z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi.

Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldi-ki, odamdagi tug'ma, irsiy mexanizmlari uning, psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab Bera olmaydi. Ta'kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasini rivojlantirishda muayyan rol o'ynaydi. Faqat buning uchun bolani o'qitayotgan kishilarning ta'siri natijasida bola anna shu muhitni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiydir.

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Ulardan birinchisi inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan

ta'lim-tarbiyaning ta'siri va uchinchisi odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda. Konkret ijtimoiy munosabatda, ya'ni ma'lum oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab o'sadi, shakllanadi.

Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfnig, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyondasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi.

Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy harakterga egadir. Shaxsdan barcha psixik xususiyatlarini, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Manna shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, harakteri, irodaviy sifatleri, qiziqishlari, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Muhit, ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya, azaldan berilgan, genetik jihatdan qat'iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Bu borada, **birinchidan**, shuni ta'kidlash kerakki, odam muhit ta'siri ostidagi passiv obyekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir. Shuning uchun tashqi hayot sharoiti, tashqi ta'sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilaydi. Shu sababli muhitning ta'siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o'zaro ta'siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi oqibat natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta'sirotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik

xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. Mana shu ma'noda tashqi individning o'ziga xos psixikasi va shaxsiy taribasini o'z ichiga olgan ichki sharoit orqali bilvosita ta'sir qiladi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning, o'quvchining) ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir.

O'z-o'zidan ma'lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nihoyatda zarurdir. Inson psixik xususiyatlari me'yorida tarkib topishi uchun muayyan darajadagi biologik tuzilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo'lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir, xolos.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, inson psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z-o'ziga shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi.

Hech bir me'yordagi bola dadil yoki qo'rqqoq, irodali yoki irodasiz. Mehnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Agarda tarbiya to'ri tashkil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tipii asosida harakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o'z-o'zini tuta bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo'lgan bolalarda ham, yoki nerv sistemasining tipii vazmin bo'lgan bolalarda ham tarbiyalash lozim va tarbiyalasa bo'ladi. Biroq birinchi holdagi bolalarni tarbiyalash ikkinchi holdagilarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Har ikkala holda kerakli sifatlarni tarbiyalash yo'llari va usullari ham turlicha bo'ladi.

Ikkinchidan tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat kurtaklarida tug'ma individual farqlar mavjud. Shu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatidan ustun turishadi. Ba'zida esa aksincha biror-bir faoliyat turini egallash imkoniyati jihatidan esa ulardan ongsizlik qilishlari mumkin. Manna shu ma'noda olganda odamlar o'z qobiliyatlarini barobar rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar. Garchi tabiiy kurtaklar o'quvchilarning psixik rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lsa ham (shu sababli, masalan, ta'lim jarayonida ayrim o'quvchilardan boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq zo'r berish talab qilinadi, ayrim o'quvchiga o'qituvchi ko'proq kuch sarflaydi, e'tibor beradi va ko'proq vaqt ajratadi), bu kurtaklarning o'zi psixik taraqqiyotda hal qiluvchi rol o'ynamaydi.

Turli yo'nalishga ega bo'lgan psixologlar, bir tomondan ta'lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabati muammosini keng doirada muhokama qilmoqdalar.

Rivojlanish deyilganda odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir:

1) miyaning o'z biologik, organik yetilishi, uning anatomik-biologik tuzilishi jihatidan yetilishi;

2)psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlanish.

O'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yechilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida albatta hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan yetilishini inkor eta olmaydi.

Biroq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi.

Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta'lim qanday mavqyega ega? Ta'lim rivojlanishiga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Jumladan nemis psixologi V.Shtern: *ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi degan fikrni olg'a srugan edi*. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy *bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi* va uni: ta'lim rivojlanishdan oldindan boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga halaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveysariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham Ayni shu g'oyalar bilan yo'g'rilgandir.

J.Piajening fikricha, bolaning va maktab o'quvchisining aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xo'sbir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir kursata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yechilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlar pishib yetiladigan muayyan yoshiga qat'iy nazar bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining

xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsa-da, biroq cheksiz emas.

Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlanadi. U olg'a so'rgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qo'rgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi.

Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan «*psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi*» tushunchasi «*ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi*» degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi.

E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «*Bola taraqqiyotini hych mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas*»-deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yo'nalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.G.Blonskiy *ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi*. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida bolalar ma'lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta'lim ta'siri natijasida o'quvchilarda o'z-o'zini va o'zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yuzaga keladi.

Psixolog-olimlardan **V.V.Davydov, P.Ya.Galperin, N.A.Menchinskaya, A.A.Lyublinskaya, D.B.Elkonin, E.G'.G'oziyevlar** o'zlarining tadqiqotlarida *ta'limning taraqqiyotdagi yetakchi rolini ta'kidlashadi*.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o'zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug'ilishi, tabiiydir.

Bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar kurashidan iborat, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o'sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o'zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o'rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundun-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo'lgan tayyorlik bilan hatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog'liqligi o'rtasida ziddiyat mavjuddir. O'smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o'ziga o'zi baho berishi va o'z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo'lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o'rtasida, shuningdek, o'zining jamoadagi real mavqeyi to'g'risidagi ichki kechinmasi o'rtasida; katta odamlar hayotida to'la xuquqli a'zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o'z imkoniyatlarining mos kelmasligi o'rtasida paydo bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola, maktab o'quvchisi psixik rivojlanishining yanada yuksakroq bosqichiga ko'tariladi. Ehtiyoj qondiriladi - ziddiyat yo'qoladi. Biroq qondirilgan ehtiyoj, yangi ehtiyojni

tug'diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi-taraqqiyot davom etadi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o'zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolgan, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muxit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatga va tarbiyaga bog'liqdir. Manna shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatdar psixik rivojlanishning notekisligi kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng ko'lay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bita darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning rivojlanishidagi ayrim davrlarda psixikaning u yoki bu yo'nalishlarda rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilar vaqtinchalik, o'tkinchi harakterda bo'ladi.

U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. **(L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev)** bundan senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan yetilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi-murakkab taraqqiyot jarayonidir.

Pedagogik psixologiyaning taniqli namoyondasi V.A.Kruteskiy insonning ontogenetik kamolotini quyidagi bosqichlardan iboratligini ta'kidlaydi:

- 1.Chaqaloqlik (tug'ilgandan 10 kunlikkacha);
- 2.Go'daklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha);
- 3.Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
- 4.Bog'chagacha davr (3 yoshdan 5 yoshgacha);
- 5.Bog'cha yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha);

6.Kichik maktab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha);

7.O'smirlik (11 yoshdan 15 yoshgacha);

8.Ilk o'spirinlik yoki katta maktab yoshi (15 yoshdan 18 yoshgacha).

Yuqoridagi tasnif puxtaligidan, ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganligidan qat'iy nazar inson kamolotini to'la ifodalab borishga o'zlik qiladi.

Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko'proq ma'lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, yetuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to'g'risida nazariy va amaliy ma'lumotlar yetishmaydi. Shunga qaramay ular o'rta maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, shaxsning shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta'kidlaydi:

1.Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) -tug'ilganidan 3 yoshgacha.

2.Bog'cha davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

3.Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha.

4.O'rta maktab yoshi (o'smirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha.

5.Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo'lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, o'sish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksincha, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har ikkala yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Ma'lumki, har bir yosh davr, o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va maktabda bola holatining o'zgarishi, ta'lim va tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmidagi ayrim xususiyatlarning yetilishi sngari jarayonlarni kiritish mumkin.

Mana shu munosabat bilan hozirgi psixologiyada yosh davrlarini shu nuqtai nazardan tabaqalash maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk bolalik davri-tug'lgandan 3 yoshgacha;
2. Bog'cha davri-3 yoshdan 6, 7 yoshgacha;
3. Kichik maktab yoshi davri-6, 7 yoshdan 10, 11 yoshgacha;
4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik davri)- 10, 11 yoshdan 14, 15 yoshgacha;
5. Ilk o'spirinlik (kollej va lisey o'quvchilari)- 14, 15 yoshdan 17, 18 yoshgacha.

Umuman psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta ilmiy-metodologik negizga ega bo'lgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa qo'shib, uning nazariy va amaliy muammolarini hal qilishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Biroq, hozir ontogenezni to'la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyasi yaratish zaruriyati mavjuddir.

5-MAVZU: TA'LIM OLISH QOBILIYATI O'QUV FAOLIYATI SUBEKTLARINING XARAKTERISTIKASI SIFATIDA

Reja:

1. Ta'lim olish qobiliyati tushunchasi va uning mohiyati
2. O'quv faoliyati subektlarining psixologik xususiyatlari
3. Ta'lim olish qobiliyatining bilish jarayonlari bilan bog'liqligi
4. Motivatsiya va ta'lim samaradorligi
5. Ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish omillari
6. Zamonaviy ta'limda ta'lim olish qobiliyatining ahamiyati

Ta'lim olish qobiliyati o'quv faoliyati subektlarining muhim psixologik xarakteristikalaridan biri hisoblanadi. Ushbu qobiliyat insonning bilimlarni o'zlashtirish, yangi ma'lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash va amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini ifodalaydi. Pedagogik psixologiyada ta'lim olish qobiliyati shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq

bo'lib, o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Har bir insonning bilimni egallash darajasi, tafakkuri, xotirasi, diqqati, qiziqishi va motivatsiyasi turlicha bo'lgani sababli ularning ta'lim olish qobiliyatlari ham bir-biridan farq qiladi. Shu jihatdan o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim olish qobiliyati insonning biologik, psixologik va ijtimoiy omillari ta'sirida shakllanadi. O'quvchining nerv tizimi, sezgi organlarining rivojlanganligi, tafakkur tezligi va xotira hajmi uning bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga oilaviy muhit, ijtimoiy sharoit, ta'lim sifati va pedagogik yondashuvlar ham ta'lim olish qobiliyatining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi, mustaqil fikrlashi va ta'limga nisbatan ijobiy munosabati bilim olish samaradorligini oshiradi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar murakkab topshiriqlarni ham faol bajarishga intiladi va qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi.

Pedagogik psixologiyada ta'lim olish qobiliyati ko'pincha bilish jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bilish jarayonlariga sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat va tasavvur kiradi. Ushbu psixik jarayonlarning rivojlanganlik darajasi o'quv faoliyatining muvaffaqiyatiga ta'sir etadi. Masalan, diqqati barqaror bo'lgan o'quvchi dars materialini yaxshiroq o'zlashtiradi, xotirasi kuchli bo'lgan o'quvchi esa ma'lumotlarni uzoq muddat saqlab qoladi. Tafakkurning rivojlanganligi esa muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim olish qobiliyatining rivojlanishida motivatsiya muhim o'rin egallaydi. Motivatsiya insonni faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar yig'indisidir. O'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish qanchalik kuchli bo'lsa, ularning o'quv faoliyati ham shunchalik samarali bo'ladi. Rag'batlantirish, maqtov, muvaffaqiyat hissini shakllantirish va qiziqarli metodlardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Pedagogning munosabati ham ta'lim olish qobiliyatiga sezilarli ta'sir qiladi. O'qituvchi tomonidan yaratilgan ijobiy psixologik

muhit o'quvchilarning erkin fikrlashiga, o'z imkoniyatlarini namoyon etishiga va faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Ta'lim olish qobiliyati faqat bilimni yodlab olish bilan cheklanmaydi. U o'quvchining mustaqil ishlash, muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash va o'z bilimni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham qamrab oladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bugungi kunda faqat tayyor bilimlarni egallash emas, balki yangi g'oyalarni ilgari surish va turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ham muhim hisoblanadi. Shu sababli interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quv faoliyati subektlari sifatida o'quvchi va o'qituvchi o'zaro hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Ushbu hamkorlik jarayonida o'quvchi bilim oluvchi subekt sifatida faol ishtirok etadi, o'qituvchi esa yo'naltiruvchi va tashkil etuvchi vazifani bajaradi. Ta'lim olish qobiliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan pedagogning kasbiy mahorati, psixologik bilimlari va kommunikativ qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Pedagog o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib ta'lim metodlarini tanlashi zarur. Shuningdek, ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo'llash, ya'ni har bir o'quvchining imkoniyatiga mos topshiriqlar berish ham muhimdir.

Ta'lim olish qobiliyati insonning butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Inson yangi bilim va tajribalarni egallagan sari uning fikrlash doirasi kengayadi va o'zlashtirish imkoniyatlari ortadi. Shu sababli uzluksiz ta'lim tamoyili zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxs o'z ustida ishlashi, yangi bilimlarni egallashi va o'z malakasini muntazam rivojlantirib borishi zarur. Pedagogik psixologiya ana shu jarayonlarning psixologik asoslarini o'rganib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari

1. Ta'lim olish qobiliyati deganda nima tushuniladi?
2. Ta'lim olish qobiliyatiga qanday omillar ta'sir qiladi?

3. Bilish jarayonlari ta'lim samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Motivatsiyaning ta'lim olishdagi ahamiyati nimada?
5. Ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirishda o'qituvchini

6-MAVZU: O'QUV MOTVASIYASI

Reja:

1. Psixologiya fanida motivatsiya tushunchasi.
2. O'quv motivatsiyasi turlari va mazmuni.
3. O'quv motivatsiyasini o'rganish va uning shakllanishi.

Boshqarish tushunchasi kibernetika faniga ilmiy texnika revolyutsiyasining natijasida xalq xo'jaligining tarmoklarini idora qilish sifatida (avtomat, moslama, pult boshqarish, dasturlashtirilgan elektron hisoblash mashinalari, kompyuterlar, displeylar, signalizatsiya, texnik qurilmalar) kirib keldi. Mazkur tushuncha asta-sekin yakka shaxs faoliyatiga tadbiiq qilina boshlandi, pirovardida talim va tarbiya tizimini boshqarishda ham qo'llanilishga kirishildi.

Talimni optimal boshqarish maqsadida sobis sovet psixologlari «*O'quv faoliyatini bosqichli shakillantirish*» (P.Ya.Galperin, N.F.Tazilina), «*O'qitish mazmunini tezlashtirish va murakkablashtirish*» (L.V.Zankov), «*Nazariy umumlashtirish va refleksiya*» (D.B.Elkonin, V.V.Davidov) goyalarini ishlab yaikdilar. Shuningdek, talimni algoritmlashtirish, dasturlashtirish, suggesteziya (T.V.Kudryavtsev, A.M.Matyushkin va boshqalar) nazariyalarini olga soldilar. Mazkur goyalarining barchasi rivojlantiruvchi talim negizida tuzilgan bo'lib, aqliy faoliyat meamolarini o'rganishga hamda talim samaradorligini oshirishni tadqiq qilishga qaratilgandir.

Psixologiya fanida ong av faoliyat birligi tamoyilining vujudga kelishi psixologigik holatlar, xsusiyatlar, xislatlar faoliyatda namoyon bo'ladi va unda shakllanadi, degan yangi tezisni maydonga tashladi. Yangiya bunday talqin psixologiya fanining rivojlanishi, sohalarining kengayishi uchun muhim imkoniyatlar ochib berdi. Mazkur tamoyil I.M.Sechenovning psixik faoliyat

zamidra bosh miya reflektor faoliyati yotadi, degan ta'limotidan kelib chiqadi. Keyinchalik bu goya I.P.Pavlovning ta'limotida rivojlantirildi va kator qonuniyatlar kashf etildi.

Ong va faoliyat birligi tamoyili dastavval S.L.Rubinshteyn tomonidan dalillab berildi. Muallif tashqi sabablar ,omillar ichki shart sharoitlariningbevosita ta'siri orqali harakat qiladi,deb tushuntiradi.

Mazkur muamoga sal boshqacharoq yondoshgan P.P.Blonskiy esa insonning barcha faoliyatlari ijtimoiy xususiyatga ega ekanligini shaxsning xati harakatlarning tarkibiy qismi bo'lishligini ta'kidladi. M.Ya.Basov bo'lsa faoliyatni o'yin, prfessional mehnat shakllarinita'riflab,insont shaxsining tarkib topishidagi ta'sirini ifodalab bergan.

L.S.Vigotskiy talqiniga ko'ra ,inson sirtdan miya bilan aloqa o'rnatadi, uning yordami orqali gavdasini idora qiladi. Odamlarning ijtimoiy aloqalari xatti-harakatlari imo-ishora va nutqqa suyangan holda faoliyatini vujudga keltiradi. A.L.Leontev inson faoliyati psixik va amaliy shakllari mavjudligini tavsiflab, bola ongi aynan o'qish mehnat uyin faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida o'sadi, degan goyani olga suradi.

Psixologik ilmiy adabiyotlarda o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini bavosita va bevosita boshqarish imkoniyatlari qayd qilib utilgan,o'quv faoliyatlarini boshqarishning eng muhim xususiyatlaridan biri-bu turli usullarni tadbiq etish, maxsus ravishda o'qitishni joriy qilish, har xil xususiyatga molik didaktik metodlardan foydalanishdan iboratdir.

Yu.A.Samarin assotsasiyalarlarga asoslangan holda o'quv faoliyatini boshqarish mumkinligi nazariyasini o'rtaga tashladi. Assotsatsiyalar ongimizdagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlarning bog'lanishi,bu bog'lanishlar tufayli ongimizda paydo bo'lgan muayyyan tasavvurlarning uxshashlik yondoshlik, qarama – qarshilik belgilariga ko'ra, shunga bog'liq bo'lgan boshqa tasavvurlarni hosil qilishdir. Yu.A.Samarin assotsatsiyalarning alohida tomonlariga ta'luqli bilimlarni tizimga tushirish ma'lum o'quv pridmetlariga oid

bilimlarni tartibga solish turli fanlardan rejagan xilma-xil bilimlarni tizimlashtirish kabi bosqichlarga bo'lib o'rganadi.

E.N.Kabanova-Meller har qanday faoliyat yoki bu usullar yordamida amalga oshiriladi va ular ushbu vositalar yordamida boshqarilishi mumkin, deydi.

Mualiif mazkur aqliy faoliyat usullari o'z navbatida katta yoki kichik tizimga birlashgan xati-harakatlar tizimidan iborat deb tushuntiradi. Usullar ob'ektiv ravishda tavsiyalar, qoidalar, yo'riqlar kurinishida ifodalanadi. O'zlashtirilgan o'quv faoliyati usullari insonning ma'naviy boyligiga aylanib, istagan vaqtda yangi vaziyatlarga va sharoitlarga kuchirilishi mumkin.

D.B.Elkonin o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishga o'rgatish uchun:

- A) topshiriqni echish uchun vositalar tanlash;
- B) psixologik topshiriqni echish uchun o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirish;
- V) bilimlarni o'zlashtirish darajasini baholash;
- G) o'z-o'zini tekshirish;
- D) o'z oldiga maqsad qo'ya olish;
- E) simvollar bilan predmetning yoki munosabatlari mavjudligini tushunish kabi jihatlarga e'tibor qilishni uqtirib o'tadi;

Psixologiyaning tadqiqotlari tahlilining ko'rsatishicha, dasturlashtirilgan talim o'qitishni bevosita boshqarish va nazorat qilish imkonini yaratadi. Dasturlashtirish tamoyili bo'yicha talabautilgan mavzuni o'zlashtirmay turib, yangisini egallay olmaydi. Chunki o'quv material qat'iy mantiqiy izchilikda malum bulaqlarga taqsimlanib tinglovchining ongiiga uzatiladi. Saboq oluvchi bilimlarning qolgan ulishini qabul qilish uchun u o'tilgan mavzularni egallagan bo'lishi, topshiriqlarni mustaqil echa olishi va savollarga to'g'ri javob bera olishi zarur. Bilimlar talimiy mashinalar, kompyuterlar, displeylar yordamida talabalar miyasiga o'zatiladi. Teskari aloqa kanali orqali subekt faoliyatining natijasi, maxsuliy yo'zasidan axborot, malumot xabar kelib tushishi nazarda tutiladi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarish muamosi P.Ya.Galperin va N.F.Talizina tomonidan o'rganilgan. Ular aqliy xatti-harakatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti-harakatlarini moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo'lishini izohlab berdilar. Aqliy xatti-harakatlarning birinchi bosqichi rasm, chizma, diagrama va shartli belgilar tarzida o'z ifodasini topadi. Aqliy xatti-harakatlarning ikkinchi bosqichi ko'rgazmalardan olgan tasavvurlari to'g'risida o'quvchilarning ovoz chiqarib fikr yuritishidan iboratdir. Uchinchi bosqich esa subekt ongida tasavur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya, usul tariqasida namoyon bo'ladi. Ana shu bosqichlarni talabalarga tushuntirish orqali ularni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish mumkin.

Biz quyida «*o'quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan usullarni egallash*» nazariyasiga asoslangan holda o'quv faoliyatini boshqarish amalga oshirish yo'llarini izohlab berishga harakat qilamiz. O'quv faoliyatining o'quvchilar va talabalar tomonidan boshqarish muamosining dolzarbligi,

birinchidan, rivojlantiruvchi talim strukturasi va funksiyaning xususiyatlaridan,

ikkinchidan, o'quvchi va talaba shaxsini hamda aqliy rivojlanishini vizual ravishda o'rganish ahamiyatidan kelib chiqadi. O'quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan predmetlararo usullariga uni rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zlashtirib olingan bilimlarni va talimiy usullarni tizimlashtirish, egallanib olingan boshqarish usullarini yangi sharoitga kuchirish, yangisini mustaqil holda topish, o'z oldiga maqsad qo'ya olish, bilimga qiziqishni ongli ravishda idora qilish, mustaqil bilim olish yo'llarini o'zlashtirish, diqqatni faoliyatda shakllantirish va boshqalar kiradi.

2.O'quv faoliyatini boshqarish deganda maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtiriladigan, nazorat qilinadigan, tizimlashtiriladigan, tashkil qilinidigan mustaqil bilim olishga qodir bo'lgan faoliyat tushuniladi va uni tizimli ravishda mana bunday shaklda aks etirish mumkin.

O'quv faoliyatini boshqarish.

- 1.O'quv faoliyatini rejalashtirish.
- 2.O'z-o'zini nazorat qilish.
- 3.Keng qo'lamdagi bilimlar, talimiy usullarni tizimlashtirish.
- 4.O'z faoliyatini o'zi boshqarish usullarini egallash va yangisini topish.
- 5.Shaxsiy qiziqishni idora qiluvchi usullarni egallash.
- 6.O'z diqqatini o'zi boshqarish usullarini egallash.

Faoliyatni psixik boshqarishning samarali bo'lishi uchun psixika narsalarining o'ziga xos obektiv xususiyatlarini aks etirishini va ana shular vositasi Bilan inson oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llarini aniqlashimiz kerak. Inson faoliyati bili shva idora qilish bilan bog'liqdir. Bu jarayonlar ishtirok qilmasa, inson faoliyati namoyon bo'lishi mumkin emas.

Har qanday faoliyat insonning psixik va jismoniy faolligidan iborat bo'lib ongli maqsad bilan boshqariladi.

Xatti-harakatlarni boshqarish olatda teskari aloqa tamoyili asosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda bunday sezgi aloqaning kanali bo'lib xizmat qiladi, predmet va harakatlarning idrok qilinayotgan element va belgilari esa informatsiya manbai vazifasini o'taydi. Teskari aloqaning bunday turini P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atagan edi.

Inson faoliyatining interiorizatsiya va ekstriorizatsiya xususiyati mavjud. Tashqi real ishdan ichki ideal ishga o'tish jarayoni interiorizatsiya deyiladi Narsalar bilan qilinadigan tashqi faoliyatni ichki psixik faoliyatning eksteriorizatsiyasi deb qabul qilingan. Psixologiya fanida subektni o'rganishdan iborat bo'lgan maxsus faoliyat talimi deb ataladi. Psixologiya fanida talabanning faoliyati, xulqi va xatti-harakatini, insonning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish tomon yo'naltirish iborat bo'lgan faol jarayonni talim deb yo'uritish ham uchiraydi. Odatda talim faoliyati o'z ichiga quyidagi holatlarni kamrab oladi :

A) Malum bir ideal va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyatli tashkil qilish uschn tevarak-atrof to'g'risida muhim xususiyatlar va qonuniyatlarni o'zlashtirish.

B) Mavjud malumotlar va informatsiyalarni o'zlashtirib olishga yordam beradigan usul va operatsiyalarni egallash.

V) Ko'zlangan maqsad va muamo shartiga mos ravishda optimal uslub, ratsional yo'l-yo'rik va operatsialar tanlash hamda nazorat qilish uchun nazarda tutilgan informatsion materiallardan foydalanish usullari bilan talabalarni qurollantirish va xokazo.

Bizningcha, oliy talimda o'quv faoliyatini talaba tomonidan boshqarish jarayoni dastlabki paytlarda o'qituvchining bevosita rahbarligida va kumagidamalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Aks holda oliy talimning mazmuni, o'quv faoliyatining tarkibiy kisimlari, uning psixologik xususiyatlari va qonuniyatlarini, uni tarkib toptirish yo'llari, vositalari, o'zlashtirish, egallab olish usullari talabalarga anglashmay qolishi mumkin. Oliy talimni takominlashtirish uchun talabalarni mustaqil bilim olishga urgatish va bunda hozirgi zamon talablariga anglashilmay qolishi mumkin. Oliy talimni takomillashtirish uchun talabalarni mustaqil bilim olishga urgatish va bunda hozirgi zamon talablariga javob beruvchi faol uslublar bilan qurollantirish ayni muddaodir.

O'quv faoliyatini boshqarishning psixologik masalalarini tadqiq qilish natijasida uning bosqichlari, fazalari, yuyo'llari, hozirgi kundagi holati, o'quv dasturlarida, darsliklarida va qo'llanmalarda bundan foydalanish axvoli, diagnostik metodikalarning ishonchlilik darajasi aniqlandi. Shuning bilan birga maktab o'quvchilari va talabalarining o'quv faoliyatini boshqarishning yosh davrlari xususiyatlari o'ziga xos jihatlari, gruxiy faoliyat va individual uslubga oid qonuniyatlar, boshqarishning tarkibiy qismlarining turlari, kurinishlari, shakllari to'g'risida boyning malumotlar turejadi. Yugilgan malumotlar ham nazariy, ham Amaliy ahamiyat kasb etib oliy maktabda o'quv faoliyatini boshqarishda muhim rol uynaydi.

3. Maktabning ta'lim berishdan iborat asosiy vazifasi - o'quvchilarning fan asoslarini faol, ongli mustahkam va tizimli ravishda egallashini ta'minlashdir. O'zlashtirish natijasida bilimlar ma'lum bir tizimni hosil qilishi amalda tadbiq etilishi mumkin. Haqiqiy o'zlashtirish – hamisha faol jarayon bo'lib bilishga oid xilma - xil vazifalarni xal qilish bilan bog'langandir.

O'zlashtirish, keng manoda olganda, o'quvchining uyushgan bilish faoliyatidir, bu faoliyat idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi kator bilish protsesslarini o'z ichiga oladi. Ijodiy o'zlashtirish sifatida o'qish, bilim egallash uch faktorga – nimani o'qitishga, kim va qanday o'qitishga, kimni o'qitishga bog'liqdir.

Birinchidan, o'qishning xarakteri o'zlashtirilayotgan materialga, uning mazmuniga va qanday tizimda etkazib berilayotganligiga bog'liqdir,

Ikkinchidan, u o'qituvchining metodik mahoratiga va tajribasiga, uning shaxsiy xususiyatlariga, har bir ayrim holda qo'llaniladigan konknret o'qitish metodikasiga bog'liqdir.

Nihoyat, o'qish jarayoni o'quvchining o'zga xos xususiyatlariga ham – uning psixik rivojlanishining (aqliy, emotsional, irodaviy jihatdan) individual xarakteristika, unda o'qishga nisbatan qaror topgan munosabatlarga, uning qiziqish-xavaslariga bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, talim protsessii o'quvchiga nimani va bir xil natijasiga emas, yani sirtdan tasir qildiradigan shart-sharoitlarning oeibati emas, balki o'quvchining individual - psixologik xususiyatlariga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

N.D.Levitov o'zlashtirishning psixologik komponentlari degan tushunchani kiritadi, u an shu komponentlar deganda o'quvchi psixikasining bir-birini bilan o'zaro bog'langan ko'p qirralari tomonlarini tushunadi. Uning fikricha, ana shu komponentlarni faollashtirnasdan va tegishli tarzda yo'naltirnasdan turib ta'limda maqsadga erishib bo'lmaydi.

Bunday komponentlarga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quvchilaning o'qishga ijobiy munosabatda bo'lishi;
- 2) material bilan bevosita xissiy tinishish jarayonlari;
- 3)olingan materialni faol ravishda qayta ishlash jarayoni bo'lgan fikrlash jarayoni va
- 4) qabul qilingan hamda ishlab chiqilgan axborotni esda olib koli shva esda saqlash proyessi. Bu komponentlarning mazmunini qisqacha qarab chiqamiz va talim proyessida rivojlanishini xarakterlab beramiz.

1.O'qishga munosabat. O'qishga ijobiy munosabatda bo'lish o'quv materialini to'la - to'kis o'zlashtirishning mutlaqo zarur shartidir. Psixologlarni o'tkazgan tadqiqotlari bundan munosabatni tarkib toptirishga quyidagi omillar yordam berishini ko'rsatdi: o'quv materialining goyaviy - ilmiy jihatdan mazmunli bo'lishi, uning kommunikativ kurulus amaliyoti bilan aloqadorligi bayon qilishning muamoli va emotsional xarakterda bo'lishi o'quvchilarining bilishiga oid izlanish faoliyatini uyushtirish, o'quvchilarni o'quv ishlarining ratsional usullari bilan qurollantirish.

O'quvchining o'qishga munosabati uning o'qishga diqqat qilishida, qiziqishida qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun iroda kuchini sarflashga tayyor ekanligida ifodalanadi.

O'quvchilarning diqqati - o'quv ishlari muvaffoqiyatli borishining zarur shartidir. Ta'lim jarayonida diqqat takomillashadi, ancha ixtiyoriy, ya'ni uyushgan, tartibga tushgan boshqariladigan bo'lib qoladi. Diqqatsizlikning oddiy sabablari – fanga nisbatan qiziqishning yo'qligi, materialni bayon qilishning quruq va noaniqligi o'quvchilarning charchaganligidir.

O'quvchilar diqqatini ko'zgoatishning asosiy vositalari – xilma – xil usullarni qo'llagan holda mashgulotlarni dinamik tarzda olib borish, o'quvchilar faolligshini oshirish, bayon qilishning jonliligi, bir faoliyat turidan ikkinchisiga o'tishi, diqqatni chalg'ituvchi ko'zgovchilarga barham berishdan iboratdir. Albata diqqatni faqat uni chalg'ituvchi ko'zgovchilarga barham berish yo'li bilangina emas, balki ularga qarshi tura bilish qobiliyatini tarkib toptirish, ularning chalg'ituvchi ta'siriga qarshi kurashish yo'li bilan ham tarbiyalamoq kerak, aks holda noziklashgan, injik diqqat mutlaqo qulay sharoitlardagina ishlash odati vujudga keladi.

Diqqatning xarakteriga o'quv ishlarining sur'ati juda ta'sir ko'rsatadi. Sekin sur'at diqqatni tarkatib yuboradi, o'quvchilarning faolligini sekinlashtiradi. Jadal sur'at ham noqulaydir, ko'pchilik o'quvchilar o'qituvchining fikriga diqqat qilib ulgurmaydilar, charchaydilar orqada qoladilar. Buning oqibatida diqqat ham susayib tarqoq holda bo'ladi.

Muayyan sinf uchun optimal ish sur'ati o'qituvchi tomonidan empirik tarzda belgilanadi. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini jalb etishga harakat qilganda shu narsani nazarda tutish kerakki, ba'zi hollarda o'quvchilar o'z diqqatlarini oshirib diqqat qilib, diqqat bilan qarab tursalar ham, lekin ularning fikri, boshqa biror narsa bilan band bo'lishi mumkin. O'qituvchi diqqating tashqi ifodasiga e'tibor berib kolmasdan faoliyat jarayonida faol idrok qilish bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy diqqat berilishiga erishmogi zarur.

O'qishga ijobiy munosabatda bo'lishni ifodalashning ikkinchi formasi o'qishga oid qiziqishlarning mavjudligidir, qiziqish odatda emotsional buyokka ega bo'lib chuqur va ta'sirli tuygularni kechirish bilan bog'liqdir.

O'qishga oid qiziqishlar odatda, tanlovchanlik xususiyatiga ega bo'lib ular eng kichik yoshdagi o'quvchilardagina umuman o'qishga bulagan qiziqish shaklini olishi mumkin, o'qishga qiziqish o'quvchiga o'zi o'rganayotgan materialining ahamiyati qanchalik tushunarli ekanligiga, bu material o'quvchi qiziqishlarining o'qishdan tashqari sohasi bilan qanchalik aloqadorligiga, o'qituvchi materialni qanchalik aniq va tushunarli qilib bayon etishiga, o'qitish metodlarining qanchalik xilma xil ekanligiga bog'liqdir.

Tasviriy ko'rgazmalilik - tasviriy vositalar rasmlar, mulyajlar, diopozitivlar, kinokartinalar yordamida amalga oshiriladi. Tasviriy vositalarning xarakteriga qarab ko'rgazmalilik haqiqiy tasviriy ko'rgazmalilikka (narsa va hodisalarning haqiqiy tasviri) va simvolik ko'rgazmalilikka (kartinalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diogramalar) bo'linadi. So'z ko'rgazmaliligi deganda o'qituvchining o'quvchilarda konkret tassavvurlarni uygotadigan erkin, obrazli erkin nutqi tushiniladi. Biroq psixologik kuzatishlar va eksperimentlar shuni ko'rsatmoqdaki, xissiy idrok qilish bosqichida ortiqcha to'xtalib qolish faqat foydasiz bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga zararli hamdir. Chunki u abstrakt tafakkurning rivojlanishini bugib qo'yadi.

Kuzatuvchanlikni tarbiyalash faol uyushgan, aniq maqsadga muvofiq tizimli kuzatish ko'nikmasini tarbiyalash sifatida juda muhimdir. O'qituvchi kuzatishni tashkil qilar ekan o'quvchilar oldiga aniq va muayyan bir maqsadni qo'yadi, kuzatishni yo'lga soladi. Detallarni ajratib ko'rsatishni mazkur ob'ektni boshqa

ob'ektlar bilan taqqoslashni va nomuhim belgilarni ajratib ko'rsatishni tavsiya etadi. O'quvchilarga kuzatish natijalarini so'z bilan yoki ko'rgazmali formada qayd qilishini o'rgatish muhim ishdir.

O'quv materialini anglash, tushunish, uni muayyan tizimga kiritish, muayyan sohalarga oid aloqalarni fanlar ichidagi va fanlararo aloqalarni topa olish va ularni o'zaro boglay olish(**Yu.A.Samarin fikri bo'yicha**)-o'zlashtirishning eng muhim komponentidir.

Tushunish hamisha yangi materialni tarkib topib bo'lgan assotsiatsiyalar tizimsiga kiritishni, notanish materialni tanish material bilan boglashni anglatadi. Sabab-oqibat bog'lanishlari munosabatlarini o'rnatish o'quvchilar uchun bir muncha qiyinchilik tugiladi, bunga sabab, bir tomondan shuki, hatto bu xildagi oddiy munosabatlar ham ko'pincha bir tomonlama emas (birdan-bir sabab - bita oqibat), balki ko'p tomonlama bulad (bitta sabab ko'p oqibatlarga ega bo'ladi yoki bitta oqibat ko'pgina sabablar vujudga keltirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, bu qiyinchiliklar shu narsa bilan bog'liqlik, sabab-oqibat bog'lanishlari ko'pincha oddiy kuzatish yo'li bilan idrok qilinmaydi, balki tafakkur yordamida aniqlanadi.

O'quvchining tafakkuri bilan qabul qilingan va qayta ishlangan axborot xotirada saqlanishi lozim. Bu esa istalgan bir paytda xotiradagi zahiralardan zarur malumotlar olish va ularni qo'llash imkoniyatini beradi.

Esda olib qolish to'g'ridan-to'g'ri o'quvchi faoliyatining xarakteriga bog'liqdir. O'tkazilgan ko'pdan-ko'p kuzatishlar va tajribalar (**A.A.Smirnov P.I.Zinchenko**) shuni ko'rsatadiki, esda olib qolish biron-bir faol faoliyatda ro'y bergan vaqtdagina eng samarali bo'ladi. A.A.Smirnovning tajribalarida tekshiruvchilarga ikki xil faoliyat taklif qilingan edi. **Birinchi holda** ular malum tekstlarni esda olib qolishlari lozim edi. Tekshiruvchilar tekstni yodlar ekanlar, material ustida hech qanday faol ish olib bormadilar. Ikkinchi holda esda olib qolish vazifasi qo'yilmadi-yu, lekin tekst ustida muayyan ish olib borish-undagi manaviy xatolarni aniqlash taqlif etildi.

Ikkinchi holda esda olib qolish ancha samarali bo'lganligi aniqlangan. A.A.Smirnovning o'tkazgan tajribalari shuni ko'rsatadiki, masalan, tekstning to'zib

chiqilgan rejasiga asoslangan yodlash rejaga asoslanmagan yodlashdan ikki baravar salmokliroq ekan. Yodlash jarayonida takrorlash bilan materialni faol esga tushirishga intilishni bir-biri bilan almashtirib turish tavsiya qilinadi. Berilgan vaqt teng bo'lgan sharoitda bu usul faqat takrorlashga asoslangan (V.S.Ivanova)yodlashdan 30-40 foiz samaraliroq bo'lib chiqdi.

Ma'lumki, o'quv materialini ma'nosiga tushunib esda olib qolish faqat zarur bo'libgina kolmasdan shu bilan birga mehaniq esda olib qolishdan beqiyos darajada samaraliroqdir. Bu urinda ham o'qituvchining qanday yo'l tutajagi aniq va ravshandir. O'quvchi naqadar ulgayib borgan sari uning aqliy faoliyatida ma'nosiga qarab esda olib qolish shu qadar muhim rol' uynaydi. Maktab yoshida xotirani rivojlantirishning umumiy yo'nalishi shundan iboratki. O'quvchi o'zining mnemik funksiyasini asta-sekin egallab boradi, bu funktsiya ixtiyoriy ya'ni uyushgan, tartibga solinadigan va boshqariladigan bo'lib qoladi. Ta'lim jarayonida analiz va sintezning ancha rivojlangan formalariga sekin asta o'tiladi. Bunda o'qituvchining yo'lga soluvchi, o'quvchilar tomonidan qilingan analiz va sinteznitashkil etuvchi, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi so'zi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'quvchilar o'zlashtiradigan o'quv fanlari narsa va hodisalarning muhim belgilari haqidagi umumlashgan bilimlar bo'lgan ilmiy tushunchalar tizimidan iboratdir. Fanni o'zlashtirish, xususan, o'quvchilarda tegishli tushunchalarni tarkib toptirishdan iboratdir. Lekin biz hozirgina qayd qilib o'tganimizdek, bir qancha hollarda bu tushunchalar haqiqiy umumlashtirishlar asosida emas. Balki jo'ziy masalalarni biror umumiy tamoyilga boglash(qonundan tashqari umumlashtirishlar) asosida tarkib topadi.

Ikkinchidan bu erda o'quvchining hissiy idrok qilish xarakteri tasir etadi. Bola bita rasm yoki chizma tasiri otida bevosita idrok qilgan yoki tasavvur etgan belgilar muhim belgilar darajasiga ko'tariladi. Biroq bir tushunchani tasodifiy, muhim bo'lmagan belgilarsiz tasvirlab bo'lmaydi, umuman qo'lni, umuman mevani.

Baliqni va xokazolarni tasvirlash mumkin emas umuman uchburchakni tasvirlab bo'lmaydi – uchburchak hamisha muayan burchaqlarga, tomonlarga ega

bo'lgan, tekislikda malum tarzda joylashgan butunlay konkret uchburchakdan iboratdir.

Masalan, tashqi burchakning kattaligi haqidagi teoremani isbot qilish vaqtida garchi gap har qanday uchburchak va uning har qanday tashqi burchagi haqida borsa ham, o'quvchilar isbot qilishni muayyan, konkret xususiy uchburchak asosida o'zlashtiradilar. Tushunchalar hosil bo'lishida bevosita hissiy ta'surootlar ta'siri shu kadar kattaki ba'zi hollarda biz bu ta'sirning so'z bilan ta'sir ko'rsatishdan (darslik tekstidan o'qituvchining tushuntirishidan) ko'ra kuchliroq ekanligini ko'ramiz. Agar ko'rgazmali tajriba bir xil bir tomonlama yoki sheklangan bulsa, u narsa yoki hodisaning muhim belgilarini bulaqlarga ajratish va umumlashtirishga tuskinlik qiladi, chunki o'quvchilarning diqqat etiborining aniq ifodalangan, lekin muhim bo'lmagan tasodifiy belgilarga jalb qiladi.

Shu sababli «to'g'ri chizik hamisha gorizontaldir»; «tashqi burchak hamisha utmas burchak bo'ladi»; «qo'l-qaddi bukilgan azob shekkan odam»; va hokozolar tipidagi keng tarqalgan xatolar kelib chiqqan.

Albata, aniqlangan faktlar maktab o'quvchilaridagi aynan shunday noto'g'ri umumlashtirishlar, hatto tushunchalar qonuniy ravishda paydo bo'ladi, deb xulosa chiqarishga olib bormaydi.

Biz agar o'qituvchi tahlil va umumlashtirishlarning xato ekanligini o'xshantirish uchun maxsus choralar ko'rmasa, ko'pincha qanday xollar yuz berishini ko'rsatib o'tamiz.

Bu choralar psixologlar aniqlab chiqqanidek ikki tomonlama xarakterga ega birinchidan, muhim bo'lmagan belgilarni o'zgartirish mumkin, buninguchun ko'rgazmali materialdarajada xilma xil qilish kerak, unda muhim bo'lgan belgilarning invariantligi (ya'ni doimiy belgilar bilan saqlanishi) mavjud bo'lgan xolda muhim bo'lmagan belgilar albata o'zlashtiriladigan bo'lsin.

Shu bilan birga to'g'ri umumlashtirishlarni ishlab chiqish uchun, E.N.Kabanova-Meller ko'rsatib o'tganidek o'quvchilar taklif qilingan misollarni taqqoslashlari va umumiy narsalarni shuningdek turlanadigan, o'zgarishi mumkin bo'lgan, turli ahamiyatga ega bo'ladigan narsalarni ajratib ko'rsatishlari lozim.

«Orol» degan tushunchani shakllantirib, kartadan orollarning katta va kichik turli shakllari orollar, tekis va toglik, atrofi ajratilgan va arxipelagdagi orollar qirg'oq yakinidagi va okean orollari bo'lishi mumkinligi ko'rsatsa bo'ladi. «Ildiz» degan tushunchani shakllantirib, rasmda ildizlarning har xil ko'rinishlarini –er osti va er usti, o'zun va qisqa o'k ildiz va sershox ildiz bo'lishini ko'rsatib berish kerak, albata, hamma vaqt ham variatsiyalarning barcha xillarini kamrab olish imkoni bo'lmaydi. Bunga alohida ehtiyoj ham yuk, chunki o'kuvchilarga hissiy tajribaning sheklanganligini tushuntirib berish, bu tajriba chegarasidan, albata chetga chiqish mumkinligini ko'rsatish muhimdir.

Ikkinchidan, o'qituvchi muhim bo'lmagan belgilarning variatsiyalari bo'lishi mumkinligini, bu variatsiyalarning tamoyilini va yo'nalishini ogzaki takidlab o'tish mumkin. Ba'zan bu shunday oddiy ko'rsatma ya'ni «to'g'ri burchakni to'g'ri ajratib ko'rsatish uchun uning faqat gradus ulchovigae'tibor bering va hamda uning qaerda va qanday joylashganligiga e'tibor bermang» qabilidagi konkret ko'rsatma bo'ladi. Tushunchani ochib berish vaqtida o'quvchilardan muhim belgilarnigina emas balki muhim bo'lmagan belgilarni hamda ularning ehtimol tutilgan variatsiyasini ham «merediananing yo'nalishi istagan – yuqoriga, pastga o'ngga chapga qaragan bo'lishi mumkin»; «suv ayrgich» har qanday va har qanday balandlikka ega bo'lishi mumkin») ko'rsatib berishlarini ham talab qilish kerak.

Ko'rsatish va tushuntirishni konbinatsiyalashtirish, albata, eng yaxshi natijalar beradi masalan, o'qituvchi «vertikal burchaklar» degan tushunchani kiritar ekan, bunday deydi: **«vertikal burchaqlar faqat darslikda tasvirlanganidek bo'lishi shart emas, ular turli holatda turishi mumkin (doskaga chizib ko'rsatadi), burchaqlarning kattaligi ham turlicha bo'la oladi.»** (namoish qilinadi).

4.Ta'limni shunday tashkil etish vazifasi qo'yilmokdaki, u o'quvchilarning aqliy taraqqiyotini maksimal darajada ta'minlay olsin.

Texnika taraqqiyoti va fanning tez sur'at bilan rivojlanayotganligi yosh avlodning umumiy ta'lim tayyorgarligi darajasida tobora ko'proq talablar qo'ymokda o'quv dasturlari va kurslarni qayta ko'rish zamonaviylashtirish zarur bo'lib qoldi. S.L.Rubnshteyn bilan B.G.Anan'ev birinchilar qatori umumiy aqliy

rivojlanishni umumiy intellektni tadqiq qilish bilan shugullanishga davat etib maydonga chiqdilar. Masalan Anan'ev *bu kategoriyalar odamning shunday murakkab psixik xususiyatlaridirki, o'qish va mehnatdagi muvaffaqiyat ana shu xususiyatga bog'liqdir*, deb gapirdi.

Olim bu kategoriyalarni bilishga oid turli vazifalarning qo'yilishi va xal etilishi bilan bog'langan, ya'ni hodisaga eng muhim muljallovchi tavsifnoma bergan bo'lib, bu tavsifnoma uni hal etishning mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rsatib berdi.

Yu.A.Samarin aqliy faoliyatning assotsiativ tabiatini tizimlilik tamoyili asosida tekshirar ekan, assotsiasiyalarning tegishli darajaga birlashish xarakteriga qarab aqliy faoliyat darajalarini klasifikatsiya qilib chiqqan (lokal assotsiasiyalar darajasi-ayrim hodisalar o'rtasida, sheklangan-tizimli assotsiasiyalar darajasi-maktab kursining ayrimtemasi va bulimi chegarasida, ichki tizimli assotsiasiyalar darajasi - muayyan o'quv fani doirasida va bir qator o'quv fanlarining materialini birlashtiruvchi tizimlararo assotsiasiyalar darajasi).

L.V.Zankov nuqtai nazari ham - qiziqish uygotadi. Uning uchun aqliy rivojlanish sohasida xal qiliuvchi narsa – o'z tabiyatiga ko'ra turli xarakterga ega bo'lgan xarakter usullarini muayyan funktsional tizimga birlashtirishdan iborat.

Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilarga bir xil darslarda analiz qilib kuzatishni, boshqa darslarda (vaqt va mazmun jihatidan bir - biridan uzoqdarslarda) muhim belgilarni umumlashtirishni urgatganlar. Aqliy faoliyatning ana shu turli xarakterdagi usullarni bita tizimga, yagona analitik – sintetik faoliyatga birlashtirish ro'y bergan chogdagina aqliy rivojlanishdagi progress haqida gapirish mumkin.

Yuqorida bayon qilinganlar munosabati bilan aqliy rivojlanishning mazmuniga oid mezonlar (belgilar, ko'rsatkichlar) ro'yxatini N.D.Levitov keltirib o'tadi.

Uning fikricha, aqliy rivojlanish quyidagi ko'rsatkichlar bilan:

- 1) tafakurning mustaqilligi bilan;
- 2) o'quv materialining o'zlashtirishning tezligi va mustahkamligi bilan,
- 3) Standart bo'lmagan vazifalarni xal qilishda aqliy chammalashning (topqirlikning) tezligi bilan;

4) o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish (muhim bo'lgan narsani, muhim bo'lmagan narsadan ajrata bilish) bilan va

5) aqlning tanqidiy qarashi, balandparvoz, asossiz mulohazalarga moyillikning yo'kligi bilan xarakterlanadi.

D.B.Elkonin uchun aqliy rivojlanishning asosiy mezoni – to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati strukturasi (tarkib topgan o'quv faoliyati) hamda uning komponentlari – masalaning qo'yilishi, vositalarni tanlash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tekshirishning mavjudligi, shuningdek, o'quv faoliyatidagi predmet va simvolik rejalarning to'g'ri nisbatidir.

N.A.Menchenskaya shu munosabt bilan fikrlash faoliyatining shunday xususiyatlarini, chunonchi:

- 1) O'zlashtirishning tezligi (yoki sustligi);
- 2) Fikrlash jarayonining puxtaligi (ya'ni ishni qayta ko'rishning topshiriqlarning o'zgargan sharoitlariga moslashishning osonligi yoki yiqinligi)
- 3) Tafakkurdagi ko'rgazmali va mavhum komponentlarning mahkam bog'lanishi (yoki tarqoqligi) va
- 4) Analitik s-sintetik faoliyatning turli darajasini qarab chiqadi.

E.N.Kabanova – Meller aqliy faoliyatining bir obektda tarkib topgan usullarini boshqa obektga keng va faol ravishda kuchirishni aqliy rivojlanishning asosiy mezoni deb hisoblaydi. Masalan, quldorlik tuzimini tahlil qilish sxemasini feodal tuzimini tahlil qilishga mustaqil ravishda kuchirish; Buyuk Britaniyaning iklimini dengizning yaqinligi, kenglik, dengiz sathidan balandligi, ko'p bo'lib turadigan shamollarni hisobga olgan holda tahlil qilish tamoyillarini Yaponiyaning iklimini tahlil qilishga kuchirish; (aqv)² formulasini chiqarish vaqtidagi tafakkur sxemasini (aqv)³ formulasini mustaqil ravishda chiqarishga ko'chirish va hakoza. Aqliy rivojlanishning yuqori darajasi aqliy usullarni fanlararo umumlashtirish bilan bog'langan bo'lib, u ana shu usullarni bir fandan ikkinchisiga kengroq ko'chirish imkonini beradi.

O'quvchilar aqliy rivojlanishining boshqa bir mezoni - «tafakkurning tejalishi» deb atalgan tushuncha, ya'ni fikrlar miqdori bo'lib, o'quvchilar ana shu fikr

asosida o'zlari uchun yangi bo'lgan qonuniyatni belgilab oladilar. Bunda Z.I.Kalinkova quyidagi mulohazalarga asoslangan. Aqliy rivojlanishi past darajada bo'lgan o'quvchilar masalani shartlarida berilgan axborotdan sust foydalanadilar, ko'pincha uni ko'r - ko'rona sinovlar yoki asossiz analogiyalar asosida echmoqchi bo'ladilar. Shuning uchun ularni echish yo'llari ham tejamli bo'lib chiqadi, bu yo'lda konkretlashtirilishi kerak bo'lgan, takroriy va soxta mulohazalar ko'p bo'ladi.

Bunday o'quvchilarning doim chetdan kuzatib turish va yordam berish talab qilinadi. Aqliy rivojlanishi yuqori darajada bo'lgan o'quvchilar ko'p bilim fondiga ega bo'ladilar va unda foydalanish usullarini bo'ladilar, masalaning shartida berilgan axborotdan to'la barhammand bo'ladilar o'z harakatlarini doimo nazorat qilib turadilar, shuning uchun ularning muammoni echish yo'llari lo'nda, qisqa va ratsional ekanligi bilan ajralib turadi.

O'quvchilarga turli metodlar, turli darsliklar bo'yicha talim berish vaqtida ularning aqliy rivojlanishi darajasini aniqlay olish (yani turli sharoitda talimning samarasi ortib borayotganligiga baho bera bilish) kerak. Aniqlash vositalari darsliklar va ta'lim metodlarining optimal variantlarini tanlab olishda yordam bermog'i lozim.

Ikkinchidan, har bir o'quvchi maksimal darajada va har tomonlama rivojlanishi uchun uning tafakkurini individual xususiyatlariga va intellektual imkoniyatlariga tayanish tamoyilini, individual talim tamoyilini amalga oshirish maqsadida aqliy rivojlanish darijasini aniqlay olish kerak. Hozirning o'zidayoq aqliy rivojlanishda vaqtincha orqada qolgan, umumiy aqliy rivojlanishda vaqtincha nuqsonlar bo'lgan normal bolalarga ancha samarali talim berishning psixologik shart - sharoitlari o'rganib chiqildi.

Hozirgi vaqtgacha ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga oid ayrim diagnostika metodlari ishlab chiqilgan, bu metodlar maktab o'quvchilari aqliy faoliyatining shunday parametrlarini chunonchi.

1. O'quv materialini klasifikatsiya qilish;
2. Aqliy faoliyat usullari va ularni kuchirish mumkinligi;

3. Mustaqil ravishda bilim egallash (muamoni mustaqil tarzda xal qilish, qonuniyatni kashf etish).

4. Tafakkurning «tejalishi».

5. Xususiyan umumiyga tomon siljish sur'ati(tezligi);

6. Harakatlarning ichki rejai va xokozolarni baholash hamda ulchash bilan bog'langan.

Hayotning jushkin sur'atidan orqada kolmaslik uchun umr buyi o'sish, ukib o'rganish, o'z bilimlarini to'ldirib borish kerak bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda faol mustaqil, ijodiy tafakkurni, mustaqil bilish faoliyatiga, mustaqil bilim egallashga, yoki ba'zi xollarda aytishlaricha, o'z-o'zicha ta'lim olishga maktabdan keyin mustaqil ta'lim olishga oid qobiliyatni butun choralar bilan tarkib toptirishni najot yo'li deb bilmoqdalar.

Ta'lim muayyan mazmunga ega bo'lgan va maxsus tashkil etilgan taqdirda kichik yoshdagi o'quvchilarda mavhumlashtirish va fikr yuritishning uylanganidan ham ancha yuqoriroq darajasini tarkib toptirish mumkin ekan. Bu yoshdagi o'quvchilar tilshunoslik va matematika sohalaridan nisbatan murakkab abstraktushunchalarni bemalol o'zlashtirib olishlari mumkin. Bu ta'limning mazmuni va metodikasi odat bo'lib qolgan ta'lim mazmun metodikasidan (shu jumladan, yangi dasturlarda to'rt yillik boshlangich ta'lim uchun belgilangan mazmun va metodikadan ham) jiddiy farq qiladi. Nazariy va umumlashtiruvchi xarakterdagi bilimlar matematika ona - tili va mehnatga oid eksperimental dasturlarning etakchi zvenosi bo'lib maydonga chiqadi.

Ta'lim umumiy tipdagi bilimlardan ancha xususiy va konkret ko'rinishlariga oid g'oyat boy xilma xillikni anglashga o'tadilar. O'quvchilarning bilish faoliyatini maksimal darajada faollashtirish, ularning faol, mustaqil, ijodiy tafakkurini avj oldirish maktab ta'limining muhim vazifasiga aylanib bormoqda.

Ta'limning asosi-o'qituvchining o'quvchilarga etkazadigan mo'l - ko'l axborotini esda olib qolish emas (garchi bu muhim vazifa bulsada), balki bu axborotni olish jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishi, ularning mustaqil fikr yuritishini, mustaqil bilim olish qobiliyatini, o'z-o'zicha ma'lumotini

o'shirish qobiliyatini sekin – asta shakllantirib borishdan iborat bo'lmog'i lozim. Agar o'quvchi yuzta teoremani emas balki ellikta teoremani bilgani, lekin zarur bulsa, yana zarur bulsa, ellikta teoremani isbot qilib bera olgani yaxshi desak bu gap tortishuvga sabab bo'lmasa kerak.

Ta'lim psixologiyasi sohasida ishlayotgan tadqiqotchilarning asosiy vazifasita'lim jarayonida mustaqil ijodiy tafakkurni va o'quvchilarning bilish faolligini tarkib toptirish va rivojlantirishning optimal darajasini qulay sharoitlarini ta'limning rivojlanib borayotganrolini oshirish sharoitlarini aniqlashdir. Bunda psixologilar L.S.Vigotskiy tomonidan aniqlangan qoidaga, ya'ni ta'lim berish o'quvchi qo'lga kiritib bo'lgan rivojlanish darajasini ko'zlamasdan, bir muncha olga ketishi, o'quvchining tafakkuriga uning mavjud imkoniyatlarini bir qancha oshiradigan talablar qo'yishi, u erishgan va yaxshi o'zlashtirib olgan analitik sintetik faoliyat darajasini talab qilishi kerak degan qoidaga asoslanadilar.

L.S.Vigotskiy ta'limning aqliy rivojlanishdagi etakchi rolini ta'kidlar ekan, ta'lim o'quvchilarning rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kuniga tayanmogi kerak deb hisoblagan edi. Ta'lim rivojlanishning faqat tugallangan darajasi asosida qurilmasdan, avvalo hali unchalik tarkib topmagan (va shunday ta'limtasiri ostida tarkib topayotgan) narsalarga tayanmogi kerak.

L.S.Vigotskiy boladagi aqliy rivojlanishning ikki darajasi haqidagi koidani ifodalab berdi. Birinchi daraja, Vigotskiy ataganidek aktual rivojlanish darajasi-o'quvchi tayyorgarligining mavjud darajasi bo'lib, u o'quvchining qanday topshiriqlarni to'la mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi.

Ancha yuqori bo'lgan ikkinchi daraja (*uni Vigotskiy eng yakin rivojlanish zonasi deb atagan*) bolaning nimani mustaqil bajara olmasligini, lekin ozroq yordam bilan (yo'l-yo'rik beruvchi savollar, aytib berishlar, ishora qilishlar, umumiy ko'rsatmalar berish va hakoza) nimaning uddasidan chiqa olishini ko'rsatadi. Vigotskiy, bola bugun kattalar, o'qituvmi yordamida bajarayotgan narsani ertaga mustaqil ravishda o'zini bajaradi, eng yaqin rivojlanish zonasiga kirgan narsalar, talim protsessida aktual rivojlanish darajasiga o'tadi deb takitlagan edi.

Psixologlar ana shu tamoyilga asoslanib, talim protsessida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishning psixologik shart-sharoitlarini, o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyat samarali metodlarini egallash shart-sharoitlarini tadqiq qilmokdalar, o'qish jarayonida «tayyor» bilimlarni o'zlashtirish bilan mustaqil «kashfiyotlar» qanday nisbatda bo'lishini aniqlamoqdalar. Har bir o'quv fani mazmunida bilimlar tizimidan tashqari bilishga oid va amaliy vazifalarini alohida tiplarini ham ko'zda to'tish kerakligini ko'rsatibutilgan edi. Bu vazifalarining hal qilinishi bilimlarni ancha ongli ravshda o'zlashtirishgagina yordam berib qolmasdan, bilimlarni mustaqil ravishda egallash qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Muamoli talim jihatdan bir qancha afzalliklarga ega bo'ladi:

- 1) u o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, dialektik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi;
- 2) u o'quv materialini ancha ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning etiqotga aylanishga ko'maqlashadi;
- 3) u, odatda, ancha tasirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tug'ular, shu jumladan, shodiyona konikish tuyg'usini, o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonish tuygusini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi;
- 4) haqiqatning, qonuniyatning mustaqil «kashf etilishi» osonlikcha unutilmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham, ularni teziroq qayta tiklash mumkin.

Talim vazifasi ma'lum sharoitda aqliy faollikni vujudga keltirishga sabab bo'lishi mumkin. Psixologlar o'quvchilar faolligining manbai, xususan ularda mavjud bo'lgan tajriba (bilimlar, ko'nikmalar, malakalar) bilan bilishga oid o'quv vazifalarini hal qilish vaqtida ular oldida paydo bo'ladigan muamolar o'rtasidagi qarama-qarshiliklardadir deb biladilar. Bu qarama-qarshilik faol fikrlash faoliyatini vujudga keltiradi.

Masalan, o'quvchi bilishga oid biror masalani hal qilish kerak, biroq:

- a) bu masalaning shartlari uni hal qilish yo'llarni aytib bermaydi va

b) o'quvchilarning avvalgi tajribasi masalani echishning hech qanday tayyor sxemasiga, mazkur holda tadbiriq etsa bo'ladigan sxemaga ega emas. O'quvchi o'z tajribasida mavjud bo'lmagan yangi hal qilish sxemasini, harakat usullarining yangi tizimsini yaratish zarur bo'lib qoladi.

O'quvchilarning turmish tajribasi ilmiy bilimlarga tuknash kelishi yo'li bilan muammoli vaziyatlar paydo bo'lishi mumkin. Muamolik darajasi har xil bo'lgan topshiriqlarni turlicha ifodalash mumkin. Muamoli-evristik talim turli sifat darajalarida amalga oshirilishi mumkinligi matematika materiallari asosida (V.A.Krutetskiy) ko'rsatib berilgan. Muamoli evristik ta'limning taxminan uchta ketma-ket darajasini (yoki bosqichini) belgilab chiqish mumkin.

Ma'lumki muamoli ta'lim protsessini to'rtta asosiy zvenoga ajiratisn qabul qilingan:

- 1) umumiy muamoli vaziyatni anglash;
- 2) uni tahlil qilish, konkret muamoni ifodalash;
- 3)muamoni xal qilish (gipotezalarni ilgari surish, asoslab berish, ularni izchil tekshirish);
- 4) muamoning to'g'ri xal qilinganligini tekshirish.

Muamoli-evristik ta'limning uchta darajasiga oid taklif qilingan sxema o'qituvchining o'quvchilarga qancha va qaysi zvenolarni berishga asoslanadi (biz keyingi ikkita zvenoni bita qilib birlashtiramiz, chunki bizning fikrimizcha, muamoni echilishini tekshirishini ham o'z ichiga olishi kerak: tekshirilgan echimgina haqiqiy echim deb xisoblanishi mumkin).

Ta'limning an'anaviy formasida o'quvchining o'zi muamoni ifodalab va xal qilib beradi (formulani yozadi. teoremani isbotlaydi va xokoza).o'quvchi esa o'qituvchi aytgan fikrni tushunishi va esda olib qolishi, ifodani, muamoni echish tamoyilini, muhokamaning borishini esda olib qolishi lozim. Muamoli ta'limning birinchi darajasi shu bilan xarakterlanadiki, o'qituvchi muamo qo'yadi, uni ifodalab beradi va muamoni xal qilish yo'llarini mustaqil ravishda izlashga o'quvchini yo'llab turadi.

Ikkinchi darajada shu bilan farq qiladiki, o'quvchida muamoni ham mustaqil ravishda ifodalash, ham uni xal qilish qobiliyati tarbiyalanadi o'quvchi esa muamoni faqat ko'rsatib beradi.

Nihoyat III bosqichda o'qituvchi muamoni xato ko'rsatib bermaydi ham: o'quvchi uni mustaqil ravishda o'zi ko'rishi lozim, uni ko'rgach, ifodalashi hamda uni qilish imkoniyati va usullarini tadqiq qilishi kerak. Natijada muamoni mustaqil ravishda ko'rish, muamoli vaziyatni mustaqil tahldil qilish, mustaqil sur'atda to'g'ri javob topish qobiliyati tarbiyalanadi.

O'quvchilarning aqliy faoliyatidagi faollikni rivojlantirishni o'qituvchining bergan topshiriqlaridan ragbatlangan harakatlardan masalalarni mustaqil qo'yishga, oldindan ma'lum bo'lgan yo'llar va usullarni tanlash bilan bog'liq bo'lgan harakatlardan masalalarni hal qilishni mustaqil izlashga, so'ngra muamolarni mustaqil ko'rish va ularni tadqiq qilish malakasini hosil qilishga o'tish sifatida xarakterlash mumkin. Tadqiqotchilik metodi - o'quv ishlarini shunday tashkil etishdirki undan o'quvchilar bilimlarga ega bo'lishning ilmiy metodlari bilan tanishadilar va ilmiy metodlarning o'zlari uchun qo'lay elementlarini o'zlashtirib, yangi bilimlarni mustaqil hosil qiladilar, izlanishni rejalashtirish hamda o'zlari uchun yangi bo'lgan bog'lanish yoki qonuniyatni ochish malakasini egallaydilar.

Muamoli metodni buning ustiga tadqiqotchilar metodini ta'limning universal metodiga aylantirib yuborish mumkin emasligi shak-shubhasizdir. Bu metod hali mustaqil fikr yuritish malakalarini hosil kilmagan ba'zi bir o'quvchilarga bir muncha qiyinlik qiladi (xolbuki boshqa o'quvchilar bu metodni bemalol o'zlashtirishlari mumkin; masalan bizning eksperimentlarimiz ancha qobiliyatli o'quvchilar deyarli butun geometriya kursini o'zlari uchun; «kashf etib»olganlar).

Bundan tashqari u an'anaviy axborot-xabar beruvchi bayon qilishga qaraganda ko'proq vaqt oladi. Lekin bu keyingi holatni bo'rtirib yubormaslik kerak. Muamoli metodni joriy qilishning dastlabki bosqichlarida bekor sarf bo'lgan vaqt keyinchalik, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi etarli darajada qanot yozgach o'z o'rniga kelib qoladi. Maktab ta'limi tajribasida har ikkala metodni ham garmonik tarzda uyg'unlashtirish zarur. Barcha qonuniyatlarni «qayta kashf etish» ga

o'quvchilarni majbur qilmaslik kerak. Lekin har holda ko'rib chiqilgan metod mustaqil, ijodiy tafakkurni rivojlantirish jihatidan juda samarali metod ekanligini unutmamiz. Bu esa har kimning fan taraqqiyoti jadallashib borayotgani bilan birgalikda mustaqil ravishda olga harakat qilishga imkon beradi. Shuning uchun ham psixologlar va pedagoglar turli yosh bosqichlarida, turli o'quv predmetlarida, o'quv kurslarining har xil bulimlarini o'tish vaqtini muammoli va tadqiqotchilik metodlarini qo'llanish imkoniyatlarini intensiv ravishda tadqiq qilmoqdalar.

Ta'limni individuallashtirish ustida maxsus to'xtalib o'tish kerak. Ta'limni individuallashtirish har bir o'quvchi individual(alohida), boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda ta'lim oladi degan ma'noni bildirmaydi (garchi tamoyil jihatidan shunday ta'lim bo'lishi mumkin bo'lsa ham). Xususan, dasturlashtirilgan ta'lim (epizod sifatida emas balki ta'lim tizimi sifatida) o'z tabiatiga ko'ra individuallashtirilgan. Ta'limni individuallashtirishning ma'nosi shuki, u o'quvchining individual – psixologik xususiyatlariga tayanadi, ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda quriladi. Shu nuqtai – nazardan sinfdagi oddiy ta'lim qanday ro'y berishini qarab chiqamiz. Sinf rivojlanishi va tayorgarlik darajasi bir xil bo'lmagan, o'zlashtirishi turlicha va o'qishga munosabati har xil, qiziqishlari xilma - xil o'quvchilardan tashkil topadi.

O'qituvchi an'anaviy tashkil etilgan ta'lim sharoitida hammaga bir xilda baravar kela olmaydi. Shuning uchun u ta'limni o'rtacha darajaga – o'rtacha rivojlanishga, o'rtacha tayorgarlikka, o'rtacha o'zlashtirishga tadbiq qilgan holda olib borishga majbur bo'ladi – boshqacha qilib aytganda, u ta'limni qandaydir afsonaviy «o'rta» o'quvchini ko'zda to'tgan holda tashkil etadi. Bu narsa mukarrar ravishda shunga olib keladiki, «kuchli» o'quvchilar o'z rivojlanishida sunniy ravishda ushlab turadilar, o'qishga qiziqishlari qolmaydi, o'qish ulardan ko'p aqliy kuch sarflashni talab qilmaydi, «kuchsiz» o'quvchilar esa surunkasida orqada qolishga muhtalo bo'lganlar, ular ham o'qishga qiziqmay qo'yadilar, bu o'qish ulardan ko'p aqliy kuch sarflashni talab qiladi.

«O'rta darajaga kiruvchilar» ham juda juda har xil bo'ladilar, qiziqish va mayllari turlicha, idrok xotira, hayol va tafakkur xususiyatlari xilma – xil bo'ladi.

Bir o'quvchi ko'rgazmali obrazlar va tasavvurlarga asosli ravishda tayanmogi zarur, ikkinchisi bunga kamroq ehtiyoj sezadi, biri sekin fikrlaydi, ikkinchisining aqliy mo'ljali nisbatan tezligi bilan ajralib turadi, biri tezda olib qolsada, mustahkam emas, ikkinchisi –sekin esda olib qolsada, ko'p narsani yodida saqlaydi; birini uyushgan holda ishlashga o'rgangan, boshqasi kayfiyatiga qarab, asabiylashib va notekis ishlaydi; biri astoyidil, ikkinchisi majburan shugullanadi.

Ta'limni individuallashtirish tamoyili o'qitishga o'quvchilarning real tiplariga tayanish zarurligi asoslanadi. Bu tamoyillarni, biz ko'rib o'tganimizdek, dasturlashtirilgan talim juda yaxshi amalga oshiradi. Lekin odatdagi talim sharoitidagi bu prinsip tadbiiq etilishi mumkin va lozim. O'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari talimning ayrim metodlari va usullari tanlash hamda qo'llanish vaqtida uyga berilgan topshiriqlarni qismlarga, bo'lishda sinf va kontrol ishlarning variantlarini (ularning qiyinlik darajasiga qarab) aniqlashda hisobga olinadi.

Ta'limda individual yondoshish kamchiliklarga barham berishnigina emas (bu narsa ko'pincha ana shunday tushuniladi.), balki o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, o'qishga to'g'ri munosabatda bo'lishni, bilishga oid qiziqishlarni tarkib toptirish ishlarini olib borishni ham anglatadi. O'qishga salbiy (negativ) munosabatda bo'lish hollarida bunday munosabatni keltirib chiqargan sabablarga qarab, tarbiyaviy chora tadbirlar ko'rish kerak bo'ladi. Bunday sabablar orasida o'qituvchi bilan bo'lgan kelishmovchilik, o'quvchi duch kelgan kiyinchiliklar, bilimdagi nuqsonlar, o'z kuchiga ishonmaslik va xokozalar bo'lishi mumkin.

Ta'limni individuallashtirish tajribasi boshqa mamlakatlarda ham, shu jumladan Evropa mamlakatlarida ham o'tkazilmoqda. Masalan, bunday tajriba AQShdagi bir necha maktabda o'tkazilmoqda, lekin biz unga ijobiy baho bera olmaymiz, chunki u intelletual rivojlanishning genetik jihatdan shartli tug'ma darajasi haqidagi gayri ilmiy goyalarga asoslanadi va bolalar qobiliyatlarning tengsizligini belgilab beradi. Lekin psixolgik-didaktik xarakterdagi ayrim jihatlari ma'lum qiziqish o'ygotadi.

Barcha bolalar o'qishga qobiliyatlidir, har bir normal va psixik jihatdan sog'lom o'quvchi o'rta ma'lumot olishga qodir, maktab dasturlari doirasida o'quv materiallarida ma'lum darajada muvafiqiyatli egallashga qodir, binobarin o'quvchi hamma o'quvchilarning ham shunday bo'lishiga erishmogi lozim, degan nuqtai nazarda turadilar. Lekin bundan hamma o'quvchilarga ham ta'lim berish bir xilda oson, deb aslo o'ylab bo'lmaydi. Har qandiy ta'lim metodikasi sharoitida, bu ta'lim yaxshi tashkil etilgan sharoitda bir xil o'quvchilar yaxshiroq harakat qilib, boshqalardan ko'ra yuqori natijalarga erishadilar. Bir o'quvchi alohida ko'p kuch va mehnat sarf qilmasdan nisbatan qisqa muddat ichida yuksak natijalarni, katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritadi, usha darajaga shunchalik tez va osonlikcha ko'tarila olmaydi.

O'qiy olishlik - doimiy va o'zgarmas sifat emas, oldindan belgilab olingan qandaydir bir narsa emas, u ta'lim jarayonida tegishli faoliyatni egallash jarayonida rivojlanadi va takomillashadi. Shuning uchun ayrim o'quvchilarning o'qishidagi, nisbatan past daraja o'qituvchini ana shu o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini har tamonlama rivojlantirish, ularning o'quv materiallarini to'laqonli o'zlashtirishiga harakat qilish zaruratidan xalos etmaydi.

Biroq tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'qiy olishdagi individual farqlar shu qadar kattaki, hamma kategoriyadagi o'quvchilar uchun bir xilda optimal bo'lgan umumiy ta'lim shart sharoitlarini yaratib bo'lmaydi. Shu narsa belgilab chiqilganki, kengaytirilgan va mazmun jihatidan ancha murakkab dastur asosida ta'lim berish – o'qiy olishlik qobiliyati birmuncha yuqori ekanligi yaqqol namoyon bo'lgan o'quvchilar uchun optimal darajadagi ta'lim bo'ladi. Materialni ta'limdagi muamolilik tamoyilini maksimal darajada amalga oshirish asosida taqdim etmok kerak. Bunday o'quvchilarga muamolarini hal etishning asosiy, tamoyili jihatdan yangi uslublarini ko'rsatib berishga qaratilgan va chetdan beriladigan nisbatan ozgina ko'mak kifoya qiladi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan ishning xarakterli xususiyati - ular psixikasining o'z tomonlariga passivlik bilan moslanish emas, balki bu o'quvchilar maksimal darajada voyaga etishi uchun ularning aqliy rivojlanishiga faol ta'sir

ko'rsatish tamoyili bo'lmog'i lozim. Tarbiyachi va o'qituvchi ayrim bolalarda o'zining o'rtacha ekanligi, qobilyatsizligi va hatto mukamal emasligi haqida paydo bo'lgan tasavvurga faollik bilan qarshilik ko'rsatishlari lozim. Ta'lim bunday o'quvchining individual xususiyatlariga muvofiqlashmaydi, balki o'quvchining o'zi tobora tezlashib va murkkablashib borayotgan ta'lim jarayoniga muvofiqlashadi.

Ko'pgina o'qituvchilar mutasil o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishlashda, hamma o'zlashtirmovchi o'quvchilar «bir xilda yomon» tafakkir husiyotlariga egadirlar va o'zlashtimasligiga barham berish uchun ayni bir xil yondoshish (odatda – bir xil metodika bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish) zarur, deb hatto o'ylaydilar. Ann shu xato fikr, aftidan, bir xil o'quvchilar bilan ishlashda ko'pincha muvafaqiyatsizlikka uchrashga sabab bulayotganga uxshaydi.

Haqiqatda, bu o'quvchilardagi tafakkur xususiyatlari juda har xil, ularning muttasil uzlashtimasliklari sababi ham har xil bo'lib, ular bilan ishlash metodikasi ham har xil bo'lishi lozim. Metodika materiali asosida o'tkazilgan tekshirish, jumladan, shuni ko'rsatdiki, «qobilyatsiz» o'quvchilar nisbatan rivojlanishda va o'z tafakkuridagi ko'rgazmali – obrazli va so'z – mantik komponentlarining nisbatida ancha farq qiladilar (afor materiallaridan) shunga binoan matematikadan muttasil o'zlashtirmovchi o'quvchilarning bir necha tiplari o'rganib chiqilgan bo'lib biz ulardan ikkita asosiy tipini bayon qilamiz.

Intellektual faoliyatning konkret – ko'rgazmali rejasidan so'z – mantiq rejaiga va so'z – mantik rejasidan konkret – ko'rgazmali rejaga o'tishga kelganda shuni aytish kerakki, bu tipdagi o'quvchilar birinchi yo'lni ikkinchisiga oz qiyinchilik bilan amalga oshiradilar. Ular uchun obrazga tayanishdan ko'ra, obrazdan uzoqlashish osonroq (garchi har ikkalasi ham ma'lum kiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lsada). Ko'rsatib o'tilgan tipga mansub bo'lgan o'quvchilar matematikadagi abstraktsiyaga moyil bo'ladilar, muhim bo'lmagan belgilarning konkret ahamiyatlaridan o'zlarini olib kochishga harakat qiladilar. Biroq, bunday abstraktsiya, odatda, shoshilinch abstraktsiya bo'ladi, chunki uning uchun xali etarli xissiy baza yo'k va shu sababli asossiz abstraktsiya bo'ladi.

Abstraktsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan umumlashtirish haqida ham xuddi shu gapni aytish mumkin. Bu o'rinda ham umumlashtirishga, ma'lumki, mukamal bo'lmagan, shoshilinch umumlashtirishga moyinliqancha aniq ifodalangan bo'ladi.

Fikrlash faoliyatining konkret – ko'rgazmali rejadan so'z – mantik rejaga o'tishni bu tipdagi o'quvchilar kiyinchilik bilan amalga oshiradi. Ularning obrazdan uzoqlashuvi qiyin bo'lib, orqaga qaytishi – obrazga tayanishi nisbatan osondir. Tabiiyki, xato abstraktsiyaning hissiy bazasi tamomila etarli bo'lgan holda ham bu abstraktsiya jarayoni ular uchun nihoyatda qiyinlik qiladi.

Umumlashtirish bu gurux o'quvchilari uchun juda qiyin jarayondir. Bu tipga mansub bo'lgan o'quvchilar ko'rgazmali – obrazli materialni so'z – mantik materialiga qaraganda yaxshiroq esda olib va esda saqlab qoladilar. Ta'riflar, ifodalir, mantiqiy sxemalar, isbotlash va mulohazalarga oid sxemalir yaxshi esda olib kolinmaydi, yodlash uchun ko'p vaqt talab qiladi, tez unitiladi.

Diferentsiyalashtirilgan ta'limning barcha sanab o'tilgan formalari asosida quyidagi fikr, ya'ni hamma o'quvchilar hamma fanlar bo'yicha bilimlarning muayyan minimumini to'la-to'kis o'zlashtirishlari (bu minimum davlat o'quv dasturlarida belgilab berilgan), bundan tashqari esa, ayrim fanlarni asosliroq va chuqurroq o'rganishlari yoki o'quv rejasiga kirmaydigan fanlarni o'rganishlari mumkin, degan fikr yotadi.

Diferentsiyalashtirilgan ta'lim tajribasi va uni maxsus ravishda tekshirib chiqish (M.A.Melnikov, D.A.Epshteyn va boshqalar) shuni ko'rsatdiki, bu talim hamma o'quvchilarga zarur bilimlar xajmini berishga va ayni vaqtda fan, texnika, san'atning isalgan sohasidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish imkon tugdiradi. Bunday diferentsiyalashtirish o'quvchilarning individual qiziqish – xavaslarini va kobilyatlarinirivojlantirishda yordam beradi.

Qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirish muamosi munosabati bilan psixologlarning bir qancha takikotlarini o'quvchilarning turli faoliyat turlariga bo'lgan qobiliyatlarini aniqlashga qaratilganligini ko'rsatib o'tish kerak. Bu urinda qobiliyatlar degandi kishining muayyan faoliyati talablariga javob beradigan va

uning muvofiqiyatli bajarilishi shart bo'lgan individual psixolog xususiyatlari kompleksiya tushuniladi. Shunday qilib, qobiliyatlar – murakkab, integral psixik tarzida hosil bo'lgan narsalar xususiyatlar yoki komponentlarning o'ziga xos sintezidan iboratdir.

Aqliy faoliyatning xususiyatlari bo'lgan matematik qobiliyatlar haqida gapirganda (V.A.Krutetskiy tadqiqotlari), avvalo o'qituvchilar o'rtasida bir muncha tarqalgan yanglish fikr haqida to'xtalib o'tish kerak. Birinchidan, ko'pchina kishilar matematik qobiliyatlar dastavval tez va aniq hisoblash (jumladan, ko'ngilda hisoblash) qobiliyatdan iborat deb hisoblaydilar. Aslida esa hisoblash qobiliyatlari chinakkam matematik (ijobiy) qobiliyatlarni tarkib toptirish bilan hamma vaqt ham boxlik emas. Ikkinchidan, ko'p kishilar matematikaga qobiliyatli bo'lgan o'quvchilar formulalar, raqamlar va sonlarni eslab qolish uchun juda yaxshi xotiraga ega bo'ladilar, deb hisoblaydilar. Biroq akademik A.N.Kolmogorov ko'rsatib o'tganidek, matematikadagi muvaffaqiyat ko'p muqdordagi faktlar, raqamlar, sonlar, formulalarni tez va mustahkam esda olib qolish qobiliyatiga ancha kam asoslangan. Nihoyat, bir xil odamlar matematik qobiliyatlarning ko'rsatkichlaridan bir fikrlash jarayonlarining tezligidir deb xisoblaydilar. Biroq ishning tez surati o'z-o'zicha matematik qobiliyatlarga aloqador emas. O'quvchi sekin va shoshmasdan ishlashi, shu bilan bir vaqtda matematikani o'zlashtirishda o'ylab, ijobiy, muvaffaqiyatli ravishda olg'a borish mumkin.

Qobiliyatli o'quvchilarning (matematik faoliyat jarayonidagi) tafakkuri:

a) tez va keng umumlashirish bilan (har bir konkret vazifa namunaviy masala sifatida xal qilinadi):

b) tugal xulosa chiqarishlar tendentsiyasi bilan (mantiqiy jihatdan xuda aniq asoslangan mavjud bo'lganda);

v) fikrlash jarayonlarining zo'r harakatchanligi, masalalarini echishga yondoshdagi nuqtai-nazarlarining xilma-xilligi, bir aqliy faoliyatdan ikkinchisiga osson va erkin o'tish bilan, to'g'ridan to'g'ri fikrlashdan teskari fikrlashga o'tish bilan;

g) masalani echishda aniqlikka, oddiylikka, ratsionallikka, tejamlikka (ixchamlikka) intilish bilan xarakterlanadi.

Matematikaga qobiliyatli bo'lgan o'quvchilarning xotirasi matematik tizimlarning (masalalarning) turli elementlariga nisbatan turlicha namoyon bo'ladi. Ularning xotirasi umumlashgan xarakterga ega bo'ladi. Masalalarning tiplari va ularni echish usullari, fikrlarning, dalil-isbotlarning sxemalari, mantiqiy sxemalar tez esda olib qolinadi va mustahkam esda saqlanadi. Konkret ma'lumotlarini, raqamlarini, sonlarini esda olib qolishga kelganda shuni aytish kerakki, u matematik qobiliyatlariga nisbatan betarafdir. Bunday o'quvchilar yaxshi rivojlangan fazoviy tasavvurlari bilan farq qiladilar.

Matematikaga alohida iste'dotli bo'lgan o'quvchilarga aqlini o'ziga xos matematik munosabatlar prizmasi orqali idrok qilishga moyillik ularni mantiqiy va matematik kategoriyalar tarzida aniqlash xususiyati xarakterlidir.

Bu muammoning ahamiyati hozirgi vaqtdagi ishlab chiqaruvchiga (ishchi, texnik, injenir) qo'yilayotgan yuksak texnika talablari bilan ijodiy faoliyat elementlarini hozirgi ishlab chiqarish mehanika qo'piroq joriy qilish va aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatning to'g'ri bir-biriga yaqinlashuvi bilan belgilanadi.

Pirovardida shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim protsessida va ta'limning ta'siri ostida o'quvchining shaxsi tarkib topadi. Bu vaqt dunyoqarash, qiziqishlar, qobiliyatlar (ta'limning ularga ta'sir ko'rsatishi aniq kurinib turibdi) kabi shaxsiy xususiyatlarigina emas, balki ma'aviy kuyofaga, emotsional irodavi sifatlarga, xarakterga ham taluqlidir. To'g'ri ta'lim hamisha o'quvchilarning ma'naviy jihatdan usishini, ular shaxsining vujudga kelishini, ularning maqsadini tarkib toptirishini bildiradi. Shu ma'noda ta'lim qilishni tarbiyalaydi, bu esa bizga tarbiyalovchi ta'lim to'g'risida gapirish huquqini beradi.

Ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay xilma-xil ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar.

Ko'nikma - mashq qilish natijasida yuzaga kelgan xatti-harakatlarning avtomatlashgan usuli. Fiziologik jihatdan ko'nikma bosh miyaning katta yarim sharlari po'stlogida hosil bo'lib, vaqtinchalik nerv boglanishlarining barqaror

tizimining funksiyasini ta'minlaydi. Dinamik-stereotiplarni yaratish sharoitlari bir vaqtning o'zida avtomatlashgan akt bilan murakkab analitik-sintetik faoliyatni yuzaga keltiradi. Buning natijasida nafaqat ko'nikmalar, bilim malakalar ham yuzaga keladi.

Malaka - oldinga qo'yilgan maqsad va xatti-harakat sharoitidan kelib chiqadigan muvaffaqiyatli harakatlar usulidir. Malakalar xatti-harakat uslbi bo'la turib, ma'lum faoliyat turiga qarab ishlab chiqarish, o'quv, ijtimoiy, sport, tashkiliy, texnik faoliyat, ilmi faoliyat, san'at sohasidagi ko'nikmalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin, barcha faoliyat turlarida qo'llaniladigan ko'nikma va malakalar mavjud: bular – harakat, sensor, aqliy ko'nikma va malakalardir. Harakat ko'nikmalariga jismoniy mehnat, sport va o'quv ko'nikmalari (xat yozish, tez o'qish va hokazo) kiradi.

Sensor ko'nikma va malakalarga o'lchov, yorug'lik, ovoz va simvolik ma'lumotlarni tez va to'g'ri qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan va boshqarish markazlarida takrorlab borishlar kiradi.

Aqliy ko'nikma va malakalarga – kuzatish usullari, malakalrni rivojlantirish, og'zaki va yozma hisob-kitobni ishlab chiqish, harakatlarga yo'naltirish, kitob bilan ishlash, arxiv materiallarini yig'ish, ilmi tajriba o'tkazish va hokazo, ko'nikmalar mashq natijasida yuzaga keladi, ya'ni bunda maqsad sari yo'naltirilgan (doimi) qaytarish mustahkamlashga olib keladi va samarali usullar asosida qayta-qayta qaytarilishi amalga oshiriladi. Inson tomonidan egallangan ko'nikma va malakalar yangi ko'nikmalarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Qonuniyatlar:

Ko'nikmalarning hosil bo'lishining notekis jarayoni. Bu mashqlarning egri grafigida namoyon bo'ladi.

Ko'nikmalarning ko'chishi, ijobiy ko'nikmalarning yangilarini shkallanishiga ta'siri ko'chish deyiladi. Ko'nikmalardagi salbiy ta'sir esa interferentsiya deb ataladi, bunda eski ko'nikma yangisining shakllanishiga halaqit beradi.

Ko'nikmani progressiv va regressiv – ko'nikma uzoq vaqt miqdorida xizmat qilishi unun dan foydalanish lozim. Aks holda deavtovatlashtirish yuzaga kelib, zarur harakatlar o'z tezligi, yangiligi, aniqligi va avtomatlashtirilgan harakatlarni ta'minlovchi xususiyatlarini yo'qotadi.

Odatlar – bu shunday xatti-harakatlarki, ular o'z-o'zidan avtomatik tarzda yuz beradi. Odatlarni insonning madaniy va axloqiy xulqida ahamiyati katta.

Ta'lim boqariladigan jarayoni bo'lib, bunda har bir bolaning harakati qadamba-qadam nazorat qilinadi, o'qituvchi har bir bosqichda o'quvchining bilimlarini malakalarini o'zlashtirish haqida axborot olib turadi, yangi material avvalgi metrialni o'zlashtirishga qarab taqdim etiladi.

Nazorat savollari

1. O'quv faoliyati va uning elementlari nimalardan iborat?
2. Ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish: nimaga bog'liq?.
3. O'qish motivlari va motivatsiyaga izoh bering.
4. O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalariga nimalar qiradi?
5. Bilimlaryai o'zlashtirish jarayonya va uning psixologik komponentlari nimalardan iborat?
6. Ta'lim faoliyatiga ko'ra ta'limniyag qanday metodlarini bilasiz?
7. Ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonida qanday shakllantiriladi?
8. O'quv faoliyatini boshqarish deganda nimani tushunasiz?

7-MAVZU: TARBIYA PSIXOLOGIYASI: MAQSADI, VOSITALARI VA METODLARI.

Reja:

1. Tarbiyaning nazariy masalalari.
2. Tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jabhalari.
3. Oila va tarbiya.

O'quvchilarni individual munosabatda bo'lish orqali o'rganib boriladi. Individual munosabat – o'quvchiga ta'sir etish yo'li bo'lib, o'quvchini o'rganishdagi

dastlabki bosqichlardan biri xisoblanadi. O'qituvchi bolalar kollektivida har bir o'quvchining xulq-atvorini, qiziqishini, qobiliyatini, bilimini, gayratini, xarakterini xisobga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini olib boradi.

Maktabda o'quvchilar uchun xulq va maktab koidalari bir xil bulsa ham, uning ijrosi turli o'quvchida turlichadir. Bu narsa har bir o'quvchining o'ziga xos xsusiyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'quvchilarga salbiy xollarda, ko'pincha tezchora ko'rishni talab qilish lozim bo'lgandagina individual munosabatdabo'lish bilan chegaralanish noto'g'ridir. Masalan, o'quvchi T. ga berilgan xarakteristikada «T. juda qobiliyatli kiz. Kolektivning faol a'zosi. Sinfda katta obro'ga ega» deyiladi. Bu fikrgasoslanganda, bu o'quvchiga individual munosabatdabo'lish talab qilinmas edi. T. ga berilgan xarakteristikada Yana shunday fikrlarni o'qiymiz: «xarakter jihatdan u o'zini katta tutuvchi, injik, gap kutara olmaydigan kiz. O'z maksatiga erishishda hech narsadan tortinmaydi». Bundan ma'lumki, bu «alochi» o'quvchi bilan albata individual munosabatda bo'lish lozimdir.

Ba'zan o'quvchilarga individual munosabatni har bir bolani chuqurroq o'rganish, tushunish bilangina sheklab qo'yadilar-da, bu sohadagi ishni davom etirmaydilar. Individual munosabatning bunday chegaralanishi uning ta'sirchanligini, amaliyligini yukotib qo'yadi.

Pedagog bolalarni o'rganishda hech kachon pedagogik maqsadni unutmasligi kerak. O'quvchini o'rganishda tarbiyaga asos buluvchi yaxshi xsusiyatlarni va qayta tarbiyalash talab etiladigan salbiy xsusiyatlar bilan birga, ijobiy tomonlarni ham topish kerak.

O'quvchi – kamol topib boruvchi, eng avallo, ta'lim-tarbiya ta'siri ostida shaxs sifatida voyaga etuvchi odamdir.

Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarning yaxshi-yomon tomonlarini biladi, ular uchun nimalar kiyin ekanligini puyqaydi, bu kiyinchiliklarning oldini oladi va kimlarga yordamlashish zarur bulsa, ushalarga kumak beradi. Bunday o'qituvchi g'oyat darajada xayajonli, serharakat bolalarni tinchlantiradi, uyatchan,

tortinchoklarni ma'qo'llaydi faol, iste'dodli bolalarga yana ish beradi, dangasalarni «harakatga solishga» urunadi, qobiliyatsizlarga qo'shimcha yordam ko'rsatadi.

O'qish yoki mehnat natijalariga baho qo'yishda barcha uchun yagona me'yor bulsa-da, ayrim holda o'quvchilarning individual xsusiyati nazarda tutilib, bu muhim koidadan shekinishga ruxsat etiladi. Individual munosabat murakkab va ko'p irralli protsessdir. Individual munosabat o'quvchini har tomonlama bilishda foydalanadi. O'quvchini o'rganishda unga nisbatan hamma vaqt odillik bilan ish ko'rish kerak. Odillik – o'qituvchi shaxsining muxzim xarakter xislati bo'lib, o'quvchilar buni juda kadirleydilar. Maktab o'quvchilari (ayniqsa, o'smir va uspirinlar) o'z bilimlari va xatti-harakatlariga baho berishda xakkoniyatsizlik qilgan o'qituvchisini hech kachon kechirmaydilar. Ularning fikricha, xakkoniyatsiz o'qituvchi eng yomon o'qituvchidir.

O'quvchitni uning kelajagini oldindan ko'ra bilgan, unga ishongan holda o'rganish kerak. O'qituvchida: «Agar o'quvchidabugun yomon tomonlar ko'p bulsa, ertaga albata yaxshi tomonlari ortib boradi», degan umid bo'lishi lozim. O'quvchining kuchiga ishonish, unda, kichkinabulsa ham, yaxshi xislat borligini bilish asosida uning shaxsini tarkib toptirish individual munosabatning eng yaxshi tomonidir. Xuddi shunday munosabatni biz yuqorida F.N.Gonobolin keltirgan misolda yakkol ko'ramiz.

O'quvchilarga individualmunosabatda bo'lishda o'qituvchining olidida asosan quyidagi vazifalar turadi: ***Har bir o'quvchini, uning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini yaxshi bilish.***

O'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish metodlarini va usullarini tallashda va ularni tadbiq etishda o'quvchilarning individual xsusiyatlarini xisobga olish, bu erda pedagogik tadbirlar hamda o'quvchilarga bir me'yorda qo'llanilishga aloxida e'tibor berish.

O'quvchilar bilan to'g'ri pedagogik muomalada bo'lish uchun qanday munosabat o'quvchida qanday oqibatlarni keltirib chiqarishni oldindan bilish.

Shaxs odam ishtiroq etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimsining ta'siri ostida va unda o'zi bajaradigan faoliyat ta'sirida tarkib topadi.

Ijtimoiy muhitning, jamoaning shaxsga ta'siri to'g'risida gapirilar ekan, sotsial psixologiya ishlab chiqayotgan referent guruh tushunchasiga asoslanish zarur. Gap shundaki, hamma odamlar ham, hatto eng yaqin tevarak-atrofdagi odamlar ham maktab o'quvchisining shaxsiga ta'sir qilavermaydi, ko'plarning fikrlariga u befarq karaydi. Xar bir odam uchun bo'lganidek, har bir maktab o'quvchisi uchun ham ayrim guruhlar (ba'zang bunday guruh bir kishidan tarkib topgan bo'lishi mumkin) mavjud bo'ladi, u shaxs sifatida bu guruhning fikrlari, o'zi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan mulohazalari bilan xisoblashadi.

Oila, sinf, sinefdagi ayrim o'quvchilar, ba'zi o'qituvchilar, xovlidagi ulfatlar, yaqin dust va xokazolar muayyan maktab o'quvchisi uchun ana shunday referent guruhlar bo'lishi mumkin. Maktab o'quvchisining tez-tez uchrab turadigan tirbiyaviy ta'sirlarga befarq yoki hatto salbiy munosabatda bo'lish xollarida ko'pincha o'quvchining tarbiyachiga ma'lum bo'lgan referent guruh pozitsiyasilaturishi sabab bo'ladi. A.V.Petrovskiyning oqilona fikriga ko'ra, agar tarbiyachi, maktab uo'quvchsisi hech narsa va hech kim bilan xisoblashmaydi, uning uchun hech qanday obro'li odamlar yuk, unga hech kim ta'sir qila olmaydi, deb davo qiladigan bulsa, bu narsa odatdatarbiyachining maktab o'quvchisining axloqiy poeziyasining belgilab beradigan ta'sirli referent guruhlardan mutlako xabarsiz eknligini bildiradi.

Psixologlar tarbiyaviy ish metodlarining psixologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiyaning har qanday metodiga abstrakt tarzda qarab va uni baholab bo'lmaydi, degan fikrga asoslanadilar.

Shaxsning ijobiyt yo'nalishini tarkib toptirish uchun, maktab o'quvchisiningn barcha vaziyat va holatlarda to'g'ri yo'l to'tishni istashi hamda to'g'ri yo'l to'tishi uchun uning nima qilishni bilishi, o'zi xurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganlarini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishni mashq qilish (bu – eng muhimi) zarur.

Bilimlar – axloqiy tasavvurlar va tushunchalarning muayyan tizimsini egallamasdan turib haqiqiy e'tikodlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. O'z-o'zidan bu

bilimlar axloqiy xulq-atvorni belgilamasdan turib, unga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi.

Axloqiy ongni tarkib toptirishning eng muhim yo'li o'quvchilarning o'zlarida to'g'ri xulq-atvorni yuzaga keltirish bilan axloqiy tajribani boyitish va umumlashtirish yo'lidir, albata. O'quvchilardagi axloqiy bilimning turli-tuman formalari, ularning ongi va xis-tuygulariga jonli, yorqin otashin so'zning (tarbiyachilar, maktab kutubxonalaridan tomonidan uyushtirilgan individual va kollektiv etik suhbatlari, ma'ruzalar, munozaralar, kitobxonlar konferentsiyalarining) ta'siri bu ishni ancha tuldirishi mumkin .

Hatto faol ta'sir ko'rsatishning ajoyib ustasi bo'lgan A.S. Makarenko ham axloqiy (etik) suhbatlarning chinakam tarafdori edi. Uning o'zi nazariy axloqiy turdagi suhbatlarning konspektini yozar, ularda eng yaxshi axloqiy nazariyaning eng katta samaralarining ko'rar edi.

Muayyan tamoyillar ishlab chiqilgan bo'lib, axloqqa doir suhbatlar usha tamoyillar asosida tuzilishi kerak.

Bu prinsiplar quyidagilardir:

1. Axloqqa doir suhbatlar mazmuni jihatidan tegishli yoshdagilarga tushunarli bo'lishi lozim. Mavxum va abstrakt tushunchalar, murakkab mulohazalar bilan toliktirib qo'yishga yo'l quyib bo'lmaydi.

2. Odatda, suhbat o'tkaziladigan kollektivni, uning yo'nalishini, bu kollektiv a'zolarining o'zaro munosabatlarini, o'qituvchiga, o'qish va boshqalarga munosabatini yaxshi bilish zarur.

3. Bunday suhbatlarni nihoyatda tez-tez o'tkazibyu turmaslik darkor. Agar suhbatlar konkret sabablar bilan, mamlakat yoki kollektiv hayotidagi biror voqeaga, masalan oktabr, revolyutsianing, katnashuvchilari bilan, kaxramonlar bilan uchurashuvlarga, Yangi kitob yoki kinofilm chiqqanligiga, maktab hayotida yuz bergan biror ijobiy yoki salbiy voqeaga tugirlab o'tkazils, juda yaxshi natija beradi.

4. Suhbatni erkin, yaxshilab tanlab olingan konkret misollarni, hayotiy voqealar yoki adabiy asarlardagi faktlarni hamda kuzatishlarni tahlil qilishdan boshlab, umumlashtirish hamda xulosalar chiqarishga o'tish tavsiya etiladi.

5. Emotsional tarzda keltirilgan, erkin va ta'sirchan obrazga oqilona tayanish (nafis san'atdan, adabiyot asarlaridan foydalanish, kinofilmlar yoki teatr asarlariga kollektiv bo'lib borish yoxud ularni kollektiv bo'lib eslash) zarur.

6. O'quvchilarning ongiga singdiriladigan koidalarning yaxshilab asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushunib olishga va buning oqibatida dalil qabul qilishga, uning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga, uning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga, oqilona isbotlarga rozi bo'lishga kadir bo'lgan o'smirlar va katta maktab yoshidagi o'quvchilar Bilan suhbat o'tkazish paytida juda muhimdir.

7. O'quvchilarda maksimal oktivlik uyg'otish, jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, ularning fikrin avj oldirish va o'zlarini axloq masalalari ustida uylab ko'rishga majbur qilish zarur. O'quvchilarga tayyor haqiqatni zo'rlab qabul qildirish yaramaydi, axloq normalari haqidagi xulosalarini ularning faol ishtiroqida (amo o'qituvchining rahbarligida) chiqartirish kerak. Buning uchun suhbat jarayonida mux'okamaga qo'yilishi kerak bo'lgan masalalarni oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi.

8. O'quvchilarda chuqur va ta'sirchan amotsyalarini uyxotishga intilish lozim. Bunda o'qituvchi suhbatni befarq va shavk-zavksiz emas, balki emotsional tarzda jonli qilib o'tkazganidagina erishish mumkin. O'qituvchi o'zining extirosli e'tikodi o'smirlarga yukushini unutmazligi darkor.

Tarbiyachilarning shaxsiy namunasi (shu jumladan, o'qituvchilarning shaxsiy namunasi) o'quvchi shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi ko'pincha o'qituvchiga taqlid qilib, unga uxshahga harakat qiladi, lekin birinchidan, buni ko'pincha tushunib etmasdan qiladi, ikkinchidan, o'qituvchining tashqi kurinishi va qiliklaria taqlid qiladi, chunki u xali shaxsning namoyon bo'lishini tahlil qilishga va shaxsning barqaror xislatlarini anglab etishga kadir emas.

O'smir va katta maktab yoshidagi o'quvchi ko'pchilik xollarda namunaga ongli ravishda taqlid qiladilar. O'smir o'zini katta deb xisoblay loshlaganda e'tiboran ktalarning xatti-harakatilari va ishlariga taqlid kikishga intiladi. Shuning uchun unda

tevarak-atrofdagi kishilarning, ayniqsa o'ziga eng yaqin va o'zi uchun eng obro'li kishilarning xatti-harakatlariga qiziqish hamda e'tibor berish yuzaga keladi. O'qituvchi qanchalik obro'li bulsa, uning e'tikodi, bilimlari, fikrlari, didi o'quvchilarga shunchalik ko'p ta'sir qiladigan bo'ladi.

O'qituvchilar va ota-onalar bazan tarbiyaviy ishlarda o'zlarining shaxsan namuna ko'rsatishlarining ta'siriga etarlicha baho bermaydilar. Xolbuki, ularning qilayotganishlari, o'zlarini qanday to'tishlari ularning aytgan gaplariga, urgatgan narsalariga qaraganda kamroq emas, balki ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

A.S.Makarenko ta'kidlab o'tgan ediki, bu jihatdan odam xulq-atvorining hamma tomonlari, hatto odamning qanday o'quvonishi va xafa bo'lishi, uning dustlari hamda dushmanlari bilan qanday munosabatda bo'lishi, uning boshqa kishilar bilan gaplashishi va boshqalar to'g'risida qanday gapirishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi xulq-atvorining o'z so'zlariga zid kelishi xollari ham tarbiya uchun juda zararlidir. Agar o'quvchi bunday xolni bir necha marta, uning ustiga, har xil kishilarda kuzatiladigan bulsa, unda ikki yuzlamalik tarbiyalanadi.

Agar o'quvchi axloqiy jihatdan xali barqaror bo'lmasa (juda ko'p xollardashunday bo'ladi) yoki bunga uxshash namunalarni u bir necha marta qabul qilgan bulsa. Unda uning xulq-atvori usha namunalarga muvofiq tarzda yomon tomonga o'zgarishi mumkin.

Tabiyki, hamma o'qituvchilar va ota-onalarning kamchiliklaribo'lmasligini hamda o'z xatti-harakatlarida xatolarga yo'l kuymasliklarini kutib utirish yaramaydi. Amo o'quvchilar oldida bunday kamchiliklarni ko'rsatmaslikni talab etish mumkin va kerak. Agar shunga uxshash xoll barii bir yuz bersa, yaxshisi o'zining noxaqligini qo'lay va nazokatli bir tarzda (bu – zaruriy shart) buyinga olish kerak. Ko'pchilik tarbiyachilar oldida buyinga olish ularning ko'z ungida o'z obro'sini yukotish demakdir, deb xisoblab, xato qiladilar. Eng yaxshisi xatoga yo'l kuymagan ma'qo'l, agar xatoga yo'l qo'yilgan bulsa, ikkinchi xatoni takrorlab utirish: ujarlik bilan o'zining gunoxsizligiga ishontirishga yoki o'z xatti-harakatini oklashga intilish yaramaydi. Bunday qilish chindan ham oruni tukadi.

O'z xatosini oqilona va nazokatli bir tarzda ochiqdan-ochiq tan olish esa (agar shu kishi tajribasida bunda xatolar kamdan-kam uchiragan xollarda) tabiyatchining obro'yiga putur etkazmaydi, salbiy namuna esa o'z kuchini yukotadi. O'smirlarda o'z aybi yoki xatosini mardlik bilan vijdondan va to'g'ridan-tugir tan olgan katta kishiga nisbatan xurmat kuchayib ketadi.

To'g'ri xatti-harakatlarda Amaliy tajribani uyishtirish, yuqorida ta'kidlab utilganidek, shaxsni tarbiyalashda, asosiy omildir. Tarbiyachi o'quvchilarda xatti-harakatlarning shunday forma va usullarini tarkib toptirmogi kerakki, bu forma va usullarida tarbiyaning xal qiluvchi ta'sir ostida yuzaga keladigan o'quvchi e'tikodlari amalga oshsin. Xatti-harakatlarning aytib utilgan formalari motivlarini, o'quvchining ehtiyoj va munosabatlarini «moddiylashtirish» ifodasi, vositasi, formasiga aylanib kolgandagina barqaror omilga aylanib mustahkamlanadi.

Avvalo gap bir xil ishlarning o'zini yoki o'z xarakteriga ko'ra bir xil bo'lgan ishlarni ko'p martalab shunchaki bajarish to'g'risida bormaydi. Axir, bu holda xatti-harakatlarida shablon, stereotip, turli vaziyatlarda to'g'ri ish tuta olmaslik hosilbulur edi. Mashq qilish – bu turli variantlardagi xatti-harakatlarni aslida bir-biriga uxshash vaziyatlarda uyushgan va muayyan maqsadni ko'zlagan holda takrorlashdir. Faqat ana shunday qilingandagina xatti-harakatlarning barqaror va Ayni vaqti umumlashgan formalari tarkib topadi. Sun'iy mashqlar emas, o'quvchi hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlari nazarda tutiladi, albata.

Nihoyat, tarbiyachi mashq qiladigan qo'lay payt kelishini kutib utirmaydi, balki uning o'zi ana shunday sharoit yaratadi, o'quvchilar oldiga Amaliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar, muayyan talabalar qo'yadi.

Odamning yo'nalishi, e'tikodlari amalga oshiriladigan xatti-harakatlarning mustahkamlangan va umumlashgan usullari bo'lgan baxs xislatlari va xsusiyatlarning tarkib topishi mashq qilish jarayonida xali shaxsning xsusiyatlarga aylanmagan psixik holatlarning tarkib topishi bosqichini bosib o'tadi, chunki u muvakkat hamda vaziyatli xarakterga ega bo'ladi. Psixik holatlar – muayyan vaqt ichidagi psixik kurinish va xatti-harakatlarning yaxlit bir xarakteristikasidir ular yuzaga kelgan o'ziga xos oralik narsalardir. Shaxsning psixik xsusiyatlariga o'tish

xuddi ana shu psixik holatlar orqali amalga oshiriladi. Agar psixik holatlar tez-tez takrorlansa, u mustahkamlanishi va shaxsning xislatigaylanib qolishi mumkin. Xarakterni tarbiyalash uchun dastlab bolaning bir necha marta hech bo'lmaganda kat'iylikning muvakkat holatini boshdan kechirishiga erishish zarur.

Xo'sh, xulq-atvor qanday to'zatiladi? Ma'qo'llash va koralash, rag'batlantirish hamda jazolash o'z o'quvchining xulq-atvorini boshqarish va to'zatishtning haqiqiy vositalaridir. Maqullash, rag'batlantirish xatti-harakatlarining to'g'ri motivlari vat ugri formalarini mustahkamlash hamda rag'batlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Qarorlash, jazolash xatti-harakatlardagi salbiy ko'zgalishlarni hamda noto'g'ri formalari turmozlab turish vositasidir.

Maktab o'quvchilarning ishlariga berilgan ijobiy baho, uning xatti-harakatlarini qo'llab-o'quvvatlash maqo'llashning har xil turlari (ogzaki rag'batlantirish, maktab, minnadorchilik bildirish, maktab radio axboroti, devoriy gazetadagi makola, ota-onalarga yuborilgan va xokozalar) o'quvchida ijobiy emoyiyalar, qilingan ishdan o'quvonchli kanotlanish xissini paydo qiladi va bundan quyin ham ana shunday qilishistagini keltirib chiqaradi.

Tanbeh berish, koralash o'quvchidagi noxush kechilmalarni, boshqa kishilarga, kollektivga etkazilgan jazodan norozi bo'lish, kattalar va kollektivni xafa qilganlikdan ranjish hislariga sabab bo'ladi. Buning natijasda o'quvchida bundan keyin ana shunday ishlardan o'zini tiyishga intilish istagi paydo bo'ladi.

Rag'batlantirish va jazolash tizimsini qo'llanshdagi xatolar shaxsni tarbiyalash jarayonida zararli aks etadi.

O'smirlik yoshidan boshlab, tarbiyaning Yangi omili – o'z-o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlaridan ijtimoiy kimatga ega bo'lgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvoridagi kamchiliklarga salbiy xislat va sifatarga barham berish sohasida ongli ravishda muntazam ishlay boshlaydilar.

Odam yuksak darajada o'z-o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan-bir tizimdir, - degan edi I.P.Pavlov. Shaxsning katta ta'sirlari bilan tarakkiy etishi, uni tashkardan manaviy psixologik – etuklikning muayyan darajasida idora qilish, ichki idora qilish, o'z-o'zini idora qilish bilan tuldirila boshlaydi. O'smir,

yigit kizning o'z-o'zini tarbiyalashga intilishi (agar to'g'ri tashkil etilgan va jamiyat tomonidan ragbatlantirilgan bulsa) kollektivdan ajralish, undan o'zini ustun qo'yish istagini emas, balki o'z burchini yaxshilab bajarish, kollektivning munosib azosi bo'lish istagini takoza etadi.

O'z-o'zini tarbiyalashning bunday usuli maktab tarbiyasiga qarshi qo'yilmaydi, balki uni tuldirib boradi. O'quvchii, tarbiyachi o'quvchilarning o'z-o'zidan tarbiyalashiga rahbarlik qilishda to'rta vaziyatni ko'zda to'tishi kerak. Birinchi vazifa-o'quvchida o'zida shaxsning ijobiy xislatlarini tarkkiy etirishiga va o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xolos bo'lishga intilishi uyg'otish istagini (yoki qo'llab- quvvatlash) dir.

Agar bunday istak hali bo'lmasa, uning o'z-o'zidan yuzaga kelishini kutib o'tirmaslik bunday istakni odam o'z xarakterini o'zi yuzaga keltirishini va uning uchun javob berishini ishonarli tarzda ko'rsatib, bazi kishilarning o'z-o'zini tarbiyalashda qanday yutuqlarga erishganliklarini aytib berishi kerak. Tarbiyalashva o'z-o'zini tarbiyalash imkoniyatlariga ishonmaslik o'smirlar, yigit va qizlarning bir kesmiga mos xususiyat bo'lib (yuqorida ko'rsatib o'tilgandek) u xususiyat ma'lum darajada passivlikka sabab bo'ladi.

Ana shuundan **ikkinchi** vazifa-o'quvchiga o'z shaxsiga tanqidiy munosabata bo'lishda, o'z xulq atvoridagi xususiyatlarni diqqat bilan va odilona tushuntirib olishda, o'z kamchiliklarini yakkol ko'rishda, o'z nuksonlarini faxmlab olishda yordamlashish vazifasi kelib chiqadi. O'z-o'ziga baho berish, bu bahoning obektivligi yoki subektivligi shaxsning trkib topishi jarayonida muhim rol uynaydi.

Uchinchidan, o'qituvchi tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalash dastursini to'zishda, shaxs xulq-atvori hislatining qaysi xususiyatlarini (masalan, o'zini ushlay bilish, qat'iylik shuning singlarlarni) taraqqiy etish, qaysilariga (masalan, o'jarlik, yalqovlik, qo'pollikka) barham berish keraqligini belgilab, hamda har xil qilib olishda o'quvchiga yordam beradilar.

Nihoyat, turtinchi vazifa – o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, o'quvchini shaxsning ijobiy xislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklarga barham berishga oid eng maqsadga muvofiq va samarali

ishlash usullari bilan qurollantiradilar. O'quvchining shaxsning real tusiklarga barham berish jarayonida, kundalik mehnat, o'qish, jamoat ishida, hayotiy, hatto kundalik kiyinchiliklarga qarshi ko'rashda tarkib topishga ishonitirish lozim.

Agar o'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilar jamoaning rahbarligi va nazorati ostida amalga oshirilsa, juda yaxshi natija beradi. Agar jamoaning o'z-o'zi o'z a'zosiga kat'iy talablar qo'ysa va ularning bajarilishini muntazam ravishda nazorat qilib tursa, bu xoll o'quvchining o'z ustida ishlashga nihoyatda ragbatlantirib yuboradi.

Jamoa va uning tarbiyaviy ta'siri

Malumki, yuksak goyaviy yo'nalishga ega bo'lgan, umumiy maqsad, harakatlarning birbiriga mosligi va uyushkokligi bilan birlashgan bir butun, nihoyatda hamjihat, soglom hamda muayyan maqsadni ko'zlovchi jamoani uyushtirish orqali tarbiyalash, tarbiya beruvchining asosiy prinyiplaridan biridir. Bunday jamoa tarbiyachining tayanchi, yordamchisi, tarbiyaviy ta'sirining kudratli qurolidir.

O'quvchi faqat jamoada va jamoa ta'siri ostida jamoa o'zaro birdamlik munosabatlar tajribasini, ijtimoiy yo'nalishni tarakkiy etirish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi to'g'ri munosabatlar tajribasini egallaydi. Jamoadan tashqaridabunday sifatlarni umuman tarbiyalab bo'lmaydi.

Jamoa o'z a'zolariga ta'sir ko'rsatadi, ulardan muayyan xulq-atvorni talab etadi. Jamoaning soglom va obro'li jamoatchilik fikri kuchi nihoyatda kattadir. Jamoaning ma'qo'llashi yoki koralashi, jamoaning soglom ta'nkidi, o'z a'zolari oldiga qo'yadigan ta'sirli va jiddiy talablari shaxsni tarkib toptiruvchi, nazorat qiluvchi va to'zatuvchi muhim omildir.

O'qituvchining jamoa qo'llab o'quvatlaydigan talablaridan jamoa o'z a'zolariga mustaqil ravishda hamda o'z tashabusi bilan talablar qo'yishga va ularning bajarilishining kontrol qilishga uta olish, o'qituvchining bevosita pedagoglik ta'siridan jamoa orqali bevosita ta'sir ko'rsatishiga o'tish kerak. A.S.Makarenkoning paralell tarzda ta'sir ko'rsatuvchi yuksak goyaviy va talabchan jamoani uyushtirish orqali shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Jamoaning jipslashuvi o'quvchilar uchun ular faoliyatiga ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan qiziqarli faoliyat turini tanlab olishga, hamda o'zaro rahbarlik qilish va buysinishning qiziqarli tizimsini tashkil etishga imkon beradi. Jamoaning tashkil topishi va jipslashuvi odatda faolni tashkil etish hamda jipslashtirishdan va uning obro'yini mustahkamlashdan boshlanadi.

O'z ijtimoiy burchlarini vijdonan bajarish, yuksak tamoyiliellik, jamoamizni chuqur xis etish – o'quvchini obro'li qiladi va unga o'z urtoklariga ta'sir ko'rsatish, ularga vazifalar va burslarga bo'lgan o'z munosabatlarini yuqtirish imkonini beradi.

Ana shundan jamoaning faqat jipslashgan, inoq jamoa bo'lishigina emas, balki goyaviy yo'nalishga, soglom jamoat fikriga, tanki dva o'z-o'zini tankidga, jamoaning har bir a'zosiga nisbatan yuksak talabchanlikka ham ega bo'lgan jamoa bo'lishiga erishishdan iborat ikkinchi vazifa kelib chiqadi. Agar jamoa oldiga ijtimoiy foydali va Ayni vaqtda qiziqarli maqsad qo'yiladigan bulsa, ana shunday sifatlar tarkib topishi mumkin. qiziqarli maqsad qo'yish juda muhimdir, chunki o'smirlar va ayniqsa kichik maktab yoshidagi bolalar bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganligi uchungina unga hamisha ham qiziqavermaydilar.

«Soglom ijtimoiy fikrga, o'z a'zolariga nisbatan rivoj topgan tankid va talabchanlikka ega bo'lgan jipslashgan, inoq goyaviy yo'nalishga ega bo'lgan jamoa o'z a'zolariga ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'ladi hamda ularga to'g'ri yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Ama buning o'zi kamlik qiladi. Ana shundan bunday jamoada ta'sir ko'rsatishning to'g'ri formalarini qo'lana olish, individual yondashish, nazokat usulini qo'llani xislatlarini tarkib toptirishdan iborat uchunchi vazifa kelib chiqadi.

To'g'ri barcha xollarda o'qituvchining jamoa ishiga aralashish va uni kuzatish xuquqi saqlanib qoladi, shunday bulsa ham, jamoa ta'sir ko'rsatishining to'g'ri formalarini tanlay olishga erishish kerak. O'smirlar va katta maktab yoshidagi o'quvchilar esa nihoyatda ixtirochi bo'lib tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning g'oyat samarali formalarining topishlari mumkin.

Mehnatning tarbiyaviy ta'siri to'g'risida yuqorida to'xtalib utilgan edi. Bu bulimda biz mehnatga tarbiya vositasiga vositasi va kishisi shaxsini tarkib toptirishining asosiy yo'llaridan biridir. Sifatida umumiy xarakteristika berishga

harakat qilamiz. A.S.Makorenko bu fikrni aniq va roвшan formada quyidagicha qilib ifodalab bergan edi: *«To'g'ri tarbiyasini mehnat vositasiz tarbiyalish sifatida tasavvur etib bo'lmaydi... Shuning uchun tarbiyaviy ishda ham mehnat eng asosiy elementlardan biri bo'lishi kerak».*

Maktabdagi mehnat tarbiyasi tajribasi, pedagogik psixologik tadqiqotlarga doir matiriallar mehnatni haqiqatdan ham tarbiya omiliga aylantiradigan quyidagi sharoitlarni ifodalab berish imkonini yaratadi.

1. O'quvchilar mehnati ijtimoiy foydali mehnat bo'lishi kerak. O'quvchi o'z mehnatining muayyan ijtimoiy kimatga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, kishilarga, jamoaga, jamiyatga foyda keltirishni anglab olishi lozim.

2. Muayyan ijtimoiy kimatga ega bo'lgan foydali maxsulot mehnat natijasi bo'lishi, o'quvchi o'z mehnatining real samaralarini yakkot va aniq ko'rishi lozim. Shu munomabat bilan o'quvchini o'z mehnati natijalarining ijtimoiy vazifasi Bilan mufassal tanishtirish, o'quvchiga uning mehnati kimga keraqligini ko'rsatish juda mo'zim. Agar o'quvchilar o'z ishlarining foyda keltirayotganligini ko'rmasalar, ularda mehnat qilishga bo'lgan har qanday istak yuqoladi, ular zo'rma-zo'rakiylik bilan ishlaydilar. Bunday ish esa mukarrar ravishda zerikishga, lokaylikka, salbiy munosabatga sabab bo'ladi.

3. O'quvchilarning mehnati jamoa mehnati bulmogi kerak. Jamoa mehnat shunchaki birgalikda ishlashning, bir bino ichida, bir vaqtda ishlashni bildirmaydi. Jamoa mehnat – umumiy mehnat vazifalarini birgalikda bajaradigan umumiy maqsad, umumiy vazifalar Bilan birlashib qilinadigan mehnatdir. Faqat ana shunday mehnatgina kishining o'z xatti-harakatlarini jamoa irodasiga buysindira olish, o'z xatti-harakatlarini jamoa manfatlari nuqtai nazaridan boshqara olish xislatlarini tarbiyalaydi.

4. O'quvchilarning mehnati tashabuskor va ijobiy mehnat bo'lishi kerak. Ana shunda mehnat ishining ijodiy tomoniga qiziqadigan, shunchaki biror foydali ish qilishga emas, balki yangilikka, o'z tashabusini nomoyon qilish imkoniyatlarini kidirishga intiladigan o'smirlari katta maktab yoshidagi o'quvchilarning yosh psixologik xsusiyatlariga mos bo'ladi. Mehnat qanchalik ko'p intilektual kuch

xayrat sarflashni talab etsa, o'quvchilar unga shunchalik ko'p tayyorgarlik ko'radilar. Bunda shunga erishish kerakki, o'quvchilarning o'zlari mehnat vazifalarini xal qilishning eng yaxshi usullarini kidirib topsinlar, o'zlari (o'qituvchi rahbarligi ostida) o'z faoliyatlarini rejalashtirsinlar.

5. Imkoni bo'lgan joylarda mehnatda (ayniqsa o'smirlar va katta maktab yoshidagi o'quvchilar mehnatida o'z-o'zini uyushtirish va mustaqil mehnat qilishning har xil formalari qo'llanishi kerak. Gap faqat o'quvchilarning tashkilotchilik malakalarini (garchi bu joyda muxm bulsa ham) hosil qilinishlaridagina emas, balki o'z-o'zini uyushtirishning mustaqillikni rahbarlik qili shva buysinish malakalarini, ijodiy tashabusini, masuliyat hamda jamoa xislatlarini tarakkiy etirishga yordam berishda hamdir.

6. O'quvchilarning mehnati ularning o'zlari uchun qiziqarli bo'lishi lozim. O'quvchilarning hayotida ularning shaxsiy qiziqishlari qanchalik katta urin to'tishi va qiziqishlarini o'quvchilar faoliyatlarini qanday rrag'batlantirishlari yuqorida ta'kidlab utilgan edi. O'quvchilarning, ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilarning faoliyati hamisha ham bu faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglashga asoslanavermaydi.

7. O'quvchilarning mehnati ularning kuchiga yarasha mehnat bo'lishi kerak. Bu mehnat o'quvchilarni xaddan tashqari ko'p kuch sarflashga, juda tolikib qolishga olib bormasligi lozim agar mehnat kuchga yarasha bo'lmasa, u psixikaga katik ta'sir qiladi, o'quvchi o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yukotadi, ko'pincha umuman hatto kuchi etadigan ishni bajarishdan ham buyin tovlaydi, chunki uni o'ziga ishonchsizlik xisi ta'kib qiladigan bo'lib qoladi.

8. Imkoni bo'lgan joylarda o'quvchilarning mehnatini ularning o'quv faoliyati bilan boglash kerak. O'quvchilarning nazariy bilimlari bilan Amaliy mehnat faoliyatlarini (har xil qishloq xo'jalik ishlarida, maktab yonidagi uchastkada, sport maydonchasi kurilishi va x.k ishlarida) uzviy ravishda shunday o'zaro boglash zarurki, bunda ularning mehnati biologiya, ximya, fizika, geometriyani bilishni, chizmalar chizish hamda ularni tushunib ola bilishni talab etsin.

9. O'quvchilarni mehnat bilan mutlaqo yo'l quyib bo'lmaydi. Mehnatda tarbiyalash zarur, biroq mehnat bilan jazolash yaramaydi, aks holda, o'quvchilar ongida mehnat noxush kechinmalar bilan assotsitsiyalanadi (bog'lanadi) va bolalarda mehnatga nisbatan salbiy munosabat mukarrar ravishda yo'zaga keladi. Mehnat o'quvchi uchun majburiy, noxush mehnat bo'lmagan vaqtdagina o'quvchini tarbiyalaydi.

10. Nihoyat, o'quvchidan ishni shunchaki bajarishni emas, puxta, vijdonan bajarishni, asbob – uskunalariga, materiallarga, mehnat qurollariga ehtiyotkorlik munosabatida bo'lishni talab etish zarur.

Agar yuqorida ko'rsatib utilgan barcha shartlarga rioya qilinsa, mehnat o'quvchilar uchun juda qiziqarli faoliyatga aylanadi. Ularda zo'r ma'naviy qoniqish hissini uyg'otadi. Bunday mehnatda ular to'g'ri ijtimoiy xatti-harakatlarning Amaliy tajribasini ortiradilar.

Tarbiyada individual yondoshishning psixologik asoslari.

Tarbiyachi kator individual – psixologik xsusiyatlarga ega bo'lib. Tarakkiy etib borayotgan konkret shaxs bilan shugillanadi. Bir o'quvchiga nisbatan muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan tarbiyaviy tadbirlarni boka o'quvchiga nisbatan qo'llagan vaqtda kutilgan samarani bermasligi ham xuddi ana shu bilan izzohlanadi. Shuning uchun umumiy tarbiyaviy tadbirlar individual yondoshish bilan tuldirilishi lozim. Individual yondoshish va jamoada jamoa orqali tarbiyalash bir-biriga zit bo'lmaydi. Individual yondoshish – bu «kush pedagogik» yakka, individual tarbiya emas, shu bilan birga « har bir tarbiyalanuvchi bilan va aloxida shugullanish» emas(A.S.Makarenko).

Individual yondoshishda tarbiyachining o'quvchilarga nisbatan gamxorligi va nazokati, o'z xatti-harakatlarining psixologik oqibatlarini oldindan ko'ra olishi nazarda tutilgan. Individual yondoshish o'quvchi shaxsining xsusiyatlariga va uning muayyan vaqtdagi psixik holatiga ko'proq mos keladigan tarbiyaviy tadbirlarning tanlashni va amalga oshirishni talab etadi. Ana shunda bku tadbirlar maksimal darajada Samara beradi.

Individual yondoshishda, birinchi novbatda, shaxsda biror xislatning tarkib topishga ta'sir etadigan individual maxsus sharoitlarni bili shva xisobga olish nazarda tutiladi. Shaxsning biror namoyon bo'lish tabiyatini tushungan taqdiridagina uni to'g'ri tushunish mumkinligi uchun ham bu xolni bilish lozim. Masalan, tarbiyachi o'smirning ujarligiga barham berishni maqsad qilib oldi deylik. Avvalo tushunish, tushunganda ham to'g'ri tushunish uchun bu ujrlikning tabiati qandayligini, uning sababini, qanday harakaterda ekanligini bilib olish kerak. Turli tabiatdagi ujarlikni tushunib olish turlicha bo'lishi kerak.

O'quvchilarning (ayniqsa o'smirlarning) xatti-harakatlarida tarqalgan boshqa kamchilik ko'pollik, kurslik, surbetlik, kattalarni xurmat qilmaslikdir. O'quvchilarda ko'pollik va surbetlik ko'pincha o'zlariga nisbatan kattalarning adolatsiz munosabatiga – yolg'onchilik, nojoya xatti-harakat, yalkovlik, ko'pollik bilan asossiz ayiblashga javoban yuzaga keladi.

Ko'pincha o'qituvchilar o'smir yoshidagi ugil bolalarning intizomsizligidan, shuxligidan noliydilar. O'smirlarning zo'r faolligi, jushib to'rgan kuch gayrati, tashabusi ko'pincha oqilona yo'l topa olmaydi, tupolonchilikda, shuxlikda, intizomni bo'zishda nomoyon bo'ladi. O'rtoqlarning yomon namunasi, ishlamay bekor yurish, karovsiz qolish intizomsizlikning rivojlanishi uchun qo'lay sharoit tugdiradi. Shuxlik va tupolonchilikni yuzaga keltiradigan boshqa sabab o'smirlarning martlik-jasorat hamda dovyuraqlikni noto'g'ri tshunishlaridir.

Yalqovlik (normal va soglom o'quvchilarda mehnat qilish istagi va ehtiyojining, mehnatda zo'r berishga odatlanishning yukligi) singari nuxsonga kelsak, yalkovlikni keltirib chiqaruvchi eng ko'p tarqalgan sabab – o'z bolalarini har qanday ahamiyatli mehnatdan saqlashga harakat qiladigan ota-onalarining urinsiz mehri muxabatidir. Individual yondoshishda xatti-harakatlarning affektiv formalari deb atalmish formalariga ega bo'lgan o'quvchilarga aloxida etibor berish nazarda tutiladi.

Nihoyat. Individual yondoshish ishida I.P.Pavlovning katta miya yarim sharlari pustlarining fazaliy holatlari to'g'risidagi ta'limoti muhim ahamiyatga egadir. Agar o'quvchi ta'surotlar bilan nihoyatda xayajonlangan, miyasi juda

charchagan bulsa, so'z bolaga odatdagidek ta'sir ko'rsatmaydigan, balki aksincha, o'quvchi muljallagan narsaga qarama-qarshi reaksiya beradigan vaqtda (masalan, dagdaga yoki kuchli katik bakirik nerv tizimsini yanada kuchliroq ko'zgalishiga olib borsa, Ayni paytda bosik, oxista so'z ijobiy natija beradi) paradoksl yoki uta paradoksal faza boshlanishi mumkin.

Individual yondoshish jazo choralari va formalarini qo'llanishda ham ifodalanadi. Bir xil o'quvchilarga oddiygina korlash ta'sir etsa (bazan istexzo Bilan qarab qo'yishning o'zi kifoya qiladi), boshqa xil o'quvchilarga korlashning bunga uxshashi formalari ta'sir qilmaydi va buni ular tarbiyachining muruvati yoki bushangligi deb tushunadilar. Bunday o'quvchilarga nisbatan katikroq jazo choralari qo'llanish kerak.

Oxirida hammaga ma'um bo'lgan (lekin hamma vaqt ham xisobga olinavermaydigan) quyidagi fikrni ta'kidlab utamiz: individual yondoshishda tarbiyaviy ishda har bir o'quvchi shaxsidagi mavjud ijobiy fazilatlarga, chunonchi uning qiziqish xavaslariga (sport, mo'zika, rasm chizish, tabiat hamda boshqa narsalarni sevishiga), soglom axloqiy intilishlariga (garcha ular hatto qo'llanib bo'lmaydigan formalardabulsa ham), urtoklariga nisbatan hatto xazil tarikasidagi dustona munosabatlarga tayana olish nazarda tutiladi.

Konfutsiy: «Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi degan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida Ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, shuningdek, milliy mustaqillik va uning ne'matlari respublikamiz fuqarolarida tub o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuyg'u, qiyofa, xarakter, ta'b, kuy, raqs, ma'naviyat, qadriyat hamda ruhiyat ta'siri ostida o'zining tub mohiyatini aks etira boshladi.

O'tmishning boy merosi, uning an'analari milliy istiqlol tufayli o'z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta-syokin o'zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik xislatlari o'qishida adolatlilik, teng huqqlilik aloqalari o'rnatilmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida, uning tarbiyalanganlik darajasini ortiradi dinning, xususan «Hadis» ilmining ahamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda tenglik, g'amxo'rlik, samimiylik, o'zaro yordam, simpatiya, antipatiya, Hamdardlik, sevgi-muhabat singari milliy xususiyatlarni tarkib toptirishda Hadislarning roli yanada ortmoqda.

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbitning kundalik va istiqlol rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undaya unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama tarakkiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: « Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo xaloqat; yo saodat - yo faloqat masalasidir».

Yosh avlod tarbiyasida milliy ro'xiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy kadriyatlar, urf-odatlar, an'analar etakchi urin tutmogi lozim (tarbiya etnopsixologik va etnopedagogik munosabat).

Bular orqali yoshlarda quyidagi fazilatlarni tarbiyalash lozim:

- a) yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish;
- b) xayrixohlik, odamlarga xurmat, mehr-shafqat;
- v) kattalarni xurmat qilish, e'zozlash;
- g) muloyimlik;
- d) ishbilirmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur;
- e) kichik yoshdan mehnatsevarlik;
- j) jismoniy baquvvatlik;
- z) ahlok-odoblilik;
- i) oilaparvarlik;
- k) ayollarga xurmat;

1) o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi bilan oila, maxalla, ta'lim muassasalari, omaviy axborot vositalari, xuquqni muxofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar.

Tarbiya jarayoni barcha ishtiroqchilarining bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish vazifalari ana shuni taqozo qiladi.

Tarbiya shaxsni shakllantirish maqsadiga qaratilgan va unda hayotiy e'tiqod va xis-tuyg'ular, ma'naviy xulq-atvor hosil qilish jarayonidir. «Ta'lim-tarbiyani yangi zamon talablari darajasiga ko'tarish o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizning porloq kelajagini garmonik o'stirish imkoniyatini yaratish» (I.Karimov Uzb.R Prezidenti, Oliy Majlisning IX ses.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi) xozirgi kunning asosiy masalasidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi shuni nazarda tutadiki, boshqa muqim masalalar katorida Milliy kayta tiklanish mafkurasi va jamiyat boyliklari asosida o'quvchilarni ma'naviy va axloqiy xislatlarini ustirish, o'quvchilarning xulq madaniyatini shakllantirish, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish orqali xaqiqiy inson qilib tarbiyalash lozim.

Hozirgi zamon tarbiyasining maqsad va vazifalari avvalo, yoshlarni chinakam ma'rifatli kishi qilib, inson qadrini, milliy qadriyatlarini o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egalaydigan fidoyi insonni tarbiyalashdir.

II.Tarbiya - maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning, anglab olingan maqsadining mavjudligi bilan, ta'sir ko'rsatishining maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari shakllari hamda usullarini qo'llanishi bilan tasodifiy va stixiyali ta'sirlardan ajralib turadi. Sog'lom tarbiyaviy vaziyatsiz mukkammal shaxs vujudga kelmaydi.

O'kuvchilarning hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ijobiy axloqiy, ijtimoiy xulq-atvor tajribasi shaxsning tarkib topishida muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, birgina faoliyatning o'zida shaxsning har-xil va hatto bir-biriga qarama-

qarshi sifatlarini tarkib toptirish mumkin. Buning asosida maktab o'quvchisi amal qiladigan motivlar yotadi. Bu xulq-atvor shaxsan o'quvchining o'zi uchun qanday ma'noga ega bo'lishiga qarab, unda har-xil sifatlarni tarkib topishiga sabab buladi.

M: O'quvchi o'rtog'ini prinsipial asosda tanqid qilsa – unda qat'iylik, halollik; agar uz aybini o'rtogiga qo'yish bulsa – xudbinlik individualizm, egoizm paydo buladi.

Faoliyat – odamni shaxs sifatida shakilantirish asosi hisoblanadi. Bola o'yin, o'kish va mehnat faoliyatiga qanday munosabatda bo'lsa, unda shu faoliyat asosida ijobiy va salbiy sifatlar shakllanishi mumkin. O'qish va uyinga ijobiy munosabat, ilmga intilishga qiziqish, mehnatsevarlik kabilar bilan, salbiy munosabat esa ishyoqmaslik, dangasalik o'zini idora qila olmaslik kabilar shakllanishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham faoliyatining yetakchi tiplarini uyushtirish bola shaxsini shakllanishiga maqsadga muvofiq ta'sir etish vositasidir.

Axloqiy ehtiyojlarning tub mohiyati bu: 1) insonning axloqiyliги boshqalar bilan muloqotda bo'lishini ijtimoiy shart-sharoit mavjud bo'lishini; 2) individual ongning axloqiy tomonlarni shakllanishini ijtimoiy shart-sharoitdagi tarbiyaga bog'liqligi bilan belgilanadi. Va nihoyat, hayotning konkret hollarini hisobga olgan holda axloqiy ehtiyojni his-tuyguga, fikrlashiga bog'likligi muhimdir.

Axloqiy fazilatlarni namoyon bo'lishi ijtimoiy burch tushunchasi bola ongiga qanday singdirilishiga bog'lik. Burch- bu jamiyat va jamoaning inson oldiga qo'ygan turli-tuman talablarini ifodalovchi tushunchadir. Ijtimoiy burch – keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, bu odamiylik, vatanparvarlik burchi, kasb burchi, ota-ona oldidagi burchdir.

III. Yoshlarning axlokiy fazilatlarini tarbiyalashda umuminsoniy va milliy boyliklardan foydalanish muhimdir. Chunki umuminsoniy va milliy boyliklar hamda ularning shaxs shakllanishidagi roli ahamiyatlidir. Milliy an'analar, urf-odatlarimizning tiklanishi milliy, umumbashariy va umumma'naviy qadriyatlarga asoslangan axloq normalarini yaratish va ularni bolalarimiz, yoshlarimiz ongiga

singdirish orqali ularni jamiyatimiz uchun fidokor, bilimdon inson kilib tarbiyalashga asos bo'la oladi.

Milliy an'analar - har bir xalqning ma'naviy hayotining mahsuli bo'lib, usha xalqning ijtimoiy fikri milliy an'analarni ularning ma'naviy extiyojiga aylantiradi. Milliy an'analar yoshlarda ijtimoiy ongini tarbiyalaydi, ularning xar tomonlama kamolga yetgan inson bulib yetishishida muxim urin tutadi. U shaxs xarakterini ijobiy tomonga shakllantirishda faol ishtirok etadi, yoshlar mafkurasiga psixologik ta'sir kiladi.

IV. Bola shaxsini tarbiyalashda ijtimoiy foydali faoliyat ham muxim rol uynaydi. Chunki u tarbiyaning eng kulay sharti va vositasi xisoblanadi.

Ijtimoiy foydali faoliyat, mehnat tarbiya vositasi bo'lishi uchun:

- bolaning mehnati ijtimoiy foydali mehnat bo'lishiga;
- ijtimoiy qiymatga ega bulgan foydali maxsulot mehnat natijasi bo'lishiga;
- mehnat jamoa mehnati bo'lishiga;
- u tashabusskor va ijodiy mehnat bo'lishiga;
- mehnatda uz-uzini uyushtirish va mustakil faollik kursatishning xar xil shakllari kulanilishiga ahamiyat berish kerak.
- O'quvchilarning mehnati - ularning uzlari uchun kizikarli bo'lishi;
- Bolaning kuchiga mos bo'lishi;
- O'quv faoliyati bilan boglik bo'lishi;
- Mehnat uchun jazolashga mutlako yul kuyilmaslik kerak.
- Shuni sinchiklab puxta, vijdonan bajarish mehnat anjomlarini asrash va tejashga urgatadigan bo'lishi lozim.

V. Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari. . . .

VI. Tarbiyasi «qiyin» bulgan bolalar bilan ishlash:

- a) ularning individual xususiyatlarini aniklash;
- b) qiziqish va e'tiqodlarini hisobga olish;
- v) tarbiyaviy usullarini tanlash;

g) tarbiyaning maxsus sharoitlarini aniklash.

VII. Shaxsning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ma'naviy ong va xulq-atvor birligi muximdir. Yoshlarni uz-uzini anglashi, yaxshi-yomon va adolatli-adolatsizlikni his qilgan xolda uni uz-o'ziga tatbik qilishi, uzini tarbiyalash tarbiyaning psixologik mexanizmini tashkil qiladi.

O'z – o'zini tarbiyalashda 4-ta vazifa nazarda tutiladi

1.O'zida shaxsning ijobiy xislatlarini tarkkiy etirishga va o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xolis bo'lishga intilish.

2.O'quvchiga uz shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishiga, o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarini diqqat bilan va oqilona tushunib olishida, uz kamchiliklarini yakkol kurishda, uz nuksonlarini fahmlab olishida yordamlashish.

3.Uz-uzini tarbiyalash rejasini tuzishda, shaxs xulq-atvori xislatlarini kaysi xususiyatlarini tarakkiy ettirish, kaysisiga barham berish kerakligini aniklash.

4.Tarbiyachi uz-uzini tarbiyalashning okilona yullarini aniklashi.

VIII. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

Vatanparvarlikni shakllantirishda:

A) Ona-vatanga muxabbat, uni sevish, e'zozlashga urgatish.

B) Mustakil Uzbekiston tushunchasining moxiyatini o'quvchilar ongiga singdirish.

V) Yoshlarni xalqimiz an'alariga, udumlariga, tili va madaniyati, ruxiyatiga xurmat bilan karashga urgatish.

G) Buyuk daxolarimiz koldirgan ma'naviy meroslarni asrab avaylash, ularning tarixini bugungi kun uchun ahamiyatini idrok etish

D) Yoshlarda soglom kuch, soglom tafakkur, iymon-e'tikodni uygotish

Ye) Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati uchun kurashning moxiyatini anglash.

J) O'quvchilarda unib usgan yurtiga, voyaga yetkazgan ota-onasiga va ta'lim-tarbiya bergan ustoziga ta'zim qilish malakasini shakllantirish.

Nazorat savollari:

1. Tarbiya nima?

2. Xozirgi mustakillik davrida tarbiya jarayonida kanday muammolar paydo buldi va uni kanday kilib bartaraf kilinmokda?
3. Faoliyat shaxs tarakiyotida kanday rol uynaydi?
4. Yetakchi faoliyat va shaxs shakllanishini kanday izoxlaysiz?
5. Umuminsoniy va milliy boyliklarni shaxs tarakkiyoti va tarbiyasi ta'siri tavsifnomasini bering?
6. Ijtimoiy foydali faoliyat va shaxs tarbiyasi orasida kanday bogliklik bor?
7. Bolalar jamosini kanday tashkil kilinadi?
8. Milliy ong nima?
9. Milliy gururchi?
10. Yoshlarni vatanparvarlik ruxida kanday tarbiyalanadi?
11. Tarbiyasi kiyin bolalar bilan kanday ish usullaridan foydalaniladi?

8-MAVZU: PEDAGOG PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. Pedagog shaxsiga qo`yiladigan psixologik talablar.
2. Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari.
3. Pedagog faoliyatining individual uslubi.

O`qituvchilik inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir.

«O`qituvchi-deydi Al Forobiy - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo`lishi va o`quvchilarga aytmoqchi bo`lgan fikrlarini to`la va aniq, ifodalay olishni bilmog`i zarur». U o`z fikrini davom etirib, «O`qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o`xshaydi, shu sababli o`qituvchi eshitgan va ko`rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo`lishi o`quvchilarga aytmoqchi bo`lgan fikrlarini to`la va aniq, ifodalab berishni bilmog`i lozim. Shu bilan birga o`z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo`lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo`ladi va baxt cho`qqisiga erishadi» deb ta`kidlaydi.

Qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino** fikricha, «*O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq-qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim*».

Nosiriddin Tusiy o‘zining «O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida» asarida shunday deydi: «O‘qituvchi munozaralarini olib borishda isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaxarxandalik, qo‘pol yoki qatiq bo‘lishi mumkin emas. Dapc paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin».

Yusuf Xos Xojib Qoshqariy «Men a‘zolar kasalligini davolashdan oldin odamlarning ruhiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men o‘qituvchilik yo‘li bilan erishamman, bunga mening ishonchim komil. Chunki a‘zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo‘lsalar, nodonlik bilimsizlik tufayli o‘n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo‘ladilar....»

Jomiy bola dunyoqarashining kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baho beradi. Uning fikriga qaraganda, muallim aqlli, adolatli, o‘zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam, hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi, degan fikrni bildiradi.

Ulug‘ shoirimiz **Alisher Navoiy** ham o‘qituvchi mehnatini xolisona baholab «Agar shogird podsholikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi». «Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘rgatmish ranj ila, aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila» kabi satrlarni bitgan.

Allomalarimiz tomonidan bildirilgan qimmatli fikrlari hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Shuningdek ta‘lim jarayonida o‘qituvchi shaxsi, uning kasbiy xususiyatlari borasidagi fikrlar atroflicha bayon qilingan.

O‘qituvchining o‘rni va uning vazifalari o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e‘tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi. Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham u o‘qituvchilar

o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga solish, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O'qituvchi pedagogik jamoa a'zosi sifatida pedagogik faoliyatni uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o'qituvchilari va sinf rahbarlarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik oldida ma'ruzalar o'qib, suhbatlar olib borar ekan, demak u pedagogik bilimlar targ'ibotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko'pligi uchun ham jamiyatning o'qituvchilar oldiga qo'yadigan talablari xilma-xildir.

Ma'lumki pedagogik faoliyat — kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchi shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq. xislatlarga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari qo'yidagilardir:

- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etish;

-olijanoblighi, aql-farosati, ma'naviy pok va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, bunday xislatlarni jamiyat xohishi bo'yicha bolalarga singdirib berishi;

-o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, matonatligidir.

Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

-shaxsni ma'naviy-ma'rifiy tomondan tarbiyalashning milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarining mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z vatani, tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

-keng bilim saviyasiga ega bo'lish, barcha sohalarga doir bilimlar bilan kurollanishi;

-yosh pedagogik psixologik, ijtimoiy psixologiya va pedagogika yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

-o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi sohasida jahon fanida erishilgan yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

-ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

-o'z ishiga iqtisodiy yondashishi;

-bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi;

-pedagogik texnikani (mantiq, nutq; ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

-o'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi;

Ko'pchilik psixologlar shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy o'qituvchilar uchun zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rus psixologlaridan N.V. Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin o'zbek psixologlaridan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Karejaova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'qituvchilik kasbining turli jixatlarini atroflicha keng batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratadi. Bevosita o'qituvchi shaxsiga taalluqli bo'lgan professiogramaga asosiy e'tibor qaratilgan. Professiograma - ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjat. Professiograma psixologik jixatidan ishlab chiqarilgan faoliyatni tavsifnomasining kelgusi amaliy ishlar uchun zarur bo'lgan barcha tomonlarini o'z ichiga olishi kerak.

M.G.Davletshin rahbarligida psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M.Abdullajonova, YE.Gladkova, A.Mashkurov, T.Xamraqulov, E.Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek tili va adabiyoti, o'zbek maktablarida rus tili va adabiyoti, matematika, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogramasining taxminiy modelini (namunasini) aniqlab olish imkoniyatini berdi.

Har bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan tavsifnomasini nazarda tutgan professiogramasi tuziladi, Jumladan, maktabning o'qituvchi-murabbiysi professiogramasini misol qilib keltiramiz. Professiogramada muhim

xislatlar borgan sari bir muncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi xislatlarini ko'rsatib o'tish lozim:

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlari:

- bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish;
- amaliy psixologik aql-farosatlilik;
- mehnatsevarlik;
- jamoat ishlarida faollik;
- mehribonlik;
- kamtarinlik;
- odamiylik, dilkashlik;
- uddaburonlik: mustahkam xarakterga ega bo'lish;
- o'z bilimini oshirishga intilish.

2. Kasbga xos bilimi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;
- psixologiya asoslarini, ayniqsa yosh psixologiyasi pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;
- etnopsixologik bilimlarni egallash;
- hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilish;
 - hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi;
 - maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;
 - o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi;
 - o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi;
 - ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

3. O'z kasbiga xos xislatlari:

-milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi;

-zamonaviy maktabda olib boriladigan o'quv tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an'analar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunishi;

- o'qituvchining kuzatuvchanligi;
- o'z diqqat e'tiborini taqsimlay olishi;
- pedagogik fantaziyalar (xayol)ning rivojlanishi;
- o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi;
- o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini tuta olishi;
- pedagogik takt;
- nutqning emotsional ifodalanishi.

4. Shaxsiy pedagogik uddaburonligi:

- dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;
- ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda boshqara olishi;
- pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;
- bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi;
- o'z maqsadlarini rejalashtira olishi;
- o'zining ta'lim tarbiyaviy ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5. Tashkilotchilik malakalari:

- bolalar jamoasini uyushtira bilishi;
- turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;
- bolalarni nimalardir bilan qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;
- amaliy masalalarni hal etishda o'zini bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi.

6. Komunikativ malakalari:

- bolalarni o‘ziga jalb etishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;
- bolalarni jamoalararo va jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilishi.

7. Gnostik malakalari:

- bolalarning asab psixik taraqqiyot darajasini aniqlay bilishi;
- o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyat natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to‘g‘ri xulosa chiqara olishi;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
- o‘quvchilarni to‘g‘ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi;

8. Insoniy xislatlari:

- pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi;
- o‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;
- o‘zini, o‘quvchi o‘rniga qo‘yib bo‘lib o‘tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;
- avvalgi voqealar hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olishi;
- o‘zining o‘quvchiga pedagogik ta’siri natijalarini oldindan ko‘ra bilishga intilishi;

Shunday qilib, ko‘rsatib o‘tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi:

- shaxsning jamoatchiligi va kasbiy yo‘nalishi;
- pedagogik mahorat va qobiliyati;
- xarakterning psixologik xususiyatlari;

- bilish faoliyati;

-o'qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti;

Professiograma yoshlarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi.

Pedagoglik kasbi ma'lumki har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatdagi yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faollik bilan shug'ullanishga moyil oqibat natijasida esa pedagogik qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina erisha oladi.

Qobiliyat - bu kishining biror faoliyatga yaroqliligi va shu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir.

Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar, pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'p qirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib beradi. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyat tuzilishida muhim o'rin egallaydigan qator komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Didaktik qobiliyatlar - bu bolalarga o'quv materialini aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'ota oladigan qobiliyatdir. Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini osonroq, murakkabrog'ini soddaroq tushunishi qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib o'quvchilarga moslashtirib bera oladi.

Akademik qobiliyatlar - matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyatlardir. Qobiliyatli o'qituvchi o'z fanini faqat kurs xajmidagina emas, balki atroflicha keng, chuqur bilib bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzatib borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab unga katta qiziqish bilan qaraydi, hamda ozgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishishi boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirishi, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olishi uchun yuksak madaniyatli, har tomonlama keng bilimdon bo'lishi lozim.

Perseptiv qobiliyatlar – bu o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsini vaqtinchalik, psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatlardir.

Nutq qobiliyati - kishining o'z tuyg'u hislarini nutq yordamida shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir.

Tashkilotchilik qobiliyati — bu birinchidan. o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, unda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir.

Avtoritar qobiliyat - o'qituvchining rostgo'ylik, irodaviy uddaburonligi, o'zini tuta bilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamda qator shaxsiy hislatlarga shu bilan birga o'quvchilarning tarbiyasida javobgarlikni his etish uning e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olishga ishonch kabi xislatlarga ham bog'liqdir.

Komunikativlik qobiliyati - bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Pedagogik takt psixologiyasini o'rganishida psixolog I.V.Straxov benihoya katta hissa qo'shgan. Uning fikricha, bunda muhimi - o'quvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa bilish tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olgan holda, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarini hisobga olish zarurdir.

Pedagogik xayol - bu kishining o'quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyhalashtirganda o'z ish harakatlarining natijasini oldindan ko'ra bilishda namoyon bo'ladigan maxsus qobiliyatdir.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati - bu qobiliyat bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo'lib, o'qituvchi ishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlardan tashqari o'qituvchi inson shaxsining maqsad sari intilishi uddaburonlik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi qator insoniy xislatlarga ega bo'lishi lozimdir.

Pedagogik kadrlarning kasbiy ko'nikmalari.

Pedagogik jarayon bevosita pedagog tomonidan tashkil etiladi. Pedagogik jarayon qayerda va qanday pedagog tomonidan tashkil etilmasin, u baribir bita tuzilishga ega bo'ladi: ya'ni maqsad-tamoyillar mazmuni-metodlari-vosita-shakli.

Maqsad - pedagog va o'quvchi intilayotgan birgalikdagi pedagogik harakatlarning yakuniy natijalarini aks etiradi. Tamoyillar-maqsadga erishishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Mazmuni – bu tanlangan yo'nalish bo'yicha qo'yilgan maqsadlariga erishishi uchun o'quvchilarga beriladigan ajdodlar tajribasining bir qismidir. Ta'lim mazmuni – maxsus tanlab olingan va jamiyat tomonidan (davlat tomonidan) tan olingan ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun o'zlashtirilishi zarur bo'lgan insoniyatning obyektiv tajribasi elementlarining tizimidir.

Ta'lim mazmuni - o'quv muassasasi erishishga intiladigan yakuniy natijadir, bilimlar, mahorati, ko'nikmalari, shaxsiy sifatleri kategoriyalarida ifoda etiladigan o'sha darajasi va o'sha yutuqlaridir. Metodika – bu mazmuni yetkaziladigan va qabul qilinadigan pedagog va o'quvchining harakat vositalari, mazmuni bilan moddiylashtirilgan predmetli «ish» usuli sifatida metod bilan birgalikda foydalaniladi. Pedagogik jarayonni tashkil etish shakli unga mantiqiy yakunlanganlik, tugallanganlikni beradi. Pedagogik jarayonning dinamikligiga uning uch tarkibi o'zaro bog'liqligi natijasida erishiladi: pedagogik, metodik va psixologik.

Pedagogik tuzilishning asosiy jarayonlarini tashkil etish masalalarini hal etib ta'lim va tarbiya, uning maqsadlarini, shaklini, mazmunini va shu kabilarni aniqlashni ta'minlaydi. Metodik tuzilishini yaratish uchun maqsad bir qator masalalarga bo'linadi, unga binoan pedagog va o'quvchilarning faoliyat bosqichi ketma-ketligi tartibi aniqlanadi. Masalan, metodik tuzilishiga tayyorlanuvchi yo'l-yo'riq ko'rsatishi, kuzatish joyiga harakatlanish, obyektни kuzatishni, ko'rganlarini qayd etishni o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonlarning pedagogik va metodik tuzilishlari uzviy ravishda bir-biri bilan bog'liqdir. Bu ikki tuzilishdan tashqari pedagogik jarayon yanada murakkab bo'lgan – psixologik tuzilishni ham o'z ichiga oladi. Psixologik tuzilish esa quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

1) idrok etish, fikrlash, anglash, eslash, ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonlarini;

2) o'quvchilarning qiziqishlari, ishtiyoqlari, o'qish sabablari, hissiy kayfiyatlari dinamikasini;

3) jismoniy va nerv – psixik keskinlikni kuchaytirish va pasaytirish, faollik dinamikasi, ishchanlik qobiliyati va toliqishini;

Shunday qilib, darsning psixologik tuzilishi uchta tarkibiy qismdan iborat:

1) idrok etish jarayonlari;

2) bilim olish sabablari;

3) keskinlik.

O'qitish metodlari pedagogik jarayon tuzilishida o'zining alohida o'rniga ega. Ularni o'quv materiallarini ishlab chiqish yordamida ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari usullarini navbatma – navbat almashinishi tushiniladi. «Metod» so'zi (grekcha – biror narsaga yo'l) – maqsadga erishish usuli, bilim olish usulidir.

O'qitish shakli – bu o'qituvchi va o'quvchilarning bilim olish davomidagi uyushtirilgan o'zaro aloqalaridir. Adabiyotlarda quyidagi o'qitish shakllari ko'rsatiladi: frontal, individual, guruhli, sinfda – dars paytida, kechki (hamda shunday shakllari ham mavjudki dars, ekskursiya, seminar, ma'ruza, amaliy mashg'ulot, ishlab chiqarish amaliyoti, imtihonlar, maslahat). Metodni shakldan

farq qiladigan asosiy ko'rsatkichi bilim olish usuli ko'rsatilganligi va o'quvchining o'zi ishtirok etishga bog'liqligidir.

Pedagogik adabiyotlarda «o'qitish metodi» tushunchasini o'rnini aniqlash borasida hech bir fikr aytilmagan. Masalan, Y.K.Babanskiy shunday deb hisoblaydi: «O'qitish metodi deb ta'lim masalalarini hal etishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchilarning tartibga solingan va o'zaro bog'langan faoliyati usuliga aytiladi». T.A.Ilina o'qitish metodi deganda «o'quvchilarning idrok etish faoliyatini tashkil etish usuli», deb tushunadi.

Didaktika tarixida o'qitish metodlarini turlicha guruhlariga ajratish yuzaga kelgan – so'z bilan, amaliy, ko'rgazmali – bu usullar eng ko'p tarqalgan hisoblanadi.

Har qanday usullar va metodik uslublar pedagogika amaliyotida uslublar bilan amalga oshiriladi. Metodik uslublar - o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning alohida harakatlarini ifoda etuvchi u yoki bu usulning elementidir. Metodik uslublarning turli – tumanligi ularni tizimlashtirishni talab etadi. Ular mantiqiy, tashkiliy va texnik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda turli usullarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslublarga ajratish mumkin.

Barcha uslublarda ham bir xil mantiqiy uslublardan foydalaniladi: belgilarini ajratish, hodisalarni (obyektlarni) o'xshashligi va farqi bo'yicha taqqoslash, xulosalar, umumlashtirish va boshqalar. Bu holat o'quvchilar fikrlashi va ularning ishdagi mustaqilliklarini rivojlantirishda hamma usullar imkoniyatlarini muhim darajada belgilaydi. Tashkiliy uslublar o'quvchilarning e'tiborini, idrok etish va faoliyatlarga yo'naltiriladi. Texnik uslublarga turli uskunalalar, yordamchi vositalar, metodikalardan foydalanish kiradi.

Mashg'ulotlarda har bir usul ko'plab xususiyat va turlarga ega bo'lgan metodik uslublar bilan ochib beriladi. Idrok etish qiziqishlarini uyg'otish va rivojlantirish, mehnat madaniyatini tarbiyalash uslublarini ko'rsatish mumkin, lekin ular uchta asosiy guruh metodik uslublar bilan amalga oshiriladilar. Metodik uslublarning ko'pligi va ayniqsa ularning birga bo'lishi o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini va pedagogik mahoratlarini ko'rsatadi. Ijodiy ishlovchi pedagog

yangi uslublar kashf etadi, hammaga ma'lum uslublarni o'zgartiradi, yanada yaxshiroq ta'lim va tarbiyaviy samaraga erishadi.

So'zli usullar. Suhbat masalalari hal etishda o'qituvchilar va o'quvchilar ham ishtirok etishi bilan ta'riflanadi. Suhbatning maqsadi o'quvchilarning bilimini hal etilishi kerak bo'lgan masalaga yo'naltirilishi bilan belgilanadi. Suhbat natijasida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida ma'lum xulosaga kelishlari, umumlashtirishlari kerak. U o'qituvchilarga noma'lum materiallardan qurilmasligi kerak: o'quvchilarda bo'lmagan bilimlarni ulardan qiynab talab etishga vaqtni bekorga o'tkazish mumkin emas. Suhbat yakunlovchi yoki umumlashtiruvchi darslarga va ilgarigi bilimlarini yangilari bilan bog'lovchi darslarda, ayniqsa, ahamiyatga ega bo'ladi.

Har qanday suhbatning asosiy tuzilish elementi o'qituvchining savollari hisoblanadi. Ular bayon etilayotgan materialdan tabiiy kelib chiqishi va o'quvchilarning diqqati muhimlarini o'zlashtirishga qaratilishi kerak, ilgarigi tayyorgarligi yoki o'quvchining haqiqiy mavjud shaxsiy tajribasiga tayanishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar faolligini ularga beriladigan savollarni murakkablashtirib borish yordamida suhbatda ishtirok etishlari darajasini asta oshirib boradi. O'qituvchining savollari o'quvchilarning bilimlaridan o'zlari mustaqil foydalanishlariga o'rgatishlari kerak. Savollarning mos ravishda to'g'ri qo'yilishida javoblar ham rivojlanadi, murakkablashadi, o'quvchilar yanada mantiqiy masalalarni yechib boradilar. Bu esa aqliy rivojlanishning muhim tomoni hisoblanadi.

Savol – javob usulida bayon etilganida o'quvchiga o'z diqqatini uzoq vaqt jalb etishi kerak bo'lmaydi, chunki murakkab fikrlar uning oldida qismlarga ajratilib ifoda etiladi, ularni o'zlashtirish doimiy tekshirib boriladi.

Hikoya qilish usuli biror bir hodisalar yoki odamlar hayotidan hodisalarni, buyuk kashfiyotlar tarixi, olimlar hayoti, umuman inson ongi, uning psixologiyasini o'rganish bilan bog'liq ijodiy faoliyati haqida bo'lsa psixologiya mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Ba'zi hollarda o'qituvchining hikoyalari mashg'ulotlarda syujetli va

obrazli ko‘rinish oladi. Aynan hikoyada javob yoki pedagogikada shunday ataluvchi so‘z bilan tasvirlash qo‘llaniladi.

Hikoya qilish boshqa usullar kabi induktiv qurilishi mumkin, bunda bir qator ma‘lumotlardan umumlashtirish kelib chiqadi yoki deduktiv, bunda umumiy holat ma‘lumotlar bilan tushuntiriladi.

Tushuntirish - hikoyadan farq qiladi - o‘quv materiallarini faktlarni tahlil qilish va xulosalar ifoda etib isbotlash asosida aniq bayon etish hisoblanadi.

Amaliy ishlarni bajarish bo‘yicha qisqacha, aniq ko‘rsatmalar o‘tkazish ham tushuntirish hisoblanadi.

Maktab ma‘ruzasi faqatgina katta sinflarda (kollejlarda) qo‘llaniladi. Shunda ham o‘qituvchi butun dars davomida materialni aytib berish bilan shug‘ullanmaydi: dars paytida u o‘quvchilardan so‘raydi, topshiriq beradi va uy vazifasini tushuntiradi.

Har qanday usuldan foydalanishda ham o‘qituvchi o‘quvchilar nutq madaniyatiga katta e‘tibor beradi. Ayniqsa, so‘zli usullarda uning rivojlanishini ko‘zda tutish juda muhim. O‘quvchilarga beriladigan savollar asta – sekin murakkablashtiriladi. O‘quvchilar avvaliga qisqacha, keyin esa keng javob berib, mustaqil ravishda taqqoslaydilar, xulosa chiqaradilar, mulohazalarni bayon etadilar. Keyinchalik o‘quvchilar ilmiy mavzularda qisqacha xabarlar va hisobotlar bilan ishtirok etishga o‘rgatiladilar.

Ko‘rgazmali usullar. Ko‘rgazmali usullarni umumiy yaqqollik, pedagogik tamoyil bilan aralashtirish kerak emas. Darsni ko‘rgazmali usullar bilan o‘tkazganda ko‘rgazmali qurollarga yordamchi emas, balki asosiy o‘rin beriladi.

Amaliy usullar. Psixologiya fanida qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqotlar usuli bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ma‘lumki, ilmiy psixologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ko‘plab usullar ichida, eng ko‘p qo‘llaniladigani aynan kuzatish va tajriba hisoblanadi, ya‘ni narsa va hodisalar inson psixikasini bevosita laboratoriya va tabiiy sharoitlarda o‘rganish bilan bog‘liq usul hisoblanadi.

Kuzatish – bu hodisalar berilishiga aralashmay turib, psixik jarayonlarni tabiiy sharoitlarda maqsadga muvofiq bevosita his etib qabul qilishdan iborat.

O'quvchilar kuzatishni ko'chada, uyda va darsda shu bilan birga kuzatishni o'quvchilar bevosita o'qituvchi rahbarligi ostida, mustaqil, og'zaki yoki yozma topshiriqlar bo'yicha olib borishlari mumkin.

Psixologik fan sohasida ilmiy tadqiqot vazifalarining va maktabda psixologiya o'qitishning turlicha bo'lishiga qaramasdan (psixika va ongning yangi faktlari va qonuniyatlarini ochish) maktabda (kollej, litseyda) psixologiyadan dars o'tish usullari o'quvchilarni ilmiy tadqiqot metodikasi boshlanishi bilan tanishtirishi yaqqol ko'rinib turadi. Shuningdek, kuzatishlar ularni amalga oshirish muddati bilan ikki guruhga ajratiladi.

Qisqa vaqt va uzoq vaqt davom etadigan usullar. Qisqa vaqtlilari to'laligicha darsga qaratiladi va tarqatilgan materiallar bilan bajariladi. Uzoq vaqtlilari darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi, lekin ularning olib borilishi va natijalari darsda namoyish etiladi. Bu jarayonda o'z-o'zini kuzatish muhim rol o'ynaydi. Tajriba ham qisqa vaqtli va uzoq davom etadigan ko'rinishda bo'ladi. Tajriba ishlarini o'quvchilar odatda mashg'ulotlardan tashqari vaqtda olib boradilar. O'quvchilar uylarida oddiy tajriba o'tkazishdan boshlab tajribalar olib borishga, bog'chada, maktabda yanada murakkabroq va uzoq davom etadiganlariga tayyorlanib boradilar.

Psixologiyani o'qitish usulini tanlash tasodifiy ixtiyoriy bo'lishi mumkin emas. Uni ikki muhim pedagogik talablarga rioya qilib amalga oshiriladi: birinchidan, o'quv material; ikkinchidan o'quvchilar yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi.

Psixologiyadan dars o'tishda idrok etish faoliyati turlari va fikrlash shakllarini yo'naltirish maqsadida o'qitishning ko'p ko'rinishli usullaridan foydalanish zarurdir. Hozirgi zamonaviy faol o'qitish usullarida ko'rsatilgan fikrlash turlarini shakllantirishni boshqarish maqsadida foydalanish uchun eng qiziqarli bo'lgan uchta usulni ko'rsatamiz. Bular dasturlashtirilgan o'qitish, muamoli o'qitish va interaktiv (komunikativ) o'qitish usullaridir. Bu usullar ishlab chiqilishi va tarqalishi tarixiga to'xtalib o'tirmay, ularning har biri an'anaviy o'qitish usullarining

cheklanmaganligini va yangi «faol» usullar bilan yaratiladigan to‘siqlarni engib o‘tishga urinish sifatida paydo bo‘lganligini ta’kidlash mumkin.

Masalan, dasturlashgan o‘qitish metodlari an’anaviy o‘qitishning maqsad, vazifalarni yechish usullarini, rag‘batlantirish shaklini va darsni bilishini nazorat qilishni aniqlash va operatsiyalashtirishni hisobiga qayta tashkil etishni ko‘zda tutgan. Muamoli o‘qitish usuli o‘qitish jarayonining dasturlashtirish metodlari yo‘nalishida haddan tashqari rasmiylashtirishga ma’lum miqdorda javob bergan. Bu metodlar, dasturlashtirish aspektiga emas, balki o‘quvchi shaxsi tushib qolgan vaziyatga e’tibor beriladi.

Ularni tashkil etilishi va boshqarish markazida o‘quvchining muamoli vaziyatda ishtirok etishi hisobiga ular fikrlash faoliyati sababi va usullarini qidiradilar. Interaktiv o‘qitish usullari bilimlarni inson o‘zaro munosabatlari va aloqalarini tashkil etish yordamida o‘zlashtirish jarayonini boshqarish usullariga murojaat etadi. Shu bilan o‘qitishni boshqaruv markaziga o‘qitilayotgan odamning o‘zini, uning o‘quv jarayonining boshqa real ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqalarini qamrab oladi. O‘qitish – bu ijtimoiy, jamoatchilik jarayoni bo‘lib, juda individual emasligini tan olgan holda qo‘yilishi dastlabki qadam bo‘ldi.

Bu usullardan har biri o‘ziga xos harakatlar yig‘indisi yaratilib, ular bilan o‘quvchilarning idrok etish faoliyatini rivojlantirish jarayonini boshqarish vositasi sifatida usul mazmuni ifoda etiladi va uning ta’sir chegaralari belgilanadi.

Dasturlashtirilgan o‘qitish metodlari tizimi – bu dasturning dozalashtirilgan qadamidir. Muamoli o‘qitishning algoritmi – muamoli vaziyat va uning turlari, evristik dasturlar va boshqalardan iborat.

Interaktiv o‘qitish – jamoa bo‘lib bahslashish, o‘quv – rolli o‘yinlar, dialoglar ssenariysi va muamoni jamoa bo‘lib birgalikda hal etishda poliloglar (o‘zaro munosabatlarni bosqich va davrini ko‘rsatib) masalani birgalikda hal etuvchilar o‘rtasida («mozgovoy shturm» misollaridan biri) o‘zaro munosabatdan iboratdir. Muamoni jamoa bo‘lib hal etish algoritmi, evristika va ssenariysi, ularning har birini qo‘llanilishi doirasiga mosligini hisobga olgan tizimidagina o‘qitishni

boshqarish maqsadida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ko'p turli usullari sifatida qaralishi kerak.

Rasmiy va norasmiy fikrlashni shakllantirish uchun faqatgina algoritmlar kamlik qiladi va aksincha, oddiy ko'nikmaga o'qitish uchun murakkab evristika mos kelmaydi. Muamoni jamoa bo'lib hal etish esa «vaziyatni hal etish» va intuitsiyani yuzaga keltirish vazifasiga mos keladi.

Birgalikdagi o'quv faoliyatining umumiy xususiyatlari shaxsni tubdan o'zgartirish hisoblanib, shaxsning rivojlanish qonuniyatlarini qayta qurish o'zlashtirilgan mazmuniga munosabati sifatida, o'zlashtirilgan o'zaro aloqalar ham qadriyatli ko'rsatmalar, ma'noli yo'nalishlar, o'qitish maqsadi va o'qitish ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar usullarini o'zida ifoda etiladi.

Shaxsning holatlardagi o'zgarishi faoliyatni o'zlashtirishning yangi bosqichiga va o'quvchi talabalar bilan o'zaro aloqalarning yangi shakllariga o'tishiga sabab bo'ladi. O'quvchilar, talabalar idrok etish faoliyatini faollashtirishga yordam beruvchi usullar orasida o'quv – rolli o'yin alohida o'rin tutadi. Bu tushunchaning mohiyati bo'yicha o'quvchilar, talabalar tomonidan shartli ravishda va o'quv maqsadida odamlarning haqiqiy faoliyatlarini qayta takrorlash (o'xshatish) dan iborat bo'ladi. O'quv – rolli metodni boshqa usullardan farq qiluvchi muhim belgisi, unda har bir o'quvchining jamoa bo'lib - o'ynalayotgan syujetning ma'lum rolini qabul qilib olib va bajarishi yo'li bilan haqiqiy vaziyatni qayta tashkil etish, amalga oshirilish jarayoni hisoblanadi.

O'quv – rolli o'yinda quyidagi amaliy mahoratlar shakllantiriladi:

1. Mustaqil bilimlarni egallash mahorati;
2. Masalani yechishdagi evristik, shu jumladan umumiy mahoratlari;
3. Sinflarda aniq – fan masalalarini mustaqil yechish mahorati.

O'quv – rolli o'yinda o'quvchilarda ilgari salbiy yoki spetsefik munosabat uyg'otgan nazariy qoidalar (qonunlar, qoidalar, tushunchalar) yaxshi o'zlashtiriladi. O'quv – rolli o'yinning xususiyati unda masalani yechish jarayonini jamoaviy xarakterdaligi ko'zda tutiladi. Natijada shunday namunalarda o'qitish uchun sharoit yaratiladiki, bunda bo'sh o'quvchilar kuchliroq o'quvchilarni kuzatadilar va o'zlari

ham ularning namunalari bo'yicha harakat qiladilar. Rolli - o'yinda o'quvchilarga javob aloqasi ahamiyatli bo'ladi, unda ular haqiqiy hayotda odamlar o'zlarining qilmishlari oqibatlarini haqida qanday qilib bilib olishlarini tasavvur qiladilar va bilib oladilar. Buning natijasida o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarish asosida o'qitish imkoniyati yuzaga keladi.

O'quv – rolli o'yinlarning samaraliligini uning ishtirokchilarining o'yin paytida masalani hal etishda faolliklari keskin o'sib borishi, ishtirokchilarning faolligini o'sishi manbai esa savollarning kuchliligi hisoblanadi.

9-MAVZU: PEDAGOGIK BAHOLASH PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. Pedagogik baholash tushunchasi va mohiyati
2. Baholashning psixologik asoslari
3. Pedagogik baholashning turlari va funksiyalari
4. Baholashning o'quvchi shaxsiga ta'siri
5. Pedagogik baholashda motivatsiya va rag'batlantirish
6. Zamonaviy ta'limda pedagogik baholashning ahamiyati

Pedagogik baholash ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Baholash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari aniqlanadi, ularning o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyati tahlil qilinadi hamda ta'lim samaradorligi nazorat qilinadi. Pedagogik psixologiyada baholash nafaqat nazorat vositasi, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omil sifatida ham qaraladi. Baholash jarayoni o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi, motivatsiyasi, emotsional holati va o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogik baholash jarayonida psixologik yondashuvlarga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

Pedagogik baholashning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishdan iboratdir. Baholash yordamida o'qituvchi o'quvchilar tomonidan mavzuning qay darajada o'zlashtiril-

ganini bilib oladi hamda kelgusidagi pedagogik faoliyatini rejalashtiradi. O'quvchilar esa baholash orqali o'z bilim darajasi va imkoniyatlarini anglaydilar. Shu jihatdan baholash ta'lim jarayonida qayta aloqa vazifasini bajaradi. Pedagogik baholash faqat yakuniy natijalarni aniqlash emas, balki o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini ham beradi.

Pedagogik baholashning psixologik asoslari inson ruhiyati va individual xususiyatlari bilan bog'liqdir. Har bir o'quvchi baholash jarayonini turlicha qabul qiladi. Ayrim o'quvchilar yuqori bahodan ruhlanib, yanada faolroq ishlashga harakat qilsa, boshqalarda past baho o'ziga bo'lgan ishonchning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi baholashda adolatli, xolis va ehtiyotkor bo'lishi zarur. Baholash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holati va individual imkoniyatlari hisobga olinishi kerak. Pedagog tomonidan noo'rin tanqid yoki kamsituvchi munosabat o'quvchining psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Pedagogik baholashning bir necha turlari mavjud. Dastlabki baholash o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Joriy baholash dars jarayonida o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini nazorat qilish imkonini beradi. Oraliq va yakuniy baholash esa ma'lum davr mobaynida egallangan bilim va ko'nikmalarni umumiy baholashga qaratilgan. Shuningdek, og'zaki, yozma, amaliy va test shaklidagi baholash turlari ham mavjud. Har bir baholash turi o'ziga xos psixologik ta'sirga ega bo'lib, o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos ravishda qo'llanilishi muhimdir.

Baholashning ta'lim jarayonidagi asosiy funksiyalaridan biri rag'batlantiruvchi funksiyadir. To'g'ri tashkil etilgan baholash o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni oshiradi va ularni faoliyatga undaydi. Ayniqsa, ijobiy baholash va rag'batlantirish o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi. Pedagogning maqtovi, qo'llab-quvvatlashi va muvaffaqiyatni e'tirof etishi o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi. Shu bilan birga baholash nazorat qiluvchi va tarbiyaviy funksiyani ham bajaradi. O'quvchi o'z xatolarini anglaydi, ularni tuzatishga harakat qiladi va o'z ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Pedagogik baholash o'quvchi shaxsining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Baholash orqali o'quvchida mas'uliyat hissi, intizom, mustaqillik va o'zini nazorat qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Adolatli baholash o'quvchilarda ijobiy psixologik muhit yaratadi va ularning o'qishga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi. Aksincha, nohaq yoki subektiv baholash o'quvchilarda tushkunlik, qo'rquv va ta'limga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi mumkin. Shu sababli zamonaviy pedagogik psixologiyada baholashning insonparvarlik tamoyiliga asoslanishi alohida ta'kidlanadi.

Pedagogik baholashda motivatsiya muhim o'rin tutadi. O'quvchilar ko'pincha yaxshi baho olish istagi bilan faol harakat qiladilar. Ammo baholash faqat raqam yoki ball bilan cheklanib qolmasligi kerak. O'quvchining harakati, intilishi va rivojlanishi ham inobatga olinishi zarur. Formativ baholash usullari aynan o'quvchining rivojlanishiga e'tibor qaratadi. Bu usulda o'quvchining kuchli tomonlari qo'llab-quvvatlanadi va kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beriladi. Natijada o'quvchilar o'z ustida ishlashga va bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga intiladilar.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik baholashning yangi shakllari keng qo'llanilmoqda. Reyting tizimi, portfolio, elektron baholash va test texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish baholash jarayonining aniqligi va shaffofligini ta'minlaydi. Shu bilan birga zamonaviy baholash usullari o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlashi va amaliy ko'nikmalarini ham baholash imkonini beradi. Bugungi kunda pedagogik baholash faqat bilimni nazorat qilish vositasi emas, balki o'quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik va psixologik jarayon sifatida qaralmoqda.

Pedagogik baholash psixologiyasi o'qituvchidan yuqori kasbiy mahorat va psixologik bilimlarni talab qiladi. O'qituvchi baholash jarayonida o'quvchilarning ruhiy holatini hisobga olishi, adolatli va xolis yondashishi zarur. Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik

baholash o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Nazorat savollari

1. Pedagogik baholash deganda nima tushuniladi?
2. Pedagogik baholashning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Baholashning psixologik asoslarini tushuntiring.
4. Pedagogik baholashning qanday turlari mavjud?
5. Baholash o'quvchi shaxsiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

10-MAVZU: PSIXOLOGIYA O'QITISH METODIKASI: PREDMETI, VAZIFALARI, TAMOYILLARI

Reja:

1. Psixologiya o'qitish metodikasi tushunchasi va predmeti
2. Psixologiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari
3. Psixologiyani o'qitishning didaktik tamoyillari
4. Psixologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar
5. Zamonaviy ta'limda psixologiya o'qitish metodikasining ahamiyati
6. Psixologiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari

Psixologiya o'qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu fan psixologiya fanini o'qitish jarayonining qonuniyatlarini, mazmunini, metodlarini va tashkiliy shakllarini o'rganadi. Psixologiya o'qitish metodikasi talabalarga psixologik bilimlarni samarali yetkazish, ularning psixologik tafakkurini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash yo'llarini ishlab chiqadi. Ushbu metodika psixologiya fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Psixologiya o'qitish metodikasining predmeti psixologiya fanini o'qitish jarayonidir. Bu jarayonda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bilimlarni o'zlashtirish qonuniyatlari, o'quv materialining mazmuni va uni yetkazish usullari o'rganiladi. Psixologiya fanini o'qitishda inson ruhiyati, psixik jarayonlar, shaxs xususiyatlari va inson xulq-atvoriga oid bilimlar asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli ushbu fanni o'qitishda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, kuzatish, trening va psixologik tahlil usullaridan keng foydalaniladi.

Psixologiya o'qitish metodikasining asosiy maqsadi talabalarda psixologik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu metodika yordamida talabalar inson psixikasining qonuniyatlarini o'rganadilar, shaxsning individual xususiyatlarini tushunishga harakat qiladilar va psixologik bilimlarni kundalik hayot hamda kasbiy faoliyatda qo'llashni o'rganadilar. Psixologiya fanini o'qitish orqali talabalarda muloqot madaniyati, empatiya, mustaqil fikrlash va muammolarni tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi.

Psixologiya o'qitish metodikasining vazifalari ko'p qirrali hisoblanadi. Avvalo, ushbu metodika psixologiya fanining mazmunini tanlash va tizimlashtirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish, ta'lim vositalaridan foydalanish va talabalarning bilimini baholash usullarini aniqlash ham metodikaning muhim vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, metodika psixologiya fanini o'qitishda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Psixologiya o'qitish metodikasida didaktik tamoyillar muhim o'rin egallaydi. Ilmiylik tamoyili psixologik bilimlarning ilmiy asoslangan holda berilishini talab qiladi. Tizimlilik va izchillik tamoyili o'quv materialining mantiqiy ketma-ketlikda o'qitilishini nazarda tutadi. Onglilik va faollik tamoyiliga ko'ra talabalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlari va bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishlari kerak. Ko'rgazmalilik tamoyili psixologik tushunchalarni turli vositalar yordamida aniq va tushunarli tarzda ifodalashni taqozo etadi. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili esa psixologik bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Psixologiya fanini o'qitishda turli metodlardan foydalaniladi. Ma'ruza metodi nazariy bilimlarni yetkazishda asosiy o'rin tutadi. Suhbat va savol-javob metodlari talabalarning fikrlash faolligini oshirishga yordam beradi. Kuzatish metodi psixik jarayonlarni tabiiy sharoitda o'rganish imkonini beradi. Trening va rolli o'yinlar esa talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va case-study texnologiyalari talabalarning mustaqil fikrlashi va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish esa psixologiya fanini o'qitish samaradorligini oshiradi.

Psixologiya o'qitish metodikasida talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Har bir talabaning qobiliyati, qiziqishi, bilimni o'zlashtirish darajasi va psixologik holati turlicha bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi differensial yondashuv asosida ta'limni tashkil etishi zarur. Talabalarni rag'batlantirish, ularni mustaqil izlanishga undash va ijobiy psixologik muhit yaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Psixologiya fanini o'qitishda talabalarning amaliy faoliyatga jalb qilinishi ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim tizimida psixologiya o'qitish metodikasi innovatsion texnologiyalar bilan boyib bormoqda. Multimedia vositalari, elektron darsliklar, onlayn platformalar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari psixologik bilimlarni yanada qulay va samarali o'zlashtirishga yordam bermoqda. Interfaol metodlar va loyiha asosida o'qitish texnologiyalari talabalarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga zamonaviy metodlar ta'lim jarayonida talabalarni faol subekt sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Psixologiya o'qituvchisi yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi kerak. U nafaqat psixologik bilimlarni chuqur bilishi, balki pedagogik mahorat, kommunikativ qobiliyat va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur. Psixologiya o'qituvchisi talabalarning psixologik holatini tushunishi, ularga individual yondasha olishi va ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishi kerak. O'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Psixologiya o'qitish metodikasi nimani o'rganadi?
2. Psixologiya o'qitish metodikasining predmeti nimadan iborat?
3. Ushbu metodikaning asosiy maqsadi qanday?
4. Psixologiya o'qitish metodikasining vazifalarini ayting.
5. Didaktik tamoyillar deganda nima tushuniladi?
6. Ilmiylik va tizimlilik tamoyillarining mohiyatini tushuntiring.

11-MAVZU: TA'LIM JARAYONIGA NISBATAN TEXNOLOGIK YONDASHUV

1. Oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitishning maqsadlari.
2. Psixologik bilimlarni amaliy qo'llash.
3. Psixologiyani o'qitish, jarayonida talabalarni texnologik jihatdan qurollantirish.

Talabalarni har qanday fanlarni o'rganishlaridan asosiy maqsadi hayotiy vazifalarga va amaliy masalalarga ilmiy nuqtai nazardan yondashgan holda o'rganishdir. Psixologiyani o'rganishda talaba fanni inson psixologiyasining harakatlari har bir odamning hulq-atvor ko'rinishlarining xususiyatlarini tushunish va tushuntirib berish, shaxs psixologiyasida ilmiy yo'nalishlarni tahlil qilish maqsadida va shuning asosida ular bilan kundalik hayotda to'g'ri munosabatlarda bo'lishiga o'rganib olish keraqligini bildiradi.

Bu maqsad umumiy bo'lib har qanday fanni o'rganishga ham talluqli bo'lgani bilan, u faqatgina talabaning faoliyatiga tegishlidir aynan u bunga erishishga intilishi kerak.

O'qituvchi faoliyati haqida gapiradigan bo'lsak, uning faoliyati, talabanikidan farqli o'ziga xos xususiyatga ega. Talabaning maqsadi - fanni o'rganish, o'qituvchining maqsadi - uni tadbiq etishdir. Bu maqsadlar oxiri oqibat birlashadilar lekin, maqsadlarni qo'yish jarayonida ular turli ko'rinishga ega bo'ladilar; talaba o'qituvchidan «bilim olishga» intiladi, o'qituvchi esa unga ana shu

zarur bilimlarni «berishga» va mavjud bilimlardan foydalanishga o'rganishga harakat qiladi.

Psixologiyani o'rganishda har bir talaba o'zining bo'lajak kasbidan qat'iy nazar shaxsning xarakteri va qobiliyatlarini temperamentini va boshqa xislatlarini aniqlashda, insonning harakatlari va qilayotgan ishlarini baholash va tahlil qilishda jamiyatda jamoada boshqa odamlar bilan shaxsiy munosabatlarda psixologik fikrlashga o'rganib olishi kerak.

Shunday qilib, psixologiyani o'qitish, jarayonida talabalarni psixologiyadan olgan bilimlari, o'quv maqsadlari asosida ta'lim jarayonining uning natijalarida birlashadi; undan boshqa odamlar bilan munosabatlarda ilmiy psixologik bilimlariga amaliy tayanish mahoratini rivojlantiradi va o'z navbatida aynan psixologik fikrlash mahorati shakllanishini bildiradi. O'z oldimizga u yoki bu mavzu va bo'limlarni o'qitishni maqsad qilib qo'yar ekanmiz, fanning turli sohalari xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Misol uchun nazariy (umumiy) psixologiyani tushuntiruvchi deb nomlash qabul qilingan, amaliy psixologiyani esa hayotiy haqiqatning turli tomonlarida bu nazariyani: psixik hodisalar holatlari va vaziyatlariga amaliy qo'shimcha deb hisoblashadi. Ammo amaliy psixologiya ham haqiqiy psixik hayotdagi aniq faktlarni tushuntiradi jumladan, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy hayot hodisalarini guruhlar xulqi hodisalarini injenerlik psixologiyasi-insonning texnika bilan o'zaro munosabati xususiyatlarini, pedagogik psixologiya o'qitish va tarbiyaning samaradorligi shartlari bilan bog'liq bo'lgan holatlarni, tibiyot psixologiyasi – inson salomatligini yaxshilanishi va yomonlashishini sabablarini, harbiy psixologiya - insonning xavotirli vaziyatlardagi harakatlari xususiyatlarini va shu kabi.

Shunday qilib, amaliy psixologiyaning vazifasi nazariy ya'ni umumiy psixologiya kabi tushuntiruvchi hisoblanadi lekin psixologiyaning har bir sohasiga talluqli qiziqishlar doirasidagi hodisalarga nisbatan amaliy hisoblanadi.

Psixologik bilimlarni amaliy qo'llashga kelsak, nazariy va amaliy psixologiya uchun u hodisalarni tushuntirishdan iborat bo'ladi, birinchi holatda - bilimlar tor sohasi nuqtai nazaridan amaliy psixologiya aniq bir nazariyasini misol

uchun insonning hulqi sabablarini ma'lum ehtiyojlaridan kelib chiqishi haqidagi umumpsixologik nazariya asosida tushuntirish mumkin, uchuvchi sinovchining doimiy xatarli harakatlari sabablar esa aviasiya psixologiyasi nuqtai nazaridan tushuntirish kerak bo'ladi, chunki talablarning o'zi bu erda aniq va o'ziga xoslikni anglab etishlari kerak. O'ama narsada ham huddi shunday hodisalarni kuzatish mumkin.

Endi savol; psixologiyaning amaliy sohalariga psixologik nazariya xizmat qilsa uni amaliy qo'llash deganda nimalar nazarda tutilishi mumkin? Bu savolga javob berish amaliy fanlarni o'qitish maqsadi bilan bog'liq bo'ladi. Bu savolga javob ijobiy bo'lish kerak: amaliy emas balki nazariy masalalarni hal etishda nazariyani amaliy qo'llash deb hisoblash mumkin.

Faoliyatning umumiy psixologik nazariyasi yoki masalan rivojlanish va o'qitish (ya'ni pedagogik psixologiya sohasiga) yoki uyin faoliyatida bola shaxsini shakllantirish qonuniyatlarini aniqlashga (ya'ni yosh psixologiyasi sohasiga) qo'llaydigan bo'lsak, bu biologiya qonunlarini tibiyot yoki zoologiya o'rganadigan hodisalarni tushuntirishga matematika qonunlarini, qatiq jismlar fizikasi sohasi o'rgatadigan hodisalarni tushuntirishi uchun qo'llagandek yo'l tutgan bo'lamiz.

Shuni ham aytish kerakki, psixologiyaning umumiy nazariyasi faqatgina amaliy psixologik fanlarda, balki boshqa «begona» fanlarda shuningdek masalan pedagogikada yoki sosiologiyada ham hodisalarni nazariy tushuntirishda qo'llanilishi mumkin.

Umumiy yoki amaliy psixologik nazariyani boshqa yaqin bo'lgan yoki yaqin bo'lmagan fanlarda nazariy o'rganish masalalariga amaliyotni qo'llash psixologik nazariyani amalda qo'llashning ikki turidan biri hisoblanadi. Biri psixik hodisalarni tushuntirish uchun qo'llash deb aytish mumkin, ikkinchisi - psixologik hodisalarni qayta o'zgartirish ularni tuzatish uchun qo'llash deb nomlash mumkin u amaliy psixologiya vazifasiga kiradi uning ilmiy nomi psixotexnika deb ataladi.

Hozir biz aniqlab olganimizdek amaliy psixologiyaning qoidasi nazariy psixologiya qoidasi bilan teng holda psixik hodisalarni tushuntirish uchun qo'llaniladi. lekin tushuntirish mavjud bo'lgan hodisa va voqealarnigina emas balki

qayta tashkil etishlaridan keyin paydo bo'ladiganlarga ham talluqli ekan; shuningdek, ta'lim tarbiya, psixokorreksiya, psixoterapiya va shu kabilar. Amaliy psixologiya voqealarni pozitiv tuzatishga yoki keraqli yangi ma'lumotlarni tadbiq etishga, undan foydalanish faqatgina tushuntirish emas, balki qo'llash bo'lib qoladi.

Shunday qilib amaliy psixologiya ikki turda amaliy qo'llanilishi ya'ni aniq psixologik voqealarni tushuntirish uchun (amaliy psixologiyaning nazariy qismi) va psixikaning u yoki bu tomonlarini qayta tashkil etish mumkin (amaliy psixologiyaning amaliy qismi yoki psixotexnika)

Agarda o'quv yurtining psixologiya o'qituvchisi talabalarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish bilan mashg'ul bo'lsa, va bunda maxsus intellektual mashqlar yordamiga tayansa bunda faqatgina nazariy psixologiyadagi nazariyalardagi haqiqatni asoslab berish, uning qonuniyatlarini tushuntirish bilan shug'ullansa, balki amaliy psixologiya psixotexnika bilan yondoshadi, chunki fikrlash ko'nikmalarini amaliy shakllanishiga nazariy psixologiya materiallariga tayangan holda fikrlash masalalarini (analitik semantik) hal etish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, psixologiyani o'rganishning umumiy maqsadi o'quvchilarda (talabalarda) psixik hodisalar va holatlarini ilmiy tushuntirish uchun o'z bilimlarini qo'llab psixologik fikrlash mahoratini shakllantirish hamda inson shaxsining rivojlantirish maqsadida uning psixikasini qayta o'zgartirish hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, hulq-atvorni psixologik tuzatish yoki nerv psixik kasalliklarni psixoterapevtik davolash va boshqalar.

Ushbu umumiy maqsad biz yuqorida ko'rganimizdek qator aniq maqsadlarga ajratilishi kerak. Psixologiyani o'rganishning aniq maqsadlarini ajratish tamoiyllaridan biri talabalarni, bulajak mutaxassis sifatida kasbga yo'naltirish tamoyli hisoblanadi. Ana shu nuqtai nazardan ham barcha talabalarni ikki katta guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) ko'pchilik - bu psixologiya mutaxassisligi talabalari;

2) kichik guruh - bu talaba psixologlar. O'ar ikki guruh uchun ham psixologiyani o'qitishdan umumiy maqsad bita lekin, aniq maqsadlar ularda turlichadir.

Avvalo mutaxassis - psixolog bo'lishni maqsad qilmagan ko'pchilik talabalar psixologiyani o'rganishlari, maqsadlarini ko'rib chiqishdan boshlaymiz.

Agarda umumiy maqsad bita bo'lsa ya'ni amaliy masalalarni hal etish uchun nazariy bilimlarni qo'llash orqali psixologik fikrlash mahoratini shakllantirish bo'lsa unda savol tug'iladi. Psixolog bo'lmagan mutaxassisning kasbiy faoliyatiga kiruvchi qaysi harakatlarda bu bilimlarni qo'llash mahorati kerak bo'ladi.

Mashhur psixolog E.A.Klimovning fikriga ko'ra psixologik bilimlar har qanday psixolog bo'lmagan mutaxassislar uchun «psixologik bilimdonlik» uchun kerak chunki unga g'oyalar, faktlar, qarashlarni boshqalarning ongiga etkazishga to'g'ri keladi. Bir birini tushunishga harakat qilish o'qitish, boshqarish bundan tashqari u «o'zining ichki dunyosini va o'zini takomillashtirishni ilmiy asosda yaxshi boshqarish» ham muhim hisoblaydi. Chunki bular faqatgina psixolog bo'lmaganlargina talluqli deb hisoblashgina emas, balki bir xil darajada ekanligini inobatga olish lozim. Mutaxassis psixologlarga ham talluqli deb hisoblash mumkin, shunda psixolog bo'lmagan talabalarning o'qishdan maqsadlari bir birlarini tushunish, o'rganish, boshqarish uchun psixologik bilimdonlik deb tan olish qoladi. Bu bilan har qanday mutaxassis ham shug'ullanadi.

Bu fikrni to'g'ri deb hisoblash mumkin lekin qaysi bilimga qarab odamni etarli darajada psixologik bilimdonlar yoki etarli bilimga ega bo'lmagan odamlar qatoriga kiritish mumkinligini aniqlab olish mumkin.

Psixologiya masalalarida etarlicha bilimdonlik chegaralari kasbiy faoliyatining har bir sohasi uchun faqatgina o'ziga xos bo'lish mumkin. Misol uchun shaxta direktorining psixologik bilimdonligi shaxtiyorlar birgadiri psixologik bilimdonligidan so'zsiz farq qiladi. Bu ularning xizmat lavozimlari pog'onasi turlicha bo'lgani uchun emas balki ularning faoliyatlari xarakterida farq bo'lganligi sabablidir ular turli masalalarni hal etadilar shunga qarab odamlarning o'zaro munosabatlarini tahlil qiladilar va baholaydilar ularni o'rgatadilar va boshqaradilar.

Haqiqatdan ham xo'jalik masalalarini hal etish uchun shaxta direktori iqtisodchi va yurist konsultant bilan bir birlarini tushunishlari kerak bo'lsa brigadirda bunday zaruriyat hech qachon yuzaga kelmasa kerak shuning uchun bunday masalalarda psixologik bilimdon bo'lishga unchalik zaruriyat bo'lmaydi.

Boshqa turli soha mutaxassis rahbarlari uchun ham psixologik bilimdonlik haqidagi masalada aynan shu holat takrorlanadi.

Endi psixolog mutaxassisligi bo'yicha talabalarning psixologiyani o'rganish aniq maqsadlarini ko'rib chiqamiz. Umumiy maqsad - psixologik fikrlashga o'rganish albata mutaxassis bo'lmagan psixologlarga nisbatan yanada ko'proq darajada bilimlar zahirasi ega bo'lishi lozim. Psixologik fikrlashga o'rganish orqali amaliy psixolog mutaxassis hisoblanmaydi. Mutaxassis amaliyotchi uchun bu unchalik muhim bo'lmaydi, biroq psixologik fikrlash, bilish va mahoratlari albata ularning obro'sini ko'tarishi mumkin edi.

Amo turli yo'nalishdagi mutaxassisliklarda (nazariy amaliy) psixologni o'rganish umumiy maqsadi bilan bir qatorda o'zining aniq maqsadlari ham bor.

Misol uchun psixolog amaliyotchi masalasi Nizomiy nomidagi TDPU psixologiya fakulteti talabasi faqatgina psixologiyaning akademik bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki psixologiyaning fundamental muamolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishga tayyor bo'lish kerak, bu bilimlar orqali o'zining fan haqidagi bilimlarini kengaytirib boradi. Shu bilan birga u psixologiyaning amaliy sohasida mutaxassis bo'lmasligi va amaliy psixologiya sohasida yuksak mahorat bilan hech narsani bajarmasligi mumkin. Bunday holat so'nggi chegara bo'lsin (haqiqatda psixolog amaliyotchi albata amaliy ishlarni ham ko'plab bajarishi kerak) lekin u psixolog amaliyotchini o'qitishning o'ziga xos maqsadini yaqqol namoyon etadi.

Uning vazifasi - fanni yanada rivojlantirish ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi va metodikasini egallay olish mamlakatimizdagi hamda chet el nazariy psixologiyasining hozirgi holatini bilishi, fanni yanada rivojlanish manfaatlarini talab qiladigan tadqiqotlarni bilish kerak.

Bunday mutaxassisni o'qitishning aniq maqsadlari uning mohiyati bo'yicha psixologiyani fan sifatida o'rgatishdan umumiy maqsad - ilmiy bilimlarni amaliy qo'llashni o'rganib olish, psixologik fikrlashni bilish lekin amaliy masalalarni hal etishdan ko'ra ko'proq nazariy masalalarni hal etish uchun nazariyani qayta o'zlashtirish uchun emas, balki ilgari tushuntirib berilmagan psixik hodisalarni tushuntirib berish orqali qo'llashga o'rganib olish kerak.

Amaliy psixologiyaga ixtisoslashgan psixologni tayyorlashning aniq maqsadi boshqacha ko'rinishda bo'ladi - pedagogik ishi huquqiy (yuridik) injenerlik tibiyot (kilinik) va boshqalar, tor doiradagi tadqiqotlar aniq sohalarida psixik hodisalarni tushuntirish uchun qo'llanilishi lozim, o'zining amaliy qismida esa (psixotexnikada) psixikani qayta tuzish uchun qo'llaniladi. Amaliy psixologiyaning bunday ikki xil vazifasi o'qitish maqsadini va uni talabalar o'rganishlarining maqsadini ham alohida usulda o'z oldimizga kiritishimizga majbur etadi. Maqsadni shunday quyish bizningcha to'g'ri bo'ladi; tanlangan psixologiya sohasida psixik hodisalarni tahlil qilish baholash va tushuntirish uchun, o'quvchilarda fikrlash doirasini psixologik shakllantirish haqida, psixologiyaning ushbu sohasi inson psixikasini ijobiy o'zgarishiga, bu sohasidagi ilmiy qoidalarini qo'llash va ushbu usullarini ular o'zlashtirib olishlari lozim. Misol uchun tibiyot instituti talabasi vrach bo'lishga tayyorlanar ekan bemorni davolash maqsadida unga psixoprofilaktik ta'sir ko'rsatish, psixoterapevtik, psixokorreksion ta'sir ko'rsatishlar metodlarini egallab olishi uchun klinik psixologiyani o'rganadi. O'ar qanday maktab o'qituvchisining qoloqligi yoki aksincha muvaffaqiyatli o'qitishning psixologik sabablari har bir o'quvchini individual o'rganib tahlil qilish mahoratini egallashi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga psixologiya o'qituvchisi o'z ishini shunday tashkil qiladiki o'qitishning umumiy maqsadi - psixologik fikrlashning shakllanishi asosan ma'ruza va seminar mashg'ulot-larida erishmaslikka harakat qiladi; amaliy mashg'ulotlarga - laboratoriya hamda maktablarda bolalar bog'chasida korxonalar va firmalarda yuridik konsultatsiyalarda, sud va proqraturalarda, tibiyot muassasalaridagi o'quv mashg'ulotlarida egallaydilar. Shunday qilib o'qitish metodikasining samaraliligi

birinchi navbatda o'qitishning maqsadini anglab etish va bunga metodik usullarning barchasining qaratilishiga bog'liq bo'ladi.

12-MAVZU: PSIXOLOGIYA O'QITISHNING MAQSADLARI

Reja:

1. O'zlashtirish nazariyasi nuqtai nazaridan o'quv jarayonini tashkil qilishning umumiy tavsifi.
2. Bilimlarni o'zlashtirishning psixologik nazariyalari.
3. Ta'lim metodikalarining klassifikatsiyasi va ularning izchillik prinsipi bo'yicha tanlash.
4. O'qitishning aktiv va inovasion metodlari tavsifi.
5. Programmashtirilgan, muammoli va hamkorlik ta'lim metodlarining mohiyati.
6. Yaxlit kurs bo'yicha mashg'ulotlarning mohiyatiga ko'ra tizimga solish, ularni rejalashtirish va tashkil qilish.

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Ulardan birinchisi inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'siri va uchinchi odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda. Konkret ijtimoiy munosabatda, ya'ni ma'lum oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab o'sadi, shakllanadi.

Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfning, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyondasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi.

Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdan barcha psixik xususiyatlarini, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari

uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Manna shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlarini, xarakteri, irodaviy sifatlarini, qiziqishlarini, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Muhit, ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya, azaldan berilgan, genetik jihatdan qat'iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Bu borada, birinchidan, shuni ta'kidlash kerakki, odam muhit ta'siri ostidagi passiv obyekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir. Shuning uchun tashqi hayot sharoiti, tashqi ta'sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilaydi. Shu sababli muhitning ta'siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o'zaro ta'siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi oqibat natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta'sirotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. Manna shu ma'noda tashqi individning o'ziga xos psixikasi va shaxsiy taribasini o'z ichiga olgan ichki sharoit orqali bilvosita ta'sir qiladi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning, o'quvchining) ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir.

O'z-o'zidan ma'lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nihoyatda zarurdir. Inson psixik xususiyatlari me'yorida tarkib topishi uchun muayyan darajadagi biologik tuzilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo'lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir, xolos.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, inson psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z-o'ziga shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi. Hech bir me'yordagi bola dadil yoki qo'rqqoq, irodali yoki irodasiz. Mehnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Agarda tarbiya to'ri tashkil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tipii asosida xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o'z-o'zini tuta bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo'lgan bolalarda ham, yoki nerv sistemasining tipii vazmin bo'lgan bolalarda ham tarbiyalash lozim va tarbiyalasa bo'ladi. Biroq birinchi holdagi bolalarni tarbiyalash ikkinchi holdagilarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Har ikkala holda kerakli sifatlarni tarbiyalash yo'llari va usullari ham turlicha bo'ladi.

Ikkinchidan tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat kurtaklarida tug'ma individual farqlar mavjud. Shu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatidan ustun turishadi. Ba'zida esa aksincha biror-bir faoliyat turini egallash imkoniyati jihatidan esa ulardan ongsizlik qilishlari mumkin. Manna shu ma'noda olganda odamlar o'z qobiliyatlarini barobar rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar. Garchi tabiiy kurtaklar o'quvchilarning psixik rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lsa ham (shu sababli, masalan, ta'lim jarayonida ayrim o'quvchilardan boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq zo'r berish talab qilinadi, ayrim o'quvchiga o'qituvchi ko'proq kuch sarflaydi, e'tibor

beradi va ko'proq vaqt ajratadi), bu kurtaklarning o'zi psixik taraqqiyotda hal qiluvchi rol o'ynamaydi.

Turli yo'nalishga ega bo'lgan psixologlar, bir tomondan ta'lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabati muammosini keng doirada muhokama qilmoqdalar.

Rivojlanish deyilganda odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir: 1) miyaning o'z biologik, organik yetilishi, uning anatomik-biologik tuzilishi jihatidan yetilishi; 2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlanish. O'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yechilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida albatta hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan yetilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta'lim qanday mavqyega ega? Ta'lim rivojlanishiga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Jumladan nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldindan boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga halaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveysariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yo'g'rilgandir.

J.Piajening fikricha, bolaning va maktab o'quvchisining aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir kursata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yechilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlar pishib yetiladigan muayyan yoshiga qat'iy nazar bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsa-da, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlanadi. U olg'a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi.

Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan «psixik

taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi «ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi» degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi.

E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bola taraqqiyotini hych mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas»-deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yo'nalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.G.Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida bolalar ma'lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta'lim ta'siri natijasida o'quvchilarda o'z-o'zini va o'zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yuzaga keladi. Psixolog-olimlardan V.V.Davydov, P.Ya.Galperin, N.A.Menchinskaya, A.A.Lyublinskaya, D.B.Elkonin, E.G'.G'oziyevlar o'zlarining tadqiqotlarida ta'limning taraqqiyotdagi yetakchi rolini ta'kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o'zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug'ilishi, tabiiydir.

Bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar kurashidan iborat, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o'sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o'zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o'rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib

borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo'lgan tayyorlik bilan hatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog'liqligi o'rtasida ziddiyat mavjuddir. O'smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o'ziga o'zi baho berishi va o'z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo'lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o'rtasida, shuningdek, o'zining jamoadagi real mavqeyi to'g'risidagi ichki kechinmasi o'rtasida; katta odamlar hayotida to'la xuquqli a'zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o'z imkoniyatlarining mos kelmasligi o'rtasida paydo bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola, maktab o'quvchisi psixik rivojlanishining yanada yuksakroq bosqichiga ko'tariladi. Ehtiyoj qondiriladi- ziddiyat yo'qoladi. Biroq qondirilgan ehtiyoj, yangi ehtiyojni tug'diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi-taraqqiyot davom etadi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o'zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolgan, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muxit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatga va tarbiyaga bog'liqdir. Manna shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatdar psixik rivojlanishning notekisligi kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng ko'lay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bita darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning rivojlanishidagi ayrim davrlarda psixikaning u yoki bu yo'nalishlarda rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu

sharoitlarning ba'zilar vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev). bundan senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan yetilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi-murakkab taraqqiyot jarayonidir.

Nazorat savollar

1. O'zlashtirish nazariyasi nuqtai nazaridan o'quv jarayonini tashkil qilishning umumiy tavsifi.
2. Bilimlarni o'zlashtirishning psixologik nazariyalari.
3. Ta'lim metodikalarining klassifikatsiyasi va ularning izchillik prinsipi bo'yicha tanlash.
4. O'qitishning aktiv va inovation metodlari tavsifi.
5. Programmallashtirilgan, muammoli va hamkorlik ta'lim metodlarining mohiyati.

Amaliy mashg'ulotlar

1-MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA: PREDMET, TUZILMA, MUAMMOLAR

Pedagogik psixologiyaning asosiy tushunchalarini tahlil qilish

Guruhlariga bo'linish (3–5 kishi).

Har bir guruhga pedagogik psixologiyaning predmeti, vazifalari va tuzilmasini tahlil qilish topshirig'i beriladi.

Guruhlar quyidagi jihatlarni ishlab chiqadi:

Pedagogik psixologiyaning predmeti

Faning asosiy vazifalari

Pedagogik psixologiyaning tarkibiy qismlari

Ta'lim va tarbiyadagi psixologik muammolar

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, konsept xarita

Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish

Har bir guruhga ta'lim jarayoniga oid psixologik vaziyatlar beriladi.

Guruhlar quyidagilarni aniqlaydi:

Muammoning sabablari

Psixologik omillar

Pedagogik yechimlar

Kutilayotgan natijalar

Natijalar jadval yoki diagramma asosida taqdim qilinadi.

Guruhlar o'z fikrlarini boshqa guruhlar bilan muhokama qiladi.

Metodlar: Keys-stadi, interaktiv muhokama, taqdimot

Muammolarni baholash va xulosa chiqarish

Pedagogik psixologiyaning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi.

Guruhlar o'z xulosalarini himoya qiladi.

O'qituvchi tomonidan yakuniy tavsiyalar beriladi.

Mashg'ulot yakunida refleksiya o'tkaziladi.

Metodlar: Baholash, refleksiya, konsultatsiya

Mashg'ulotning asosiy natijalari:

Ishtirokchilar pedagogik psixologiyaning mohiyatini tushunadi.

Psixologik muammolarni aniqlash va tahlil qilish ko'nikmasi rivojlanadi.

Guruhlarda ishlash va fikr almashish tajribasi ortadi.

Pedagogik vaziyatlarga psixologik yondashuv shakllanadi.

2-MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING YUZAGA KELISH

TARIXI

Tarixiy qarashlarni o'rganish

Guruhlarga bo'linish (3–5 kishi).

Har bir guruhga pedagogik psixologiyaning rivojlanish bosqichlarini o'rganish topshiriladi.

Guruhlar quyidagilarni ishlab chiqadi:

Sharq mutafakkirlarining qarashlari

G'arb olimlarining hissasi

Fan rivojlanishining bosqichlari

Zamonaviy pedagogik psixologiya yo'nalishlari

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, taqdimot

Tarixiy nazariyalarni taqqoslash

Har bir guruh olimlarning qarashlarini taqqoslaydi.

Jadval va diagrammalar asosida umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi.

Guruhlar o'z xulosalarini himoya qiladi.

Metodlar: Taqdimot, jadval bilan ishlash, muhokama

Yakuniy tahlil va baholash

Pedagogik psixologiyaning bugungi kundagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Ishtirokchilar fan rivojlanishining ta'limdagi o'rnini tahlil qiladi.

O'qituvchi tomonidan yakuniy tavsiyalar beriladi.

Metodlar: Refleksiya, baholash, konsultatsiya

Mashg'ulotning asosiy natijalari:

Ishtirokchilar pedagogik psixologiya tarixini biladi.

Olimlarning qarashlarini taqqoslash ko'nikmasi shakllanadi.

Tarixiy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi bog'liqlik tushuniladi.

Tahliliy fikrlash rivojlanadi.

3-MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING METODLARI

Psixologik metodlarni o'rganish

Guruhlarga bo'linish (3–5 kishi).

Har bir guruhga psixologik metodlardan birini o'rganish topshiriladi.

Guruhlar quyidagi jihatlarni ishlab chiqadi:

Metodning maqsadi

Qo'llash jarayoni

Afzallik va kamchiliklari

Amaliy qo‘llanish holatlari

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, konsept xarita

Metodlarni amaliy qo‘llash

- Guruhlar kuzatish, suhbat, test yoki eksperiment metodlarini amaliy bajaradi.
- Olingan natijalarni jadval asosida tahlil qiladi.
- Har bir guruh o‘z metodining samaradorligini taqdim etadi.

Metodlar: Amaliy mashq, interaktiv taqdimot, muhokama

Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish

Psixologik metodlarning ta‘lim jarayonidagi o‘rni muhokama qilinadi.

Guruhlar metodlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

O‘qituvchi tomonidan umumiy xulosa beriladi.

Metodlar: Baholash, refleksiya, konsultatsiya

Mashg‘ulotning asosiy natijalari:

Ishtirokchilar psixologik metodlarni farqlay oladi.

Tadqiqot olib borish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Kuzatish va tahlil qilish malakasi shakllanadi.

4-MAVZU: O‘RGANISH VA O‘QUV FAOLIYATI NAZARIYASI

O‘quv faoliyatining psixologik asoslarini o‘rganish

Guruhlarga bo‘linish (3–5 kishi).

Har bir guruhga o‘quv faoliyatining nazariy asoslarini tahlil qilish topshiriladi.

Guruhlar quyidagi jihatlarni ishlab chiqadi:

O‘rganish tushunchasi va turlari

O‘quv faoliyati tuzilmasi

Motivatsiya va rivojlanish omillari

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, konsept xarita

O‘rganish jarayonini amaliy tahlil qilish

Har bir guruhga o‘rganish jarayoniga oid vaziyatlar taqdim etiladi.

Guruhlar quyidagilarni aniqlaydi:

O'rganishdagi muammolar

Bilimni o'zlashtirish omillari

Samarali metodlar

Kutilayotgan natijalar

Natijalar diagramma yoki jadval asosida taqdim qilinadi.

Guruhlar o'z tavsiyalarini muhokama qiladi.

Metodlar: Keys-stadi, interaktiv muhokama, taqdimot

Natijalarni baholash va yakuniy xulosa

O'quv faoliyatini samarali tashkil etish yo'llari muhokama qilinadi.

Guruhlar o'z xulosalarini himoya qiladi.

O'qituvchi tomonidan yakuniy tavsiyalar beriladi.

5-MAVZU: TA'LIM OLISH QOBILIYATI O'QUV FAOLIYATI SUBEKTLARINING XARAKTERISTIKASI SIFATIDA

Ta'lim olish qobiliyatini o'rganish

Guruhlarga bo'linish (5 -8kishi).

Har bir guruhga ta'lim olish qobiliyatining individual xususiyatlarini tahlil qilish topshiriladi.

Guruhlar quyidagi jihatlarni ishlab chiqadi:

Subekt tushunchasi

Individual farqlar

Ta'lim samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar

O'quvchilarning psixologik imkoniyatlari

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, jadval bilan ishlash

Amaliy vaziyatlarni tahlil qilish

Har bir guruh quyidagilarni aniqlaydi:

Muammolar sababi

Psixologik yondashuvlar

Individual ishlash usullari

Kutilayotgan samaradorlik

Natijalar poster yoki diagramma asosida taqdim etiladi.

Metodlar: Keys-stadi, interaktiv taqdimot, muhokama

Baholash va tavsiyalar ishlab chiqish

Ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish usullari muhokama qilinadi.

Guruhlar o'z tavsiyalarini ishlab chiqadi.

O'qituvchi tomonidan yakuniy xulosa beriladi.

Metodlar: Refleksiya, baholash, konsultatsiya

Mashg'ulotning asosiy natijalari:

- Ishtirokchilar individual xususiyatlarni aniqlashni o'rganadi.
- Ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha ko'nikmalar shakllanadi.
- Psixologik yondashuvlardan foydalanish tajribasi ortadi.
- Tahliliy fikrlash rivojlanadi.

6-MAVZU: O'QUV MOTIVATSIYASI

Motivatsiya omillarini aniqlash

Guruhlarga bo'linish (3–5 kishi).

Har bir guruhga o'quv motivatsiyasini tahlil qilish topshiriladi.

Guruhlar quyidagi jihatlarni ishlab chiqadi:

Motiv va motivatsiya tushunchasi

Ichki va tashqi motivatsiya

O'quv qiziqishlari

Motivatsiyani oshirish usullari

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, konsept xarita

Motivatsion vaziyatlarni tahlil qilish

Guruhlarga motivatsiyaga oid pedagogik vaziyatlar beriladi.

Guruhlar quyidagilarni ishlab chiqadi:

Motivatsiya pasayish sabablari

Rag'batlantirish usullari

Samarali pedagogik yondashuvlar

Kutilayotgan natijalar

Har bir guruh o'z yechimini taqdim etadi.

Metodlar: Keys-stadi, muhokama, taqdimot

Yakuniy baholash va tavsiyalar

O'quv motivatsiyasini oshirishning samarali yo'llari muhokama qilinadi.

Guruhlar tavsiyalar ishlab chiqadi.

O'qituvchi tomonidan umumiy xulosa beriladi.

Metodlar: Baholash, refleksiya, konsultatsiya

Mashg'ulotning asosiy natijalari:

Ishtirokchilar motivatsiya turlarini farqlay oladi.

O'quvchilarda qiziqish uyg'otish ko'nikmasi shakllanadi.

Motivatsion metodlardan foydalanish tajribasi ortadi.

Ta'lim jarayonida samarali rag'batlantirish usullari ishlab chiqiladi.

7-MAVZU: TARBIYA PSIXOLOGIYASI: MAQSADI, VOSITALARI VA METODLARI

Tarbiya jarayonining psixologik asoslarini o'rganish. Guruhlarga bo'linish orqali talabalarga tarbiya psixologiyasining maqsadi, vositalari va metodlarini tahlil qilish topshirig'i beriladi. Har bir guruh tarbiya jarayonining inson shaxsiga ta'siri, oila va maktab hamkorligi, rag'batlantirish va jazolash usullarining samaradorligi haqida ma'lumot tayyorlaydi. Talabalar tarbiyaga oid vaziyatlarni muhokama qilib, muammolar sabablarini va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlaydi. Har bir guruh o'z fikrlarini jadval, poster yoki diagramma shaklida taqdim etadi hamda samarali tarbiya metodlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Mashg'ulot davomida tarbiyaviy vaziyatlarga psixologik yondashuv, o'quvchilar bilan individual ishlash va tarbiya samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, keys-stadi, interaktiv muhokama, taqdimot, refleksiya, konsultatsiya.

Mashg'ulotning asosiy natijalari: Ishtirokchilar tarbiya psixologiyasining mohiyatini tushunadi, tarbiyaviy vaziyatlarni psixologik jihatdan tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi, oila va maktab hamkorligini tashkil etish tajribasi ortadi

hamda samarali tarbiya metodlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

8-MAVZU: PEDAGOG PSIXOLOGIYASI

Pedagog shaxsining psixologik xususiyatlarini o'rganish. Mashg'ulot davomida talabalar guruhlarga bo'linib, pedagog shaxsiga xos psixologik sifatlarni tahlil qiladi. Har bir guruh pedagogik qobiliyatlar, kommunikativ ko'nikmalar, pedagogik muloqot va individual faoliyat uslublari haqida ma'lumot tayyorlaydi. Talabalarga pedagogik vaziyatlar taqdim etilib, ularda o'qituvchining tutumi, muomala madaniyati va muammolarni hal qilish usullari muhokama qilinadi. Guruhlar samarali pedagogik muloqot bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi va o'z xulosalarini taqdim etadi. Mashg'ulot davomida pedagogning o'zini boshqarishi, kasbiy rivojlanishi va stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishi masalalari tahlil qilinadi.

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, rolly o'yin, keys-stadi, interaktiv muhokama, taqdimot, refleksiya, konsultatsiya.

Mashg'ulotning asosiy natijalari: Ishtirokchilar pedagog shaxsining psixologik xususiyatlarini tushunadi, pedagogik muloqot ko'nikmalari rivojlanadi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish tajribasi ortadi va o'zini boshqarish hamda kasbiy rivojlantirish malakalari shakllanadi.

9-MAVZU: PEDAGOGIK BAHOLASH PSIXOLOGIYASI

Baholash jarayonining psixologik asoslarini o'rganish. Talabalar guruhlarga bo'linib, pedagogik baholashning psixologik jihatlarini tahlil qiladi. Har bir guruh baholash mezonlari, reyting tizimi, monitoring va baholashning o'quv motivatsiyasiga ta'siri haqida ma'lumot tayyorlaydi. Talabalarga baholash jarayoniga oid muammoli vaziyatlar berilib, ular adolatli baholash, o'quvchilarning ruhiy holati va rag'batlantirish omillarini tahlil qiladi. Guruhlar samarali baholash usullari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi hamda natijalarni jadval yoki diagramma asosida taqdim etadi. Mashg'ulot davomida baholashning ta'lim samaradorligiga ta'siri va o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish masalalari muhokama qilinadi.

Metodlar: Guruh ishlari, brainstorming, jadval bilan ishlash, keys-stadi, interaktiv muhokama, taqdimot, baholash, refleksiya, konsultatsiya.

Mashg'ulotning asosiy natijalari:

Ishtirokchilar pedagogik baholashning mohiyatini tushunadi, baholash mezonlarini ishlab chiqish ko'nikmasi shakllanadi, baholashning motivatsiyaga ta'siri tahlil qilinadi hamda adolatli va samarali baholash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

GLOSSARY

Pedagogik psixologiya	Ta'lim va tarbiya jarayonidagi psixologik qonuniyatlarni o'rganuvchi fan sohasi.
Motivatsiya	Shaxsni faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar yig'indisi.
Refleksiya	Shaxsning o'z faoliyati, xatti-harakati va fikrlarini tahlil qilishi va baholashi.
Empatiya	Boshqa insonning his-tuyg'ularini tushunish va his eta olish qobiliyati.
Kommunikatsiya	Insonlar o'rtasidagi axborot almashish va muloqot jarayoni.
Interfaol metod	Talabalarni faol ishtirok etishga undovchi zamonaviy o'qitish usuli.
Case-study	Muayyan vaziyat yoki muammoni tahlil qilishga asoslangan ta'lim metodi.
Rol o'yinlari	Ishtirokchilarning ma'lum rollarni ijro etish orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish usuli.
Stress	Kuchli hissiy yoki ruhiy zo'riqish holati.
Psixologik muhit	Jamoda shakllanadigan ruhiy-emotsional atmosfera.
Shaxs rivojlanishi	Insonning intellektual, emotsional va ijtimoiy jihatdan shakllanish jarayoni.

Ta'lim jarayoni	Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyat.
Ijtimoiylashuv	Shaxsning jamiyat qoidalari va qadriyatlarini o'zlashtirish jarayoni.
Kognitiv rivojlanish	Tafakkur, xotira, diqqat va idrokning rivojlanish jarayoni.
Diqqat	Shaxsning muayyan faoliyat yoki obyektga ongli ravishda e'tibor qaratishi.
Tafakkur	Muammo va hodisalarni ong orqali tahlil qilish hamda xulosa chiqarish jarayoni.
Idrok	Atrof-muhitdagi predmet va hodisalarni sezgi orqali qabul qilish jarayoni.
Pedagogik muloqot	O'qituvchi va talaba o'rtasidagi maqsadli kommunikativ jarayon.
Faollik	Shaxsning o'quv va ijtimoiy faoliyatdagi faol ishtiroki.
O'z-o'zini baholash	Shaxsning o'z imkoniyatlari va xatti-harakatlariga baho berishi.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23-iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PF-190-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori.

7. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar

8. G‘oziev E.G‘. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
9. Davletshin M.G., Do‘stmuhammedova Sh.A. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent, 2008.
10. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya va psixologiyani o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2015.
11. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
12. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva, 1989.
13. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva, 1975.
14. Petrovskiy A.V. Pedagogik va yosh davrlar psixologiyasi. – Moskva, 1987.
15. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2002.
16. Nemov R.S. Psixologiya. 1–3-kitoblar. – Moskva: Vldos, 2003.
17. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2006.

Internet saytlar

18. <http://edu.uz>
19. <http://www.mitc.uz>
20. <http://lex.uz>
21. <http://ziyonet.uz>
22. <http://natlib.uz>